

ISSN 2010-9601

MOLIYA

ILMIY JURNAL

A



Научный журнал «Финансы»

«Finance» scientific journal



6
2025

TOSHKENT

MOLIYA

Muassis: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tahririyat ijodiy jamoasi:

Bosh muharrir: *A.Karimov*

Bosh muharrir o‘rinbosari: *G‘.Tashmanov*

Texnik muharrir: *K.Rasulova*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2008 yil 24 martda 0519-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

2008 yildan nashr qilinadi, bir yilda 6 marta chiqadi.

O‘zbekiston hududida tarqatiladi.

«Moliya» ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komis- siyasi Rayosatining 2013 yil 13 dekabrda 201/3-sonli qaroriga binoan iqtisod fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy maqolalari e‘lon qilinishi zarur bo‘lgan ilmiy jur- nallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Web-sayt: <http://financial.simmaautostar.uz>

e-mail: moliya@fi.uz *Obuna indeksi – 1204*

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 60^a-uy Tel.: (+998 71) 234-66-89

TAHRIR KENGASHI RAISI:

T.Z.Teshabayev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI:

A.A.Karimov – Bosh muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

G‘.D.Tashmanov — Bosh muharrir o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

G.Q.Abduraxmanova — Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo‘yicha prorektor iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

N.X.Xaydarov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S.Malikov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E.G‘.Nabiyev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

G.N.Axunova — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

K.B.O‘razov - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.E.Toshmurodova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Abdullayeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.Z.Avloqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.I.Karimqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.A.Allayarov- iqtisodiyot fanlari doktori, professor

F.T.Muxamedov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.R.Rustamov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

X.M.Shennayev — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.K.Ochilov — iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

M.M.Tulaxodjayeva — iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Z.A.Sagdullayeva — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

X.Qobulov — iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

I.G‘.Kenjayev – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.Mirzayev — iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Asif Mahbub Karim– Malayziya, Bayneriy menejment va tadbirkorlik universiteti professori

Adriana Grigoressu – Ruminiya, Siyosiy tadqiqotlar va davlat boshqaruvi milliy universiteti
professori

Y.B.Maley – Belorussiya, Polosk davlat univesiteti dotsenti

Elcin Aykas Alp – Turkiya, Istanbul Tijorat Universiteti professori

Tae-Hyoung Mun — Janubiy Korea, Mokvuon universiteti professori

N.K.Muraviskaya — Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti
professori

K.Taygashinova – Qozog‘iston, Almata iqtisodiy-gumanitar universiteti professori

MUNDARIJA

	Betlar
A.A.Karimov, O.O'Nazarova , "Standart-kost" tizimi asosida boshqaruv hisobini takomillashtirish	4
D.B.Kuziyeva , moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya xususiyatlari	11
Sh.I.Ilxamov , Ichki nazorat tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish	17
X.Dj.Xujakulov, A.A.Adilov, U.R.Rizoyev , Qishloq xo'jaligida bug'doy hosildorligini ekonometrik modellashtirish (Samarqand viloyati misolida)	24
U.S.Tursunov , Ijaraga olingan asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	32
S.Boymurotov , Soliq ma'muriyatchiligi yoki soliq ma'murchiligi: tushunchalar tahlili va izohlar	38
I.I.Erkinxojiyev , Banklarning moliyaviy barqarorligini takomillashtirish	45
M.A.Erxonova , Paxtachilik tarmog'i samaradorligini oshirish yuzasidan himoyalash tadbirlari ko'lami o'zgarishi prognozi (Toshkent viloyati misolida)	52
O.I.Ochilov, Z.M.Maxmudova , Inson kapitalini tasniflashning nazariy asoslarini takomillashtirish	62
Sh.K.Kamalov, S.S.Dalimova , Transforming investment dynamics in central asia: The role of international investments and regional integration initiatives in accelerating economic development	73
D.A.Abdujalilova , Bank sektoriga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda ushbu jarayonning budjet intizomini ta'minlashdagi ta'siri	79
A.M.Yusupov , Qo'shma korxonalarda majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	87
H.B.Jurayeva , Zamonaviy ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati va imkoniyatlari	94
Yu.D.Xujaboyeva , Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashning asosiy omillari	100
Ш.К.Камалов, К.С.Пасулова , Инвестиционная привлекательность регионов узбекистана: проблемы и решения	109
X.A.Valijonov , Donmahsulotlarini baholash va buxgalteriya hisobining tashkil qilish usullarini takomillashtirish	114
A.B.Abdullayev , Soliq to'lovlari hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlilining nazariy jihatlari	122
Э.У. Умурзоков , Стратегия современного менеджмента и методы управления стратегическими изменениями	130
D.A.Nematova , 16-son BHXS "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq ko'chmas mulk (yer, bino), mashina va asbob-uskunalar bilan bog'liq davomiy xarajatlar hisobining metodik masalalari	137
I.I.Meliyev , O'zbekistonda auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	143
G'D.Tashmanov , Uzoq muttadli aktivlarni hisobga olishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining o'rni va ahamiyati	150

Karimov Akram Abbasovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası professori.i.f.d

Nazarova Oyshajon O‘rinboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

**“STANDART-KOST” TIZIMI ASOSIDA BOSHQARUV HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Каримов Акрам Аббасович

Профессор кафедры «Финансовый учет и отчетность»
Ташкентского государственного экономического университета,
доктор экономических наук

Назарова Ойшажон Оринбой кызы

Ташкентский государственный экономический университет
Магистратура 1 курса по специальности «Бухгалтерский учет»

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ
«СТАНДАРТ-КОСТЬ»**

Karimov Akram Abbasovich

Professor of the Department of
"Financial Accounting and Reporting"
of Tashkent State University Doctor of Economics.

Nazarova Oyshajon Orinboy qizi

Tashkent State University of Economics
1st year master's student in the field of accounting.

**IMPROVEMENT OF MANAGEMENT ACCOUNTING ON THE BASIS OF
"STANDARD-COST" SYSTEM**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Standart-cost” tiziming yaratilish tarixi, xorijiy mamalakatlarida korxonalarida tashkilotlarida qo‘llaniladigan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayonida “Standart-cost” tizimidan foydalanish tamoyillari va bu tizimni korxonalar boshqaruviga axborotlarni yig‘ish hamda taqdim etish bo‘yicha, korxonalar boshqaruvida qarorlarni tezkor qabul qilishda yaratadigan qulayliklari va o‘z navbatida “Standart-cost” tizimining kamchiliklari haqida ma‘lumot berib o‘tilgan.*

***Tayanch so‘zlari:** buxgalteriya hisobi, “standart-cost”, boshqaruv hisobi, korxonalar boshqaruvi, xarajatlar, tannarx.*

***Аннотация:** В данной статье изложены сведения об истории создания системы “Стандарт-кост”, принципы использования системы “Стандарт-кост” в процессе калькулирования себестоимости продукции (работ, услуг), применяемые на зарубежных предприятиях, удобства, которые создает эта система для сбора и представления*

информации руководству предприятия, для принятия быстрых решений в управлении предприятием, и, в свою очередь, недостатки системы “Стандарт-кост”.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, «нормативная себестоимость», управленческий учет, управление предприятием, расходы, себестоимость.

Abstract: This article provides information on the history of the creation of the “Standard-cost” system, the principles of using the “Standard-cost” system in the process of calculating the cost of products (works, services) used in foreign enterprises, the conveniences that this system creates for collecting and presenting information to the management of the enterprise, for making quick decisions in the management of the enterprise, and, in turn, the shortcomings of the “Standard-cost” system.

Keywords: accounting, “standard cost”, management accounting, enterprise management, expenses, cost.

KIRISH.

Bozor munosabatlarida sharoitida korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatdoshlik muhitining shakllanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblashning ilg‘or tizimlaridan foydalanish zaruratini tug‘diradi. Xorijiy mamalatlarda buxgalteriya hisobini yuritishning zamonaviy sharoitida strategik va taktik xususiyatga ega bo‘lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni korxonaning xarajatlari va moliyaviy natijalari haqidagi axborotga tayanadi. Bu vazifani bajarishda “Standart-costing” hisob tizimi korxonalar xarajatlarini boshqarishda samarali qurollardan biri hisoblanadi. Uning asosida belgilangan normalar doirasida hamda ulardan chetlanishlar bo‘yicha hisob yuritish va nazorat qilish tamoyillari yotadi.

"Standart-kost" tizimi yagona, universal standart bilan belgilanmagan, balki xarajatlarni hisobga olishning kengroq sohasidagi usuldir. U o‘zining ichki mantig‘i va materiallar, ishchi kuchi va qo‘shimcha xarajatlar uchun oldindan belgilangan xarajatlarni yaratish bilan belgilanadi. Standartlar haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslash uchun bazaviy chiziq yaratish maqsadida tarixiy ma'lumotlar, joriy ishlab chiqarish rejalari va kelajakdagi kutilgan natijalarning kombinatsiyasi asosida belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

“Standart-costing” so‘zi to‘liq ma‘noda standart xarajatlarni anglatadi. Standart –kost atamasi ikki so‘zdan tashkil topgan: **“standart”** – mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy, moddiy va mehnat xarajatlari uchun oldindan hisoblab qo‘yilgan xarajatlarni normativini anglatadi, **“kost”**- so‘zi esa mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni bildiradi.

“Standart-kost” tizimi- xarajatlar hisobi va tannarxni aniqlash tizimi bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi avvaldan puxta, obdon hisoblab chiqilgan normativ xarajatlar yordamida baholanadi, keyin esa haqiqiy qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi. Normativ va haqiqiy qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq chetlanish deb ataladi.

“Standart-cost” tizimini asarida yoritgan birinchi mualliflardan biri Britaniyalik buxgalter Jorj P. Norton o‘zining 1889-yilda yozgan "To‘qimachilik ishlab chiqarishning buxgalteriya hisobi" asarida bo‘lgan.

“Standart-cost” tizimini tarixiy va zamonaviy evolyutsiyasi

Tarixiy qo‘llanilishi	“Standart-cost” tizimi ommaviy ishlab chiqarish davrida operatsiyalarni boshqarish va chiqindilarni kamaytirish uchun paydo bo‘ldi.
Evolyutsiya va tanqid	An'anaviy normaga asoslangan standart doimiy takomillashtirish va global raqobatning hozirgi davrida to‘g‘ri signallarni bermagani uchun tanqid qilindi.
Zamonaviy qo‘llanilishi	Zamonaviy qo‘llanilishi standart xarajatlarning strategik maqsadlarni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini ta’kidlaydi, masalan, uzoq muddatli xarajatlarni kamaytirish harakatlarining muvaffaqiyatini taqqoslash. Shuningdek, u TQM va Faoliyatga asoslangan xarajatlar kabi boshqa zamonaviy boshqaruv tizimlari bilan birgalikda qo‘llaniladi.

Asosiy topilma shuni ko‘rsatadiki, standart xarajatlarni qo‘llash darajasi butun dunyo bo‘ylab sezilarli darajada bo‘lib, Buyuk Britaniyada foydalanish darajasi mos ravishda 90% ga va Dubayda 77% ga yetadi. “Standart-cost” tizimidan foydalanishning afzalliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: byudjet va boshqaruv nazorati, qaror qabul qilishda yordam berish va xarajatlarni kamaytirish; standartlar bilan bir qatorda, faoliyatga asoslangan xarajatlar (ABC), o‘z vaqtida (JIT), umumiy sifat menejmenti (TQM), muvozanatli ballar kartasi (BSC), tejamkor ishlab chiqarish va cheklovlar nazariyasi (TOC) qo‘llanilishini ta’kidlash ham muhimdir.

Buyuk Britaniya kompaniyalari kalkulyatsiyaning “standart-cost” tizimini qanday qo‘llaydi

Byudjetlashtirish va nazorat qilish	Standart xarajatlar byudjetlarni yaratish va xarajatlarni oldindan belgilangan standartlar bilan taqqoslash orqali nazorat qilish uchun ishlatiladi. Bu farqlarni aniqlash va tuzatish choralari amalga oshirish imkonini beradi.
Ish faoliyatini baholash	Kompaniyalar menejerlar va bo‘limlarning ish faoliyatini o‘lchash uchun standart xarajatlardan foydalanadilar. Haqiqiy ish faoliyatini belgilangan standartlar bilan taqqoslash orqali tizim samaradorlik va hisobdorlikni baholashga yordam beradi.
Narxlar va rentabellik:	Standart xarajatlar sotilgan tovarlar tannarxini hisoblashda yordam beradi, bu esa rahbariyatga kerakli rentabellikka erishish uchun tegishli savdo narxlarini belgilash imkonini beradi. Shuningdek, u daromad va zararlar to‘g‘risidagi hisobotlarni o‘z vaqtida tayyorlash imkonini beradi.
Qaror qabul qilish	Tizim turli xil qarorlar uchun ma’lumotlarni taqdim etadi, masalan, mahsulot liniyasini davom ettirish yoki xarajatlarni kamaytirish sohalari aniqlash.
Qiyoslash	Kompaniyalar o‘z faoliyatini raqobatchilarga nisbatan taqqoslash va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash uchun standart xarajatlardan foydalanadilar.

Bu yondashuv har bir tiyin sarflanganda uni kuzatib borish o'rniga, ishlab chiqarish boshlanishidan oldin materiallar, ishchi kuchi va qo'shimcha xarajatlar uchun maqsadli xarajatlarni belgilaydi. O'z mohiyatiga ko'ra, standart tannarxlash moliyaviy "reja"ni yaratadi; bu haqiqiy samaradorlikni o'lchash mumkin bo'lgan mezon. Bu siz ishlab chiqargan har bir birlik uchun byudjet belgilashga, so'ngra maqsadlaringizdan qayerda ko'proq yoki kamroq ekanligingizni aniqlash uchun aslida qancha sarflanganingizni taqqoslashga o'xshaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot usullari, ilmiy adabiyotlar va xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan «Standart-kost» tizimining zaruriyatini o'rganish, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Standart-kost" tizimi rivojlangan mamlakatlarda deyarli hamma korxonalarda qo'llaniladi. Lekin bu tizimda qo'yilgan maqsadga erishishda omillarning mohiyati va ta'sirini baholash turli mamlakatlarda turlichadir.

3-jadval

Rivojlangan davlatlarda "Standart- kost" tizimi

Xarajat ko'rsatkichlari	Ahamiyatlilik darajasiga qarab tizimda tutgan o'rni			
	AQSh	Kanada	Yaponiya	Angliya
Xarajatlarni boshqarish	1	1	1	2
Baholarni belgilan va baho siyosati	2	3	2	1
Budjetni rejalashtirish va uni nazorat qilish	3	2	3	3
Moliyaviy hisobotni tayyorlash	4	4	4	4

Mamlakatimizda boshqaruv hisobining rivojlanishi mavjud buxgalteriya hisobi tizimining ikki mustaqil: moliyaviy va boshqaruv hisobi schetlar rejasiga bo'linishiga olib keldi.

Boshqaruv hisobining kontseptsiyasi schetlar rejasini amaliyotga joriy etish ikki razryadli buxgalteriya hisobi schetlari tizimidan to'rt razryadli tizimga o'tish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu amaliyotda qo'llanib kelinayotgan schetlar rejasini bo'lib, bunda barcha schetlar balans tuzishda ishtirok etadi. To'rt razryadli schetlar tizimi ularni to'rtta razryadga ajratadi:

a) balans schetlari ya'ni balans tuzishda ishtirok etuvchi schetlar;

b) operatsion, "Xarajatlar - ishlab chiqarish hajmi - foyda" usuli bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qo'llaniladigan va boshqaruv buxgalteriyasida foydalaniladigan schetlar).

"Standart-kost" hisob tizimidan foydalaniladigan korxonalar odatda, xarajat moddalari bo'yicha hisobni quyidagicha tashkil etadi:

- * xomashyo xarajati bo'yicha og'ishlar;
- * ish haqi bo'yicha og'ishlar;
- * umum ishlab chiqarish xarajatlar bo'yicha og'ishlar;
- * Davr xarajatlari bo'yicha og'ishlar;

“Standart-kost” tizimida xarajatlar

T\r	Og‘ish turlari	Og‘ishlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning hisob kitobi
I. Xomashyo		
1	Xomashyo bahosi bo‘yicha og‘ish	- xomashyo birligining normativ tannarxi; - haqiqiy baho; - sotib olingan xomashyo miqdori.
2	Xomashyo miqdori bo‘yicha og‘ish	- mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan xomashyoning normativ miqdori ; - xomashyo uchun sarflangan haqiqiy xarajat; - xomashyoning normativ tannarx.
3	Xomashyo birligiga sarflanadigan xarajat bo‘yicha og‘ish	- xomashyo birligiga sarflangan me‘riy xarajatlar; - xomashyo birligiga sarflangan haqiqiy xarajat.
II. Ishchi kuchi		
1	Ish haqi stavkalari bo‘yicha og‘ish	- ish haqining normativ stavkasi; - ish haqining soatbay stavkasi; - haqiqiy ishlangan vaqt.
2	Mehnat unumdorligi darajasi bo‘yicha og‘ish	- mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun normativ vaqt; - mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy vaqt; - mehnatga hak tqlash normativ soatbay stavkasi.
III. Qo‘shimcha xarajatlar		
1	Doimiy qo‘shimcha xarajatlar bo‘yicha	- mahsulot birligiga sarflanadigan doimiy qo‘shimcha xarajatlari me‘yori; - mahsulot birligiga sarflanadigan haqiqiy doimiy qo‘shimcha xarajatlari; - ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.
2	O‘zgaruvchan qo‘shimcha xarajatlar bo‘yicha og‘ish	- mahsulot birligiga sarflanadigan o‘zgaruvchan qo‘shimcha xarajatlar me‘yori; - mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy o‘zgaruvchan qo‘shimcha xarajat; - ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.
IV. Yalpi foyda		
1	Sotish bahosi bo‘yicha og‘ish	- mahsulot birligining me‘yoriy tannarxi; - mahsulot birligining haqiqiy bahosi; - sotilgan mahsulot hajmi
2	Sotish xajmi bo‘yicha og‘ish	- smeta bo‘yicha sotish hajmi; - haqiqiy sotilgan mahsulot hajmi; - mahsulot birligiga to‘g‘ri kelgan normativ (me‘yordagi) foyda
3	Yalpi foyda hajmi bo‘yicha og‘ish	- normativ bo‘yicha foyda; - haqiqiy olingan foyda

Korxonalarda xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasining zamonaviy usul hamda tizimlarini qo‘llash ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini to‘g‘ri aniqlash, chetlanishlar hisobi va tahlilini yuritish kabi imkoniyatlarni beradi. Ularga «Direkt-kosting», «Standart-kost», «JIT»,

«ABC», «SCA» va «FQT»larni kiritish mumkin.

“Standart kost” hisob tizimi bo‘yicha foyda quyidagicha aniqlanadi.

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda
2. Maxsulotning standart tannarxi
3. Yalpi foyda (1-2)
4. Standartlardan chetlanishlar
5. Foyda (3-4)

“Standart-cost” formulasi quyidagicha: Standart tannarx = To‘g‘ridan-to‘g‘ri material tannarxi + To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishchi kuchi tannarxi + Ishlab chiqarish qo‘shimcha xarajatlari.

Ushbu formula har bir komponent uchun standart xarajatlarni yig‘ish orqali mahsulot ishlab chiqarishning kutilgan tannarxini hisoblab chiqadi. Har bir elementni topish uchun siz standart stavkani materiallar va ishchi kuchi uchun standart miqdorga ko‘paytirasiz va standart qat‘iy va o‘zgaruvchan qo‘shimcha xarajatlarni qo‘shasiz.

“Standart-cost” tizimi asosida xarajatlarni hisobga olishning muhim qismi bu dispersiya tahlili bo‘lib, u haqiqiy xarajatlar va standart xarajatlar o‘rtasidagi tafovutni turli komponentlarga (hajm o‘zgarishi, material tannarxi o‘zgarishi, ishchi kuchi tannarxi o‘zgarishi va boshqalar) ajratadi, shunda menejerlar xarajatlar nima uchun rejalashtirilganidan farq qilganini tushunishlari va vaziyatni to‘g‘irlash uchun tegishli choralarni ko‘rishlari mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, “Standart-cost” hisob tizimi xorij amaliyotida normative hujjatlar bilan belgilab qo‘yilmagan, shu sababli bu tizim standartlarni belgilashni va hisob qaydnomalarini yurgizishning yagona usuliga ega emas, natijada birgina korxonada ham bazisli, joriy, mutloq, taxminiy va yengillashtirilgan kabi turli normalar amal qiladi.

Yuqoridagi ijobiy tomonlar bilan birgalikda “Standart-cost” tizimining quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

- “Standart-cost” tizimini qo‘llash va uni takomillashtirish ko‘p vaqt va xarajatlar talab qiladi. Ammo amaliyot ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hisobiga bu xarajatlar tezda qoplanib ketadi.

- “Standart-cost” tizimini iqtisodiyotda baholar, foiz stavkalari, ishlab chiqarish texnologiyalari va usullari intensiv o‘zgarib turadigan, beqaror sharoitlarda ijobiy samara bermay, o‘z dolzarbligini yo‘qotadi.

- Xususan, bozordagi raqobat natijasida shakllangan bahoning o‘zgarishi va inflyatsiyani, imbordagi tayyor mahsulot qoldig‘i va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini baholashni murakkablashtiradi.

- standartlarni barcha ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘llab bo‘lmaydi, shu sababli ularni nazorat qilish susayadi.

Ushbu kamchiliklarga qaramasdan korxonada, tashkilotlar rahbarlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya, shuningdek, boshqarish, rejalashtirish va zaruriy qarorlar qabul qilish uchun nazorat o‘rnatishning ishonchli qurli sifatida “Standart-cost” tizimidan mutazam ravishda foydalanadilar.

“Standart-Kost” hisob tizimining bir qancha **kamchiliklari** ham mavjud:

- “Standart-Kost” tizimini qo‘llash va uni takomillashtirish ko‘p vaqt va xarajat talab qiladi. Ammo amaliyot ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish samaradorligini oshishi hisobiga bu xarajatlar tezda qoplanib ketadi;
- “Standart-kost” tizimi iqtisodiyotda baholar, foiz stavkalari, ishlab chiqarish texnologiyalari va usullari intensiv o‘zgarib turadigan, sharoitlarda samara bermaydi;

- Xususan bozorda raqobat natijasida sodir bo'lgan bahoning o'zgarishini va inflyatsiyani, ombordagi tayyor mahsulotlar qoldig'i va tugallanmagan mahsulot bahosini (qiymatini) hisoblashni murakkablashtiradi;
- standartlarni barcha ishlab chiqarish xarajatlariga qo'llab bo'lmaydi, shu munosabat bilan joylarda har doim ularning nazorati susayadi;
- korxonada qisqa muddat ichida tavsif va tipi bo'yicha turli buyurtmalarni katta miqdorda tekshirishi chog'ida standartni har bir buyurtmaga hisoblab chiqish deyarli mumkin emas. Bunday hollarda ilmiy asoslangan standartlar o'rniga har bir mahsulotga o'rtacha qiymat belgilanadi, u mahsulotga baho belgilash uchun asos (bazis) bo'lib hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qayd qilingan umumiy tamoyillar o'rtasida quyidagi ayrim tafovvutlar mavjud:

- Normativ hisobdan farqli qaroq "Standart-Kost" hisob tizimiga harajatlar normalari o'zgarishlarining alohida hisobi olib borilmaydi;
- harajatlar normalari o'zgarishlarining alohida hisobi olib borilmaydi. Xarajatlarning dastlabki hisoblangan normalari haqiqiy xarajatlarni ishlab chiqarishga mohirlik bilan rahbarlik qilish orqali standartlarga muvofiq xolga keltirish uchun qat'iy belgilangan stavkalar sifatida ko'rib chiqiladi;
- Og'ishlar yuzaga kelganda standart normalari o'zgarmaydi. Ular butun belgilangan davrga nisbatan barqaror bo'lib qoladi.

Ular butun hisobot davriga nisbatan barqaror bo'lib qoladi

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda: "Standart-cost" tizimi orqali rahbariyat xarajatlarni aniq ko'ra olish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli qarorlarni tezkor qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu shaffoflik rahbarlarga taxminlarga emas, balki ishonchli xarajatlar ma'lumotlariga asoslangan holda ishlab chiqarish usullari, resurslarni taqsimlash va biznes amaliyotlari bo'yicha xabardor tanlovlarni amalga oshirishga yordam beradi. Standart xarajatlar mavjud bo'lganda, samaradorlikni baholash yanada ob'ektiv bo'ladi. Menejerlar bo'limlari, mahsulotlar yoki jarayonlarning haqiqiy natijalarni oldindan belgilangan standartlar bilan taqqoslash orqali qanchalik yaxshi ishlashini baholashlari mumkin, bu esa butun tashkilot bo'ylab samaradorlikni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi" to'g'risidagi 404-son Qonuni. 13.04.2016.
2. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov. - Boshqaruv hisobi. "Cho'lpon" nomidagi nashriyot-ijodiy uyi, Toshkent – 2013.
3. Jamie Emerson-Heery – "Standart-cost hisobi: Bu nima va qachon biznes uchun mantiqiy?".(maqola) – 24.04.2025.
4. A.A.Karimov, I.K.Ochilov, Z.U.G'aniyev Buxgalteriya hisobi 2-qism (darslik).-"Nihol print"OK,2021-684
5. Norbekov D., Misirov K., Toshmanov G. Moliyaviy va boshqaruv hisobi: O'quv qo'llanma – T. "Iqtisod-moliya", 2018. – 416 b.
6. Xasanov B., G'aniev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –279 b
7. Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2019. -556
8. www.ifrs.org
9. www.bpm.com
10. www.wikipedia.org

Kuziyeva Dinora Bahodirovna

«Audit» kafedrası dotsenti

kuzievadinora4@gmail.com

**MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQ SOTISH
UCHUN MO‘LJALLANGAN UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING BUXGALTERIYA
XUSUSIYATLARI**

Кузиева Динора Баходировна

доцент кафедры «Аудит»

kuzievadinora4@gmail.com

**УЧЕТНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДОЛГОСРОЧНЫХ АКТИВОВ,
ПРЕДНАЗНАЧЕННЫХ ДЛЯ ПРОДАЖИ, В СООТВЕТСТВИИ С
МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ**

Kuzieva Dinora Bahodirovna

associate professor of “Audit” department

kuzievadinora4@gmail.com

**ACCOUNTING CHARACTERISTICS OF LONG-TERM ASSETS HELD FOR DISPOSAL
IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS**

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) joriy etilishining amaliy jihatlari va bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Xususan, MHXSning 5-son standarti — "Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat" standarti asosida aktivlarni tasniflash, baholash va hisobotda aks ettirish tartiblari keng yoritilgan. Maqolada mazkur standart talablarini qo‘llashdagi aniq mezonlar, baholash bosqichlari, haqqoniy qiymatni aniqlashdagi muammolar va amortizatsiyaga oid masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda MHXSni joriy etish borasidagi qonunchilik asoslari va amaliyotdagi kamchiliklar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: moliyaviy hisobot, MHXS, xalqaro standartlar, uzoq muddatli aktivlar, hisobdan chiqarish, baholash, haqqoniy qiymat, sotish xarajatlari, qadrsizlanish, gudvill, 5-son MHXS, hisobot standarti, O‘zbekiston, buxgalteriya hisobi.

Аннотация: В данной статье анализируются практические аспекты внедрения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) и проблемы, возникающие в этом процессе. В частности, процедуры классификации, оценки и отражения активов в отчетности широко освещены на основе Стандарта МСФО № 5 – «Внеоборотные активы, удерживаемые для продажи, и прекращенная деятельность». В статье особое внимание уделяется конкретным критериям применения требований данного стандарта, этапам оценки, проблемам определения справедливой стоимости и вопросам, связанным с амортизацией. Также анализируются законодательная база и практические недостатки внедрения МСФО в Узбекистане.

Ключевые слова: Финансовая отчетность, МСФО, международные стандарты, внеоборотные активы, списание, оценка, справедливая стоимость, затраты на продажу, обесценение, гудвил, МСФО № 5, стандарт отчетности, Узбекистан, бухгалтерский учет.

Abstract: This article analyzes the practical aspects of the implementation of International Financial Reporting Standards (IFRS) and the problems arising in this process. In particular, the procedures for classification, measurement and reflection of assets in the reporting are widely covered on the basis of IFRS Standard No. 5 - "Non-current Assets Held for Sale and Discontinued Operations". The article pays special attention to specific criteria for applying the requirements of this standard, the stages of measurement, the problems of determining fair value and issues related to depreciation. The legislative framework and practical shortcomings of the practical implementation of IFRS in Uzbekistan are also analyzed.

Keywords: Financial statements, IFRS, international standards, non-current assets, write-off, measurement, fair value, costs to sell, impairment, goodwill, IFRS No. 5, reporting standard, Uzbekistan, accounting.

KIRISH

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish hisob ma'lumotlarini shakllantirish, qayta ishlash va taqdim etishning an'anaviy tizimiga ko'plab jihatlar bo'yicha yangicha yondashuvni talab etmoqda. O'zbekistonda MHXSni joriy etish jarayoni qonunchilik talablari bilan asoslanadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-4611 «Moliyaviy xisobotning xalqaro standartlariga o'tish buyicha kushimcha chora-tadbirlari tugrisida»gi Qaroriga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta kompaniyalari uchun hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish majburiyati joriy etilgan. O'zbekistonda MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish jarayoni ancha avval boshlangan bo'lsa-da, ularni amaliy qo'llash mexanizmiga oid ko'plab masalalar hali ham yechimini topmagan.

Bizningcha, bu muammoning sabablaridan biri – MHXSni amaliy qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligidir. Ushbu masalaning amaliy ahamiyati juda yuqori bo'lib, u nazariy jihatdan ham muhimdir. MHXS ning tobora keng joriy etilayotganligi buxgalteriya hisobi va auditning ko'plab asosiy jihatlarini qayta ko'rib chiqishni muqarrar qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Normativ-xuquqiy xujjatlar va iqtisodchilarning asarlarida sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar hisobi borasida fikrlar keltirib o'tilgan. Xususan, 5- sonli MHXS ga ko'ra, sotish uchun mo'ljallangan aktiv – bu shunday aktivki, uning balans qiymati foydalanish orqali emas, balki sotish orqali qoplanadi. Shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan aktivlar quyidagi ikki qiymatdan eng kichigi bo'yicha baholanadi: balans qiymati yoki haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlarini chiqarib tashlagan holdaligi ta'kidlangan [1].

Kompaniya aktivni sotishga qaror qilgan bo'lsa, u holda baholash «Asosiy vositalar» 16-sonli BXXS talablariga asosan amalga oshiriladi [2].

M.A.Xusanovning "Sotish uchun mo'ljallangan aktivlarni baholashda haqqoniy qiymat" nomli makolasida "Haqqoniy qiymatni aniqlash mexanizmi to'liq amalga oshirilmaydi, chunki narxni aniqlashda qiyinchiliklar mavjud" [3] deb, fikr yuritilgan.

Marinenlla Manea va Veronika Stefan tomonidan aktivlarni sotish maqsadida ushlab turish, ularni baholash, haqqoniy qiymat bilan sotish xarajatlarini chiqarib tashlash kabi talablar ko'rib chiqilgan [4].

Elliot ta'kidlaganidek, bu mezonlar kompaniyaning strategik qarorlarini shaffof aks ettirishga xizmat qiladi. Muallif fikricha, agar kompaniya aktivni faol tarzda sotish rejasini amalga oshirmayotgan bo'lsa, u holda bu aktivni sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflab bo'lmaydi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar hisobining ahamiyati va zarurligini o'rganishda monografik kuzatish, taqqoslash, guruhlash, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUXOKAMA

MHXSni qo'llashdagi muammolarning yaqqol namunasi sifatida sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishni ko'rsatish mumkin. Bunday aktivlarni hisobga olish «Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat» nomli 5-son MHXS da bayon etilgan.

Standart aktivlarni chiqib ketish guruhi tarkibida hisobga olishga ruxsat beradi. Hisobdan chiqariladigan guruh - bu bitta operatsiya natijasida birgalikda, ya'ni guruh holatida sotish yoki boshqa usul orqali chiqarib yuborilishi kerak bo'lgan aktivlar guruhi va ushbu operatsiya natijasida o'tkazilishi lozim bo'lgan, ushbu aktivlar bilan bevosita bog'liq majburiyatlardir.

Agar chiqib ketayotgan guruh pul oqimini keltiruvchi birlik hisoblansa va unga «Aktivlarning qadrsizlanishi» nomli 36-sonli BHXS talablariga muvofiq gudvil (ishchanlik obro'si) taqsimlangan bo'lsa, yoki agar u shunday pul oqimini keltiruvchi birlik doirasidagi faoliyat bo'lsa, u holda ushbu guruh tarkibiga biznesni birlashtirish jarayonida sotib olingan gudvill ham kiritiladi.

5-son MHXS sotish uchun mo'ljallangan aktivlarni tasniflash borasida quyidagi mezonlarga ega:

1. Aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh) o'zining joriy holatida, faqat bunday aktivlar (yoki hisobdan chiqariladigan guruhlar) bo'yicha odatdagi va umumqabul qilingan shartlar asosida darhol sotish uchun mavjud bo'lishi lozim;

2. Aktivning sotilishi yuqori ehtimolli bo'lishi lozim.

Sotilishi yuqori ehtimolli bo'lish birinchi navbatda, quyidagilar bilan tasdiqlanadi:

korxonada aktivni (yoki hisobdan chiqariladigan guruhni) sotish bo'yicha qabul qilingan reja mavjudligi;

xaridorni izlash va rejani bajarish bo'yicha faol chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh) o'zining haqqoniy qiymatiga nisbatan asosli narxda sotish uchun faol tarzda namoyish etilishi.

Bundan tashqari, bunday sotish bo'yicha tasniflanish sanasidan boshlab bir yil ichida yakunlangan sotuv sifatida tan olish mezonlarini qanoatlantirish kutilishi lozim.

Biroq, muayyan voqealar yoki sharoitlar ta'siri ostida aktivni (yoki hisobdan chiqariladigan guruhni) sotish jarayonining yakunlanish muddati bir yildan oshishi mumkin. Bunday holatda, agar kechikishning sababi korxonada nazoratidan tashqaridagi voqealar yoki sharoitlar bo'lsa va korxonada aktivni (yoki hisobdan chiqariladigan guruhni) sotish rejasini amalga oshirishda davom etishiga yetarli darajadagi tasdiq mavjud bo'lsa, sotish muddatining uzayishi aktivni sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflashga to'sqinlik qilmaydi.


Tasniflashning aniq mezonlariga rioya qilish shundan dalolat beradiki, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar sifatida xo'jalik faoliyatida vaqtincha foydalanilmayotgan yoki korxonada to'liq ekspluatatsiyadan chiqarishni rejalashtirayotgan joriy aktivlarni tasniflab bo'lmaydi.

Sotish uchun mo'ljallangan aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishda ularni baholash muhim jihat hisoblanadi. Sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli

aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh) quyidagi ikki qiymatdan eng kichigi bo'yicha baholanadi (1-rasm).

1. Sotish uchun mo'ljallangan aktiv sifatida tasniflangan sanada aktivning balans qiymati;

2. Sotish xarajatlarini chiqarib tashlagan holda aktivning haqqoniy qiymati. Aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh) sotish uchun mo'ljallangan deb ilk bor tasniflanishidan oldin, ushbu aktivning (yoki guruh tarkibidagi barcha aktivlar va majburiyatlarning) balans qiymati qo'llanayotgan MHXSga muvofiq baholanishi lozim. Masalan, agar gap kompaniyaning asosiy vositani sotish qarori haqida ketayotgan bo'lsa, u holda tasniflash paytida uning balans qiymati «Asosiy vositalar» 16-sonli BHXS talablariga muvofiq hisobga olinadi.



1-rasm. Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning umumiy tartibi

Kompaniya aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh) qiymatining haqqoniy qiymatgacha sotish xarajatlarini chiqarib tashlagan holda ilk bor yoki keyinchalik kamayishi holatida har doim qadrsizlanish bo'yicha zararni tan oladi.

Sotish uchun uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning o'ziga xos jihati shundaki, bunday aktivlar amortizatsiya qilinmaydi.

Shu bilan birga, sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan hisobdan chiqariladigan guruh majburiyatlari bilan bog'liq foizlar va boshqa xarajatlar tan olinishda davom ettirilishi lozim.

Agar korxonada aktivni (yoki hisobdan chiqariladigan guruhni) sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflagan, lekin xaridorlarni izlashni to'xtatgan yoki sotish bo'yicha faol harakatlarni amalga oshirmayotgan bo'lsa, ya'ni tan olish mezonlari bajarilmayotgan bo'lsa, u holda korxonada mazkur aktivni (yoki hisobdan chiqariladigan guruhni) sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflashni to'xtatishi kerak. Bunday holda, uni baholash quyidagi ikki qiymatdan eng kichigi bo'yicha amalga oshiriladi:

aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh) sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflanishidan oldin, uning balans qiymatini, agarda aktiv (yoki hisobdan chiqariladigan guruh)

sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflanmaganda, qadrsizlanish, amortizatsiya yoki qayta baholash bo'yicha tuzatish kiritilgan balans qiymati;

sotmaslik bo'yicha keyingi qaror sanasidagi uning qoplash qiymati.

Sotish uchun mo'ljallangan aktivlarni hisobga olishda qoplash qiymati va haqqoniy qiymat – ikkalasi bir xil tushuncha emas.

Qoplash qiymati - bu quyidagi ikki qiymatdan kattasi: sotish xarajatlarini chiqarib tashlagan holdagi haqqoniy qiymat yoki foydalanishdan tushadigan qiymat. Foydalanishdan tushadigan qiymat - bu aktivdan foydalanishni davom ettirish va uni foydali xizmat muddati oxirida chiqarib yuborish natijasida kutilayotgan kelgusi pul oqimlarining keltirilgan qiymatidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, haqqoniy qiymatni aniqlash sotish uchun saqlanadigan uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda muhim rol o'ynaydi.

Aktivlarning haqqoniy qiymati «Haqqoniy qiymatni baholash» nomli 13-son MHXS talablariga muvofiq aniqlanadi.

Haqqoniy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatiy bitim jarayonida aktiv uchun olinishi mumkin bo'lgan (yoki majburiyatni o'tkazish uchun to'lanishi mumkin bo'lgan) summadir.

Aktiv uchun haqqoniy qiymatni baholash quyidagi kabi taxminlarga asoslanishi lozim:

Bitim asosiy (yoki eng katta foyda keltiradigan) bozorda ro'y beradi.

Moliyaviy bo'lamagan aktiv uchun undan eng yaxshi foydalanish imkoniyati baholanadi.

Haqqoniy qiymatni asosiy bozorda, ya'ni ushbu aktiv yoki majburiyat bilan bitimlar hajmi eng katta bo'lgan bozorda sotish ehtimolida baholash kerak.

Agar bunday bozor mavjud bo'lmasa, kompaniya o'zining eng manfaatli bozorini, ya'ni:

aktiv uchun eng yuqori summada daromad olish mumkin bo'lgan;

majburiyatni o'tkazish uchun eng kam summa to'lash talab etiladigan bozorni topishi kerak.

Agar boshqacha deb hisoblash uchun hech qanday sabab bo'lmasa, unda asosiy yoki eng manfaatli bozor - bu kompaniya odatda shunga o'xshash aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan bozor sanaladi.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, haqqoniy qiymatni baholash mexanizmi to'liq darajada amalga oshirilmaydi, chunki aktiv narxini aniqlashda qiyinchiliklar mavjud. Bu esa ayrim hollarda hisobot tuzishda ehtiyotkorlik tamoyilining buzilishiga olib keladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarni tasniflash qilish faqatgina ushbu aktivlar «Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat» nomli 5-son MHXSda bayon etilgan aniq tasniflash mezonlariga javob bergan hollardagina mumkin bo'ladi;

sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarni baholashda uchta muhim bosqich ajratiladi: birinchisi – boshlang'ich tasniflash vaqtida baholash, ikkinchisi – keyingi baholash va uchinchisi – kompaniya aktivni sotish haqidagi qarorini o'zgartirgan taqdirda amalga oshiriladigan baholash;

Hisobdagi murakkabliklardan biri - bu sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarning haqqoniy qiymatini hisoblash zaruriyatidir. Bu esa mazkur aktiv bo'yicha eng ko'p bitimlar amalga oshiriladigan bozorni aniqlashda muammolar keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IFRS 5: Non-current Assets Held for Sale and Discontinued Operations. London: IFRS Foundation, 2022. (5-sonli MHXSning to'liq matni va amaliy qo'llanmalari jamlangan rasmiy manba.)
2. IAS 16: Property, Plant and Equipment. In: International Financial Reporting Standards (IFRS) – Official Bound Volume 2023. London: IFRS Foundation, 2023.
3. Xusanov, M.A. “ Sotish uchun mo'ljallangan aktivlarni baholashda haqqoniy qiymatni aniqlash muammolari”. – “Moliya va hisob”, №4, 2022.
4. Marinela Manea, Veronica Stefan Accounting treatment of assets held for sale according to IFRS 5. Annals of the University of Craiova – Economic Sciences Series, Romania, 2018.
5. Elliott, B., & Elliott, J. Financial Accounting and Reporting (18th Edition). Pearson Education, 2017.

Ilxamov Shavkat Islamovich

ISFT professori, DSc.

shavkat.i@mail.ru

ICHKI NAZORAT TIZIMINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Илхамов Шавкат Исламович

профессор ISFT, DSc.

shavkat.i@mail.ru

**ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ НА ОСНОВЕ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ**

Ilxamov Shavkat Islamovich

Professor ISFT, DSc.

shavkat.i@mail.ru

**ORGANIZATION OF THE INTERNAL CONTROL SYSTEM ON THE BASIS OF
INTERNATIONAL STANDARDS**

Annotatsiya: Ushbu maqolada auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholashning uslubiy jixatlari yoritib berilgan. Ichki nazoratning mohiyati va uning zarurati asoslangan, shuningdek ichki nazorat tizimini baholashning metodologik asoslarini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: ichki nazorat, ichki nazorat tizimi, auditorlik tekshiruvi jarayoni, boshqaruv funksiyalari, byxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, boshqaruv sub'ekti, nazorat harakatlari.

Аннотация: В данной статье раскрыты методологические аспекты по оценке системы внутреннего контроля в процессе аудиторских проверок. Обосновано сущность и необходимость внутреннего контроля, а также сформированы рекомендации по совершенствованию методологических основ оценки внутреннего контроля на основании международных стандартов.

Ключевые слова: внутренний контроль, система внутреннего контроля, процесс аудиторской проверки, функции управления, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, субъект управления, действие контроля

Abstract: In this article methodological aspects are exposed as evaluated by the internal checking system in the process of public accountant verifications. Essence and necessity of internal control are reasonable, and also formed recommendations on perfection of methodological bases of estimation of internal control on grounds to the international standards.

Keywords: internal control, internal control system, audit process, management functions, accounting, financial reporting, management entity, control action.

Kirish.

Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida, ayniqsa, korporativ boshqaruv tizimida ichki nazorat va ichki auditning nazariy-metodologik asoslarini xalqaro standartlar talablariga mos ravishda takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, jumladan korporativ boshqaruv tizimida ichki nazorat va ichki auditni

xalqaro talablarga mos ravishda tashkil etish, xarajatlarni kamaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish, moliyaviy holat ko'rsatkichlarini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish hisobiga investitsiyalarni keng jalb qilish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish masalalarida ichki nazorat tizimi imkoniyatlaridan keng foydalanish, ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyati samaradorligini baholash uslublarini xalqaro audit standartlari talablariga asosan takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlarda "nazorat" tushunchasining bir nechta talqini mavjud. Nazoratni umumiy tarzda ta'riflashning murakkabligi uning shakl va ko'lamlarining turli-tumanligi bilan belgilanadi. "Nazorat" tushunchasini nazariy asoslangan holda tasniflash masalalariga iqtisodchi olimi M.M.Tulaxodjaeva ishlarida alohida o'rin berilgan. Uning fikricha, "Nazorat xatti-harakatlarini amalga oshirish vaqtiga bog'liq shakllar: dastlabki, joriy va navbatdagi nazoratga ajratiladi" [5, 19-b]. Bunday fikrni rus olimi V.I.Podolskiyning [6, 17-b] ishlarida ham uchratish mumkin. Shuningdek, yuqoridagilarni tasdig'i sifatida quyidagi fikrni keltirish ham joiz: "Nazorat alohida tizimga ajratiladi. Bu bilan nazorat boshqaruv tizimining bir bo'lagi sifatida turli belgilarini tasniflash bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: dastlabki, joriy, navbatdagi; doimiy, davriy, tasodifiy; hujjatli, haqiqiy; yoppasiga, tanlab" [7].

N.F.Karimov "nazorat" tushunchasiga quyidagicha yondashadi: "...nazorat deganda turli fan sohalarida, avvalambor, buxgalteriya hisobi, moliya, boshqaruv, iqtisodiy tahlil, informatikada ifodalangan nazariy bilimlar va amaliy tajribaning uyg'unligini tushunish maqsadga muvofiqdir" [8, 131-b]. B.Xoshimov bergan ta'rifga ko'ra, "Nazorat korxonasi, uning tarkibiy qismlari faoliyatidagi kamchiliklar hamda xatolarni yuzaga chiqarib, o'z vaqtida to'g'rilash va kelajakda yo'l qo'ymaslik maqsadiga xizmat qiladi" [9, 27-b]. M.F.Ovsiychuk "Nazorat – tashkilot va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini, xo'jalik operatsiyalarini iqtisodiy samaradorligi va qonuniy amalga oshirilishini buxgalteriya hisoboti va hisob axborotlarining ishonchliligini, nazorat ob'ekti holatini kompleks o'rganishdir" [10, 7-b] degan ta'rifni taklif qiladi. S.Norqobilov, U.Abdusalomovanning ta'rificha, "Nazorat bozor iqtisodiyotining muhim elementlaridan biridir. Uning davlat, boshqaruv va mustaqil nazorat tizimlari mavjud bo'lib, ular boshqaruv organlarini zarur axborotlar bilan ta'minlaydi" [11, 29-b].

Bizning fikrimizcha, "Nazorat–bu boshqarishga doir vazifadir. Boshqarishning har qanday turi nazoratsiz bo'lmaydi. Nazorat xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi moliya-xo'jalik faoliyatining haqiqiy ahvolini muntazam aniqlashga, shu jumladan, xo'jalik tizimidagi turli darajadagi qiyinchiliklarni va buzilishlarni aniqlashga ham imkon beradi" [13, 41-b].

Tadqiqot metodologiyasi

Ichki nazorat tizimini xalqaro standartlarga muvofiq baholashning alohida qoidalari normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Audit jarayonida ularning ishonchliligini baholashda tizimli tahlil va konseptual asoslarining ilmiy metodologik apparatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atroflicha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, taqqoslash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash, maqsadli rivojlantirish kabi usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokama

Jahon amaliyotida ichki nazorat tizimini tartibga solish qonyn bilan belgilangan. 2002 yilda «Sarbanes Oxley» [2] Qonunining qabul qilinishi AQSh davlat organlarining korporativ boshqaruv

masalalarini tartibga solishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qonunda aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro talablarga javob beradigan ichki nazorat tizimini tashkil etish nazarda tutilgan. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki nazorat tizimini tashkil etish va ushbu tizimni audit jarayonida baholashning metodologik asoslari xalqaro moliyaviy tashkilotlar hamda xalqaro audit standartlari talablari asosida takomillashtirilmoqda. Samarali tashkil etilgan ichki nazorat tizimi va ichki audit xizmati ishlab chiqarish, biznes jarayoni samaradorligini oshirishga, shuningdek ishonchli moliyaviy hisobotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ichki nazoratni ilmiy jihatdan tashkil etishning zarur sharti va by tizimni baholashning nazariy-uslubiy asosi «ichki nazorat», «ichki nazorat tizimi» tushunchalarining mohiyatini ochib berilishidir. Fikrimizcha, ichki nazoratning mavjud bo‘lishi bu tushunchaga qanday ta’rif berishga bog‘liq.

Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganib, turli olimlar fikr-mulohazalari tanqidiy tahlil qilinib, umumlashtirilgan holda yangi ta’rifi shakllantirildi: «Ichki nazorat–boshqaruv funksiyalaridan biri sifatida buxgalteriya hisobini yuritishda, moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarni tuzishda xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligi, aks ettiriladigan ma’lumotlarning ishonchliligi, aktivlar va yozuvlarning saqlanishini ta’minlash, xatoliklarni oldini olish, aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida boshqaruv sub’ekti rahbari tomonidan tashkil etilgan va amalga oshiriladigan tashkiliy chora-tadbirlar hamda muntazam o‘tkaziladigan nazorat harakatlaridan iborat» [12].

Dunyo miqyosida ichki nazorat va ichki auditning me‘yoriy-huquqiy, nazariy, tashkiliy va metodologik asoslarini takomillashtirish borasida qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: audit jarayonida ichki nazorat tizimi faoliyati samaradorligini baholashning uslublarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish; ichki nazorat va ichki auditning samarali mexanizmini qo‘llash asosida moddiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish rezervlarini aniqlashtirish, mahsulotlar tannarxini pasaytirish orqali moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga erishish yo‘llarini izlab topish; xorijiy investorlarni keng jalb qilish.

Xalqaro amaliyotda ichki nazorat tizimini kamida ychta bosqichda baholash belgilangan. Jumladan: «1) ichki nazorat tizimi bilan umumiy tanishuv; 2) ichki nazorat tizimi ishonchliligini dastlabki baholash; 3) ichki nazorat tizimini baholashning ishonchliligini tasdiqlash. Shu bilan birga, auditorlik tashkilotlari o‘z faoliyatida ichki nazorat tizimini baholashning ko‘proq sonli bosqichlarini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishlari mumkin» [15].

Afsuski, ichki nazorat tizimini baholash bo‘yicha tavsiyalarining turli standartlarda aks ettirilishi auditorlik tashkilotlari uchun ichki nazorat tizimini baholashning yagona metodologiyasini shakllantirishga yordam bermaydi, bu esa, ushbu tizimni baholash bo‘yicha auditorlik tashkilotlarining ichki standartlari kompleksini ishlab chiqish zaruratini vujudga keltiradi. Ichki nazorat holatini tekshirishning umumiy natijalarini baholash ixtiyoriy shaklda ifodalanishi mumkin.


Bizning fikrimizcha, auditorlik hisobotining tahliliy qismida ichki nazorat tizimini tekshirish quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim: 1) ichki nazorat tizimi, uning moliyaviy hisobot ishonchliligini ta’minlashi va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining xususiyatiga muvofiqligi to‘g‘risidagi ma’lumot; 2) auditorlik tekshiruv davomida aniqlangan ichki nazorat tizimining xo‘jalik yurituvchi syb’ekt faoliyatining ko‘lami va xususiyatiga ahamiyatli nomuvofiqliklarning bayoni.

Auditorlik xulosalari mazmuniga ham ichki nazorat holatini tekshirishning umumiy natijalariga xos talablar kiritilishi taklif etildi. Xususan, 1) auditorlik tekshiruv jarayonida xo‘jalik yurituvchi syb’ektning ichki nazorat tizimi uning faoliyati ko‘lamlari va xususiyatiga mos kelmasligi haqida xulosaga olib kelishi mumkin bo‘lgan dalillar aniqlanmaganligi; 2) auditorlik tekshiruv jarayonida xo‘jalik yurituvchi syb’ektning ichki nazorat tizimi yning faoliyati ko‘lamlari va xususiyatiga mos

kelmasligi haqida xulosaga olib kelishi mumkin bo'lgan dalillar aniqlanganligi; 3) xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlaganligi va uning haqqoniyligi, shuningdek ichki nazorat tizimi uchun javobgarligi.

Ma'lumki, nazorat boshqaruv funksiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bois ichki nazorat tizimining tashkil qilinishi va uning amalga oshirilishi rahbarga mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ektni samarali boshqarishda ko'maklashuvchi vosita hisoblanadi. Binobarin, qonunda "Buxgalteriya hisobi sub'ekti ichki nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi" [1] deb belgilangan. Bunda qo'llanilayotgan ichki nazorat tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektning xususiyati, ko'lami va hisob siyosati talabiga javob berishi, doimiy va samarali amal qilishi lozim.

Xodimlarning funksiyalari, agarda ularning bitta shaxsda mujassamlashganligi tasodifiy yoki qasddan xatolikka yo'l qo'yilishiga olib kelsa hamda xato va kamchiliklar aniqlanishiga qiyinchilik tug'dirsa, u holda ular o'zaro bog'liq bo'lmagan hisoblanadi. Ichki nazorat tizimining samaradorligini ta'minlash uchun qator funksiyalar turli shaxslar o'rtasida taqsimlanadi (1-rasm).



1-rasm. Ichki nazorat tizimining taqsimlanadigan funksiyalari¹

Ichki nazorat tizimining samarali amal qilishi, shuningdek, tegishli faoliyatni yuritish mas'uliyati birlashtirilgan xodimlarga ham bog'liq.


Xodimlarni tanlash, yollash, lavozimini ko'tarish, o'qitish va qayta tayyorlash tizimi tegishli xodimlar malakasining yuqoriligini ta'minlashi lozim. Umuman, rahbar xo'jalik yurituvchi sub'ektda samarali ichki nazorat tizimini tashkil qilish, nazorat muhitini yaratish va barcha tegishli xodimlarni xo'jalik yurituvchi sub'ekt oldida turgan mavjud risklar to'g'risida xabardor qilishga mas'ul hisoblanadi.

Xalqaro audit standartiga muvofiq, ichki nazorat vositalarining ishonchliligini dastlabki baholash bir bosqichda amalga oshiriladi. Bizningcha, ichki nazorat tizimining ishonchliligini baholash ikkita bosqichni: 1) nazorat muhitining ishonchliligini baholash; 2) ichki nazorat vositalarining ishonchliligini baholash, shu jumladan ma'lumotlarga kompyuterda ishlov berish muhitini umumiy nazorat vositalarini o'z ichiga olishi lozim (2-rasm).

Bosqichlarning ajratib ko'rsatilishi quyidagilar bilan asoslanadi: 1) nazorat muhitini o'rganish ichki nazorat tizimi bilan umumiy tanishib chiqish bosqichida amalga oshiriladi, nazorat muhitining ishonchliligi esa ichki nazorat muhitining ishonchliligini dastlabki baholash bosqichida baholanadi; 2) "dastlabki baholash bosqichi" deb nomlash keyinchalik "yakuniy baholash bosqichi" o'rin tutishini anglatmaydi, faqat ushbu dastlabki baholash alohida ahamiyatga ega emas, balki ichki nazorat tizimining ishonchliligini umumiy baholashning tarkibiy qismi ekanligini anglatadi; 3) so'nggi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

texnologik bosqichda-ichki nazorat vositalarini baholashning ishonchliligini tasdiqlash bosqichida - nazorat vositalarining testlari bilan nazorat muhitining ishonchliligi emas, balki ushbu vositalarning ishonchliligining dastlabki bahosi tasdiqlanadi; 4) dastlabki baholash bosqichida nazorat muhitining ishonchliligi baholanadi va u boshqa ko'rib chiqilmaydi, lekin nazorat vositalarini testdan o'tkazish orqali tasdiqlashni talab qiladi; 5) agar nazorat vositalari ishonchliligining dastlabki bahosi – "past" bo'lsa, u holda auditorlik tekshiruvining so'nggi bosqichiga o'tilmaydi.



2-rasm. Ichki nazorat tizimining ishonchliligini baholash bosqichlari²

Ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash bosqichida quyidagi omillarini tahlil qilish taklif etiladi: tashkiliy tuzilma; majburiyatlar, vakolatlar va javobgarlikni taqsimlash tizimi; kadrlar siyosati; ichki nazorat xizmati tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar; ichki nazorat tizimining mol-mulk, pul mablag'larining butligini ta'minlashga yo'naltirilgan alohida vositalari; hisob registrlari; hisob siyosati; shartnoma majburiyatlari; nazorat muhitining ham, buxgalteriya hisobi tizimining ham elementlarini o'z ichiga oluvchi, ma'lumotlarga kompyuterda ishlov berish tizimida nazorat vositalari.

Alohida nazorat vositalarining ishonchliligini dastlabki baholash uchun, birinchi galda, auditorlik tekshiruvi davomida o'rganilishi lozim bo'lgan sub'ekt faoliyatining jarayonlarini va ushbu jarayonlarga taalluqli bo'lgan xo'jalik operatsiyalari tarkibini aniqlash zarur.


Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining jarayonlari va ichki nazorat amallarining muayyan tarkibi bilan tasniflanuvchi xo'jalik operatsiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 3-rasmda keltirilgan.

Dastlabki baholash tadbirlarining yakuniga ko'ra ichki nazorat tizimiga yoki alohida nazorat vositalariga ishonish to'g'risida qaror qabul qilgan auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi jarayonida ushbu tizimning ishonchliligini tasdiqlash tadbirini amalga oshirishi shart.

Bunda, nazorat riskining dastlabki bahosi qanchalik past bo'lsa, auditor buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlari samarali faoliyat ko'rsatishiga nisbatan shunchalik ko'p dalillarga ega bo'lishi kerak.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xalqaro audit standartida shunday talab mavjudki, unga ko'ra «auditor nazorat tizimi riskining har qanday bahosini tasdiqlash uchun nazorat testlarini o'tkazish yo'li bilan auditorlik dalillariga ega bo'lishi zarur» [15, 145-b].



3-rasm. Xo'jalik yurituvchi syb'ekt faoliyatining jarayonlari va ichki nazorat amallari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik³

Shunday qilib, nazorat vositalari testlari auditorlik dalillarining manbalari hisoblanadi va tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda tashkil etilgan nazorat vositalari ishonchligining bahosini tasdiqlash uchun bajariladi.

Xulosa

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki nazorat tizimini samarali tashkil etilganligi buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarni tuzishda xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligi, aks ettiriladigan ma'lumotlarning ishonchligi, aktivlar va yozuvlarning saqlanishini ta'minlash, xatoliklarni oldini olish, aniqlash hamda bartaraf etish imkonini beradi. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida dastlabki, joriy va keyingi nazoratda amalga oshiriladigan ichki nazorat modelidan foydalanish audit maqsadiga samarali erishish, nazorat tadbirlarini o'tkazish uchun mehnat va moliyaviy sarf-xarajatlarni 17-20 foizga qisqartirish va auditorlar ish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Auditorlik tekshiruv jarayonida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda mazkur tizimning uchta elementi – nazorat muhiti, buxgalteriya hisobi tizimi va nazoratning ayrim vositalarini ajratish nazorat muhitini yoritishga qaratilganligi sababli, Muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar nazorat muhitini tavsiflovchi omillar to'plamini o'z ichiga oluvchi nazorat muhitining ishonchligini oldindan baholash imkonini beradi. Ichki nazorat tizimi qanchalik puxta o'rganilsa, auditorlik amallari shunchalik aniq rejalashtiriladi va audit sifati yuqori bo'lishiga erishiladi.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qo'llaniladigan nazorat vositalari yig'indisi bir xil emas. Ichki nazorat vositalari mazmuni, amalga oshirish vaqti, xo'jalik faoliyatining jarayonlari bo'yicha

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

guruhlanadi. Ularga xos bo'lgan ichki nazorat vositalarini tadqiq etishga nisbatan jarayonli yondashuv umumiy tan olingan yondashuv hisoblanadi. Faoliyat turlariga qarab, ularning (ta'minot, ishlab chiqarish va sotish) jarayonlarini ajratib baholashga nisbatan yondashuv auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan nazariy taklif va amaliy tavsiyalar auditorlik tekshiruvlarini sifatini oshirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi ichki nazorat tizimini tashkil etish va samarali faoliyat olib borishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni (2016 yil 13 aprel.).
2. Zakon Sarbaynsa-Oksli (Sarbanes Oxley) ot 30.07.2002 (na russskom yazike: perevod). URL. htt: // www.as-audit.ru/consult/show/2821/.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoniga 1-ilova.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 aprel PF-4720 – son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.
5. Tulaxodjaeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. Monografiya.– T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998. – 176 b.
6. Podolskiy V.I. Audit: uchebnik. – M.: YuNITI - DANA, 2012. – 390 s.
7. Serebryakova T.Yu. // Auditorskie vedomosti. Moskva, 2007. № 1. – S. 12-13.
8. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. Monografiya. - T.: Fan, 2006. – 263 b.
9. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: Yangi asr avlodi, 2004.-279 b.
10. Ovsichuk M.F. Reviziya i kontrol. Ucheb. posobiya. - M.: Knorus, 2007.- 224 s.
11. Norqobilov S., Abdusalomova O. Banklarda audit. O'quv qo'llanma. T.: Ma'naviyat, 2005. – 176 b.
12. Ilxamov Sh.I. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss- T.: TMI, 2018. –250 b.
13. Ilxamov Sh.I. Audit nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Iqtisodiyot, 2021y.
14. Robertson Dj. Audit. Perevod s angl. – M.: KPMG, Auditorskaya firma «Kontakt», 1993. – 746 s.
15. Mejdunarodniy standarti audita.– M.: MSRBU, 2001. – 237s.

Xujakulov Xaitmurat Djavlievich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy statistika” kafedrası professorı.

khaitmurat_kh@mail.ru

Adilov Axror Ablaql o‘g‘li

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
“Iqtisodiy statistika” kafedrası mustaqil izlanuvchısı

²*Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti*
“Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchısı

AxrorAdilov0101@gmail.com

Rizoyev Umidjon Raxim o‘g‘li,

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
“Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchısı

rizoyevumid5@gmail.com

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUG‘DOY HOSILDORLIGINI EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISH
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

Хужакулов Хаитмурат Джавлиевич,
Профессор кафедры “Экономическая статистика”
Ташкентского государственного экономического университета.

khaitmurat_kh@mail.ru

Адилов Ахрор Аблақул угли,

¹*соискатель кафедры «Экономическая статистика»*
Ташкентского государственного экономического университета,

²*старший преподаватель кафедры*
«Языки, естественные и социальные науки»
Института технологий, менеджмента и коммуникаций

AxrorAdilov0101@gmail.com

Ризоёв Умиджон Рахимович,

преподаватель кафедры
«Языки, , естественные и социальные науки»
Института технологий, менеджмента и коммуникаций

rizoyevumid5@gmail.com

**ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ УРОЖАЙНОСТИ ПШЕНИЦЫ В
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ
(НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Khujakulov Khaitmurat Dzhavlievich,
Professor, Department of Economic Statistics,
Tashkent State University of Economics

khaitmurat_kh@mail.ru

Adilov Axror Ablaqlugli,

¹ *PhD applicant (Independent Researcher), Department of Economic Statistics,
Tashkent State University of Economics,*

² *Senior Lecturer, Department of
"Languages, Exact and Social Sciences",
Institute of Technology, Management and Communication*

AxrorAdilov0101@gmail.com

Rizoyev Umidjon Rakhimovich,

*Lecturer of the Department of
"Languages, Exact and Social Sciences",
Institute of Technology, Management and Communication*

rizoyevumid5@gmail.com

ECONOMETRIC MODELING OF WHEAT PRODUCTIVITY IN AGRICULTURE (THE CASE OF SAMARKAND REGION)

Annotatsiya. Maqolada 2015-2024 yillar davomida Samarqand viloyatida bug‘doy hosildorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik usullar orqali tahlil qilindi. Tadqiqotda suv ta‘minoti, mineral o‘g‘itlash (NPK), sertifikatlangan navlar ulushi, agrotexnologiya darajasi hamda kasallik va zararkunandalardan himoya kabi omillar chiziqli va logarifmik regressiya modellarida baholandi.

Kalit so‘zlar: Bug‘doy hosildorligi, ekonometrik model, chiziqli regressiya, logarifmik model, elastiklik, NPK, suv ta‘minoti, agrotexnologiya.

Аннотация. В статье проведён эконометрический анализ основных факторов, влияющих на урожайность пшеницы в Самаркандской области в период с 2015 по 2024 годы. В исследовании оценивались такие показатели, как водоснабжение, минеральное удобрение (NPK), доля сертифицированных сортов, уровень агротехнологий и меры защиты от болезней и вредителей, с использованием линейных и логарифмических регрессионных моделей.

Ключевые слова: Урожайность пшеницы, эконометрическая модель, линейная регрессия, логарифмическая модель, эластичность, NPK, водообеспеченность, агротехнологии.

Abstract. Between 2015 and 2024, the article analyzes the main factors affecting wheat productivity in the Samarkand region using econometric methods. The study evaluates variables such as water supply, mineral fertilization (NPK), the share of certified varieties, the level of agrotechnology, and protection against diseases and pests through linear and logarithmic regression models.

Keywords: Wheat yield, econometric model, linear regression, logarithmic model, elasticity, NPK, water supply, agro-technology.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bug‘doy insoniyat tarixidagi eng qadimiy va strategik ahamiyatga ega don ekinlaridan biridir. U inson oziq-ovqat xavfsizligining asosi bo‘lib, un, non, makaron, yorma va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xomashyo hisoblanadi. Jahon miqyosida bug‘doy yetishtirish umumiy ekin maydonlarining 25% ini tashkil etadi [1], [8], [9].

O'zbekiston sharoitida esa bug'doy asosiy don ekini bo'lib, jami ekin maydonlarining 38 foizidan ortig'ini tashkil [1], [12]. Bug'doy yetishtirish iqtisodiyotning agrar sohasida barqarorlikni ta'minlab, oziq ovqat mustaqilligini kafolatlaydi. Shu sababli har bir viloyat, jumladan Samarqand viloyati miqyosida bug'doy hosildorligini oshirish masalasi ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan strategik ahamiyat kasb etadi.

Samarqand viloyati geografik jihatdan O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning hududi asosan shimoldan Nurota tog'lari, janubdan Qoratepa tog'lari bilan tutashgan. Hududning iqlimi yarim qurg'oqchilik kontinental bo'lib, bu sharoit kuzgi va bahorgi bug'doy navlarini ekish uchun eng maqbul hisoblanadi [4], [14]. Ta'kidlash joizki, hozirgi davrda Respublika bo'yicha yetishtirilayotgan bug'doyning qariyb 11 foizi Samarqand viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda. Viloyatda:

- O'rtacha yillik harorat: +13...+14° C,
- Vegetatsiya davrida yog'in miqdori: 300-450 mm [4],
- Vegetatsiya davrining davomiyligi: 210-230 kun,
- Sug'oriladigan yerlarning ulushi: 65-70%
- Tuproq turlari: bo'z tuproqlar, allyuvial va sho'rangan tuproqlar.

Viloyatda tuproqning tabiiy unumdorligi o'rtacha bo'lib, bug'doy hosildorligi asosan sug'orish tizimi, o'g'itlash sifati va texnologik intizomga bog'liq hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarda 1 gektardan 60-70 sentner, lalmi yerlarda esa 20-25 sentnergacha bug'doy olish mumkin [12], [13], [14].

Bug'doy ekini rivojlanishining eng muhim tabiiy omillari – harorat, yog'in, tuproq namligi yoritilish va shamol rejimi hisoblanadi. Samarqand viloyatida yozning issiqligi va qishning nisbatan yumshoqligi bug'doyning kuzgi navlarini ekish uchun qulay sharoit yaratadi [14]. Ammo oxirgi yillarda iqlim isishining kuchayishi, yog'in miqdorining kamayishi va bahor mavsumida qurg'oqchilikning ortishi suv ta'minotiga bosimni kuchaytirmoqda [9], [10].

Samarqand viloyatining ko'p qismi o'rtacha bonitetli bo'z tuproqlardan iborat [13]. Unumdorlikni saqlash uchun tuproqqa har yili NPK (azot-fosfor-kaliy) o'g'itlarining muayyan normasi solinadi [10], [11]. Oxirgi 10 yillikda ta'sirchan moddada o'g'it miqdori gektariga o'rtacha 95-45-28 kg dan 125-62-42 kg gacha oshgan. Bu normaning o'sishi tuproqdagi oziqa moddalari balansini yaxshilab, hosildorlikni 15-20% ga ko'taradi.

Urug' navlari hosildorlikka bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Samarqand sharoitida "Turon", "G'ozgon", "Jasmina", "Zarafshon" kabi navlar yuqori natija ko'rsatmoqda [15]. Bu navlar qurg'oqchilikka, sovuqqa va kasalliklarga chidamli bo'lib, gektaridan o'rtacha 60-70 sentner hosil beradi.

Agrotexnik jarayonlar – yer haydash, ekish chuqurligi, sug'orish, begona o'tga qarshi kurash, o'g'it berish va yig'im terimning to'g'ri tashkil etilishi – hosilni belgilovchi eng muhim omillardir [12], [14]. Agrotexnik tadbirlar vaqtida amalga oshirilmasa, hosildorlik 10-15% gacha kamayadi, ayniqsa bahorgi sug'orish kechiktirilsa bu ko'rsatgich 20% gacha pasayishi mumkin.

Oxirgi yillarda Samarqand viloyatida zamonaviy texnologiyalar – lazerli tekislash, tomchilatib sug'orish, mexanizatsiya, raqamli monitoring – bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [10]. Bu texnologiyalar suv tejamliligini 15-20%, hosildorlikni esa 10-12% oshirgan. Bug'doy yetishtirish Samarqand viloyatining iqtisodiy tuzilmasida yetakchi o'rin tutadi. 2023-yilda viloyatda 703,1 ming tonna don yig'ilgan, o'rtacha hosildorlik gektariga 46,4 sentnerni tashkil qilgan. Bu natija 2022 yilga nisbatta 1,049 barovar o'sganiga guvoh bo'lamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Bug'doy hosildorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda FAOning ilmiy hisobotlari bug'doy yetishtirish jarayonida iqlim, suv tanqisligi va agrotexnik omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qilib bergan [8]. D.Lobell va C.Fieldning tadqiqotlarida iqlim o'zgarishlari, ayniqsa yog'in miqdorlari va haroratning hosildorlikka bevosita ta'siri chuqur asoslangan [9]. Shuningdek, R.Fischer [10] va R.Richardsning ishlari [11] bug'doy hosildorligini belgilovchi agronomik omillar – o'g'itlash, nav sifati, agrotexnik intizom va himoya choralari bo'yicha muhim nazariy asoslar yaratgan.

Respublika olimlari tomonidan ham bug'doy yetishtirish masalalari keng tadqiq etilgan. O.Tursunov tomonidan O'zbekiston sharoitida don yetishtirish samaradorligi [12], R.Ziyodov va M.Omonovlar tomonidan Samarqand viloyati tuproqlari bo'yicha ilmiy tasniflar viloyatning bo'z, allyuvial va qisman sho'rlangan tuproqlardan iboratligini, ularning mexanik tarkibi va unumdorligi farq qilishini ko'rsatadi [13]. Tuproqning tabiiy ozuqa moddalari tarkibidagi farqlar NPK o'g'itlari miqdorining modeldagi salbiy yoki zaif natijalarini tushuntirishga imkon beradi – bu omilning statistik ahamiyatsizligi ko'pincha multikollinearlik yoki normativlarning bir xil bo'lishi bilan izohlanadi.

O.To'xtayevning agroiqlimiy resurslarga bag'ishlangan tadqiqotlarida viloyatlar kesimida harorat, yog'in, quyosh nuri, shamol va vegetatsiya davrlari tizimli tahlil qilingan [14]. Bu ma'lumotlar maqolada samarqand viloyatining 210-230 kunlik vegetatsiya davri, yarim qurg'oqchilik iqlimi, bahorgi qurg'oqchilik xavfi kabi holatlarni izoxlashda ilmiy asos bo'lgan.

Urug'chilik va Nav Sinash Markazi tomonidan esa mahalliy bug'doy navlarining hosildorlik salohiyati va agroiqlimiga moslashuv xususiyatlari tadqiq qilingan [15].

Ekonometrik tahlil usullari bo'yicha J.Wooldridge [5], D.Gujarati, D.Porter [6], W.Greene [7]ning asoslar ko'p o'zgaruvchili regressiya, model aniqligi, elastiklik va autokorrelyatsiya kabi nazariy tushunchalarni o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi manbalar hosildorlik omillarini nazariy va amaliy jixatdan keng yoritgan bo'lsa-da, ularning aksariyati O'zbekiston hududlaridan biriga xos bo'lgan lokal statistik farqlarni to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda aynan Samarqand viloyati sharoitida 2015-2024 yillar statistik ma'lumotlar asosida suv ta'minoti, NPK o'g'itlash, navlar ulushi, agrotexnologiya darajasi va kasalliklardan himoya ko'rsatkichlarining ta'siri ekonometrik model orqali chuqur o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlar, statistik baholash kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Tahlil uchun Samarqand viloyatining 2015-2024 yillik malumotlar keltirilgan [1], [2], [13], [14], [15] :

Yil	Hosildorlik(y)	Suv(x ₁)	NPK (x ₂)	Navlar ulushi(x ₃)	Texnologiya (x ₄)	Zararli kasallik (x ₅)
2015	46,2	2800	95-45-58	30	1	70
2016	46,5	2850	100-48-30	32	2	72
2017	47,0	2900	105-50-32	35	3	73
2018	48,1	2950	110-52-34	38	4	75
2019	48,4	3000	112-55-35	40	5	77
2020	49,6	3050	115-57-37	42	6	78
2021	50,7	3070	118-59-38	46	8	80
2022	43,6	3000	120-60-40	50	10	75
2023	46,4	3050	123-61-41	55	12	82
2024	48,8	3100	125-62-42	60	15	85

1-jadval

Bu jadval asosida quyidagi matematik modellar quriladi:

I. Chiziqli regression model. Chiziqli regression modelda ko'rsatgichlar quyidagi ko'rinishda olinadi:

1. Hosildorlik (Y) – sentner/ga,
2. Suv taminoti (x₁) – m³/ga,
3. Mineral o'g'itlar (NPK) (x₂) – kg/ga,
4. Sertifikatlangan navlar ulushi (x₃) – %,
5. Zamonaviy agrotexnologiyalar ulushi (x₄) - %
6. Zararkunanda – kasalliklardan himoya darajasi (x₅) – %.

Bu ma'lumotlar asosida ko'p o'zgaruvchili chiziqli regression model quriladi. Bu modelni quyidagi ko'rinishda quramiz:

$$Y_t = \beta_0 + \beta_1 X_{1t} + \beta_2 X_{2t} + \beta_3 X_{3t} + \beta_4 X_{4t} + \beta_5 X_{5t} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu metodologiya Wooldridge, Gujarati, Green tomonidan berilgan nazariy asosga tayangan.

(1) formuladan β_i ($i=1...5$) koeffitsiyentlarni topib,

$$Y_t = 41,42 + 0,0043X_{1t} - 0,2532X_{2t} - 0,1528X_{3t} + 0,2417X_{4t} + 0,2731X_{5t}$$

ni hosil qilamiz.

Bu yerda:

- Suv ta'minoti ($\beta_1 = 0,0043$). Suv 1 birlikka ($1 \text{ m}^3/\text{ga}$) oshsa, hosil $0,0043\text{s/ga}$ oshadi.
- NPK ($\beta_2 = -0,2532$). Koeffitsient salbiy - multikollinearlik sababli iqtisodiy ma'nosi yaroqsiz.
- Navlar ulushi ($\beta_3 = -0,1528$). Ahamiyatsiz.

- Texnologiya ulushi ($\beta_4 = 0,2417$). Texnologiyaning 1 birlik o'sishi, hosildorlikning 0,2417 s/ga oshishiga olib keladi.
- Himoya darajasi ($\beta_5 = 0,2731$). Kasalliklardan himoya darajasi 1 birlikka oshishi, hosilning 0,2731 s/ga oshishiga olib keladi.

Modelning aniqlik darajasi:

- $R^2 = 0,959$ – hosildorlikning 95,9% o'zgarishi modeldagi 5 ta omil bilan izohlanadi.
- F -statistika ahamiyatli – model umumiy shakilda signifikant.
- p – qiymatlar:
 - Suv: $p < 0,05$ – ahamiyatli.
 - Texnologiya: $p < 0,1$ – chegaraviy ahamiyatli.
 - Himoya: $p < 0,05$ – ahamiyatli.
 - NPK va navlar – multikollinearlik tufayli zaif chiqdi.
- Qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi Durbin-Watson (DW) mezoni bilan tekshiriladi:

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^n (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^n e_t^2} \quad (2)$$

bu yerda:

- $e_t - t$ -davrdagi qoldiq
- e_{t-1} – oldingi davrdagi qoldiq
- n – kuzatuvlar soni

Hisob-kitoblarga ko'ra **DW = 2,15** natija olindi, bu avtokorrelyatsiya mavjud emas degan xulosani bildiradi.

II. Logarifmik (log-log) model. Bu modelda quyidagi ko'rsatgichlar tanlanadi.

1. Hosildorlik (Y) – sentner/ga,
2. Suv taminoti ($\ln x_1$) – m³/ga,
3. Mineral o'g'itlar (NPK) ($\ln x_2$) – kg/ga,
4. Sertifikatlangan navlar ulushi ($\ln x_3$) – %,
5. Zamonaviy agrotexnologiyalar ulushi ($\ln x_4$) – %
6. Zararkunanda – kasalliklardan himoya darajasi ($\ln x_5$) – %.

Yuqoridagi jadvalning modelini logarifmik ko'rinishidagi ifodalanishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$\ln Y_t = \beta_0 + \beta_1 \ln X_1 + \beta_2 \ln X_2 + \beta_3 \ln X_3 + \beta_4 \ln X_4 + \beta_5 \ln X_5 + \varepsilon \quad (3)$$

Bundan β_i ($i=1 \dots 5$) koeffitsiyentlarni topib,

$$Y = -18,87 + 3,6 \ln X_1 - 1,42 \ln X_2 - 0,03 \ln X_3 + 0,03 \ln X_4 + 0,36 \ln X_5$$

ga ega bo'lamiz.

Bu yerda

- Suv ta'minoti ($\beta_1 = 3,6$). Agar suv 1 % ga oshsa, hosildorlik 3,6 % ga oshadi. Bu eng kuchli elastik hisoblanadi.
- NPK ($\beta_2 = -1,42$). Multikollinearlik sababli statistik noto'g'ri.
- Navlar ulushi ($\beta_3 = -0,03$). Ahamiyatsiz.

- Texnologiya ulushi ($\beta_4 = 0,03$). Texnologiyaning 1% o'sishi, hosildorlikning 0,03 % ga oshishiga olib keladi.
- Himoya darajasi ($\beta_5 = 0,36$). Kasalliklardan himoya darajasi 1 % ga o'sishi, hosilning 0,36 % ga o'sishiga olib keladi.

Modelning aniqlik darajasi:

- Determinatsiya koeffitsienti $R^2=0,956$ ga teng. Hosildorlikning 95,6 % o'zgarishi logarifmik modeldagi 5 ta omil ($\ln x_1, \ln x_2, \ln x_3, \ln x_4, \ln x_5$) bilan izohlanadi. Bu log-log modelning juda yuqori aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Hosildorlikdagi barcha o'zgarishlarning 95,6 % qismi tanlangan omillar – suv ta'minoti, NPK, navlar ulushi, texnologiyalar darajasi va himoya choralari tomonidan statistik jihatdan tushuntiriladi. Atigi 4,4 % o'zgarish model bilan izohlanmaydi. Bu qismlar ob-havo, tuproqning kutilmagan xususiyatlarini yoki tasodifiy xatolar bilan bog'liq bo'ladi.
- F -statistik ahamiyatli – model umumiy ko'rinishda statistik jihatdan signifikant hisoblanadi.
- Qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi yuqoridagi (2) formulaga ko'ra Durbin-Watson (DW) mezoni bilan tekshiriladi va natija $DW = 1,88$ ga teng, bu avtokorrelyatsiya yo'qligini ko'rsatadi.

Log-log modelning chiziqli modeldan asosiy farqi shundaki, u elastiklikni bevosita ko'rsatadi. Har bir β_i koeffitsienti [5], [7]:

$$\beta_i = \frac{\% \Delta Y}{\% \Delta x_i} \quad (4)$$

nisbatni bildiradi. Bu esa resurslardan foizli o'zgarishlar nuqtayi nazardan foydalanish samaradorligini baholashga imkon yaratadi. Bundan tashqari, logarifmik transformatsiya ko'pincha dispersiyani barqarorlashtiradi, ekstremal qiymatlarning ta'sirini yumshatadi, model qoldiqlarini normal taqsimotga yaqinlashtiradi. Mazkur tadqiqotda ham log-log model chiziqli modelga yaqin natijalar berdi, biroq elastiklik jihatdan tahlil uchun ancha boyroq axborot taqdim etdi. Tushunarli qilib aytganda chiziqli model hosildorlikni mutlaq birliklarda, logarifmik model esa foizli elastiklikni tushuntiradi. Logarifmik model iqtisodiy mazmun jihatidan boyroq, resurslar samaradorligini baholashda foydaliroq va qishloq xo'jaligi kabi tabiiy tebranishli jarayonlarda barqarorroq natija beradi [5], [7].

XULOSA

Tadqiqotda 2015-2024 yillar davomida Samarqand viloyatida bug'doy hosildorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik yondashuvlar – chiziqli va logarifmik regressiya modellarida baholandi. Natijalar tahlili, suv ta'minoti va kasallik hamda zararkunandalardan himoya choralari hosildorlikning eng muhim determinantlari ekanini ko'rsatdi. Agrotexnologiyalar ulushining o'sishi ham ijobiy ta'sirga ega bo'lib, texnik intizomning ahamiyati tasdiqlandi.

Chiziqli model hosildorlikni mutlaq birliklarda izohlashda qulay bo'lsada ($R^2=0,959$), logarifmik model jarayonlarning elastikligini baholashda samaraliroq natija berdi ($R^2=0,956$). Log-log model resurslardan foydalanish samaradorligini foizli o'zgarishlar nuqtayi nazaridan aniqlash va tabiiy tebranuvchan agroiklim sharoitlarini hisobga olishda afzal ekanini ko'rsatdi.

Umuman olganda, Samarqand viloyati sharoitida bug'doy hosildorligini oshirish uchun suv ta'minotini barqarorlashtirish, himoya tadbirlarini kuchaytirish va zamonaviy agrotexnologiyalar ulushini oshirish eng samarali yo'nalishlar ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari hudud bo'yicha

resurslardan foydalanish strategiyasini optimallashtirish va hosildorlikni barqaror rivojlantirishda amaliy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi ko‘rastgichlari (2015-2024).
2. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Agro hisobotlar.
3. Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Metodik qo‘llanma.
4. O‘zgidromet. Samarqand viloyati iqlim monitoringi.
5. Wooldridge J. *Introductory Econometrics*.
6. Gujarati D., Porter D. *Basic Econometrics*.
7. Greene W. *Econometric Analysis*.
8. FAO. *Wheat Production and Climate Interaction*.
9. Lobell D., Field C. *Climate – crop yield relationships*.
10. Fischer R. *Wheat yield response to agronomic factors*.
11. Richards R. *Agronomic determinants of wheat productivity*.
12. Tursunov O. *O‘zbekiston sharoitida don yetishtirish samaradorligi*.
13. Ziyodov R., Omonov M. *Samarqand viloyati tuproqlari*.
14. To‘xtayev O. *O‘zbekiston agroiklimiy resurslar*.
15. Urug‘chilik va Nav Sinash Markazi. *Bug‘doy navlarining hosildorligi*.

Tursunov Ulug‘bek Sotivoldiyevich–
Namangan davlat texnika universiteti,
Buxgalteriya hisobi kafedراس mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
ulugbektursunov@mail.ru

**IJARAGA OLINGAN ASOSIY VOSITALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Турсунов Улуғбек Сотиволдиевич –
Наманганский государственный технический университет,
заведующий кафедрой бухгалтерского учета,
доктор экономических наук,
ulugbektursunov@mail.ru

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ НА ОСНОВЕ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ**

Tursunov Ulugbek Sotivoldievich –
Namangan State Technical University,
Head of the Department of Accounting,
Doctor of Economics (DSc),
ulugbektursunov@mail.ru

**IMPROVEMENT OF ACCOUNTING FOR FIXYED ASSETS BASED ON
INTERNATIONAL STANDARDS**

Annotatsiya.

Maqolada ijara munosabatlarining me‘yoriy-xuquqiy asosi, ijara ob‘yektini ijaraga oluvchi tomonidan va ijaraga beruvchi kompaniya tomonidan rasmiylashtirish tartibi, buxgalteriya hisobida aks ettirish va hisobini yuritish tadqiq qilingan hamda ijara munosabatlarining ahamiyatligi asoslangan. Shuningdek, ijaraga olingan asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari talablari asosida takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: asosiy vosita, lizing, kredit, ijara, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Аннотация.

В статье рассматриваются нормативно-правовая база арендных отношений, порядок учета объекта аренды лизингополучателем и лизинговой компанией, его отражение в бухгалтерском учете и отчетности, а также значение арендных отношений. Также сделаны выводы и предложения по совершенствованию учета арендованных основных средств в соответствии с требованиями международных стандартов финансовой отчетности.

Ключевые слова: основные средства, лизинг, кредит, аренда, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности.

Abstract.

In the article, the normative-legal basis of the lease relationship, the procedure for formalization of the lease object by the lessee and the leasing company, reflection and accounting in accounting, and the importance of the lease relationship are based. Conclusions and suggestions on improving the account of leased fixed assets based on the requirements of international standards of financial statements are also presented.

Key words: fixed asset, leasing, credit, rent, national accounting standards, international financial reporting standards.

Kirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadigan jahon andozalari darajasidagi yangi texnika bilan ta‘minlashda moliyaviy mablag‘lar bilan ishtirok etayotgan moliya institutlari, shu jumladan, xo‘jalik sub’yektlarining ijara (lizing) munosabatlariga faol jalb etilayotganligi ko‘zga tashlanmoqda.

Iqtisodiyotdagi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik egalari har doim ham kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi. Shu sababli, noan‘anaviy moliyaviy vositalar ijarasining bir turi bo‘lgan lizing xizmatiga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ushbu xizmat turi ham mijozlar, ham tijorat banklari uchun birmuncha ma‘qul bo‘lganligi sababli, rivojlana boshladi. Bunday operatsiyalarning rivojlanishi tufayli xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda amalga oshirilayotgan ijara muomalalari hisobini yanada takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu masalalarning ijobiy hal etilishi ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o‘rtasida o‘zaro manfaatli asosda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritilishiga bog‘liq ekanligi o‘z taklif va tavsiyalarimizga binoan ushbu bobda yoritib berildi. Bu ijara muomalalari buxgalteriya hisobi bo‘yicha takomillashtirish yo‘llari amaliyotga joriy etilsa, ijara jarayonlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shar edi, degan umiddamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi-olim T.Utanov tomonidan shunday ta‘rif berilgan: “ingliz tilida tezkor (operativ) va moliyaviy lizing tushunchasi mavjud. Bizning qonunchilikka ko‘ra, operativ lizing “ijara” degan ma‘noni anglatadi. Moliyaviy lizing esa “moliyaviy ijara” yoki “lizing” ma‘nosini anglatadi¹.

O‘zbekiston Respublikasida yangi renessans sharoitida tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo‘llaridan biri lizing munosabatlarini rivojlantirish va uni amaliyotda qo‘llash, chet el lizing tajribasidan keng foydalanishni taqozo qilmoqda. Chunki lizing oddiy ijara emas, ijaradan farqli ravishda unda qoidaga ko‘ra uchta va undan ortiq sub’yekt qatnashadi, ya‘ni uskunalarni yetkazib beruvchi (sotuvchi), lizing kompaniyasi (lizing beruvchi) va lizingdan foydalanuvchi (lizing oluvchi) lar ishtirok etadi².

Xorij adabiyotlarida boshqa ta‘riflar ham uchraydi: Jumladan, V.D.Gazman tomonidan “Lizingning kredit bilan o‘xshash jihatlari ham mavjud bo‘lib, unda farqli tomoni tomonlarning uchta ekanligi hisoblanadi”³. Bundan tashqari, ayrim iqtisodchilar, ushbu masalada, lizing bu ijara munosabatlarining alohida turi deb hisoblaydi.”⁴

¹Utanov T.N. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish.// I.f.n. ilmiy darasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasining avtoreferati. Toshkent: BMA, 2009. 24b.

²Ковалев В.В. Лизинг:финансовые,учетно-аналитические и правовые аспекты:Москва, Проспект: 2014.- 441с.с.54

³Газман В.Д. Рынок лизинговых услуг. М.:Фонд “Правовая культура” 1999. -376с. С. 144.

⁴Левконин А.О. Формирование рынка лизинговых услуг. М.:Деловой и учебной литературы.2004.-324с. С.35.

Ayrim adabiyotlarda mulkni xususiy qilib sotib olish va keyinchalik ma'lum to'lov evaziga vaqtincha berib turish tufayli vujudga keladigan mulkiy munosabatlar lizing deb ataladi degan fikrlar ham uchraydi⁵.

Xalqaro miqyosda moliyaviy lizingni quyidagi belgilar asosida tasniflashimiz mumkin:

1) lizing ob'yekti lizing shartnomasi tugashi bilan lizing oluvchining xususiy mulkiga o'tadi va shartnomaga ko'ra qarz majburiyati qolmaydi;

2) lizing ob'yektidan foydalanish muddati shartnoma muddatiga nisbatan ko'proq davrni o'z ichiga oladi va undan keyinchalik ham foydalaniladi;

3) lizing oluvchi lizing ob'yektini bozor bahosidan past bahoda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng belgilanadigan, shuningdek, qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish huquqiga ega bo'ladi va ushbu imkoniyatdan foydalanadi;

4) lizing shartnomasi davrida lizing to'lovlarining umumiy summasi (soliqlardan tashqari) lizing ob'yekti qiymatiga teng yoki undan ortiq bo'lishi lozim;

5) ijaraga berilgan lizing ob'yektining foydalanish xususiyatlarini lizing oluvchi qayta o'zgartirish kerak.

Iqtisodchi-olim T.Utanov tomonidan shunday ta'rif berilganligini ko'rishimiz mumkin: "ingliz tilida tezkor (operativ) va moliyaviy lizing tushunchasi mavjud. Bizning qonunchilikka ko'ra, operativ lizing "ijara" degan ma'noni anglatadi. Moliyaviy lizing esa "moliyaviy ijara" yoki "lizing" ma'nosini anglatadi⁶.

Tadqiqot metodologiyasi.

Hisob tizimini isloh qilish va buning oqibatida ishonchli moliyaviy ma'lumotlar olinishi, har bir korxonada nazoratni yaxshilash, xorijiy investorlarning, taqdim etilayotgan axborotning sifatiga bo'lgan ishonchni oshiradi. O'zbekistondagi buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar darajasiga chiqishi kerak. Shuning uchun, quyidagi solishtirma jadvalda biz, "Ijara hisobi" nomli xalqaro va milliy standartlarning o'zaro farqlanish va o'xshashlik tomonlarini ko'rsatib o'tishga xarakat qildik.

1-jadval

17-sonli "BHXS"	6-sonli "BHMS"
Ijara - ijaraga beruvchi ijarachiga bir yoki bir nechta to'lovlar evaziga kelishilgan muddat davomida aktivdan foydalanish huquqini berishini ko'zda tutadigan kelishuvdir.	Ijara - kelishuvga binoan bir tomon (ijaraga beruvchi) boshqa tomonga (ijaraga oluvchiga) haq evaziga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish yoki kelishilgan muddat davomida mulkdan foydalanish huquqini berishdir.
Moliyaviy ijara – aktivga egalik qilish bilan bog'liq deyarli barcha xatarlar va mukofotlarni kelishuvning bir tomonidan boshqa tomoniga o'tkazuvchi ijara. Egalik huquqi pirovardida o'tkazilishi yoki o'tkazilmasligi mumkin.	Moliyaviy ijara - mulkni (moliyaviy ijara ob'yektini) shartnomaga binoan o'n ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish huquqini berishda yuzaga keladigan ijaraviy munosabatlar.
Operativ ijara – moliyaviy ijaradan tashqari boshqa hamma ijara kelishuvlari.	Operativ ijara - moliyaviy ijara shartnomasi hisoblanmaydigan mulkiy ijara shartnomasiga binoan mulkni vaqtinchalik egalik qilishga yoki

⁵Горемыкин В.А. Основы технологии лизинговых операций . учеб.пособие. М.: Ось-89, 2000. 287с. 26с.

⁶Utunov T.N. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish.// I.f.n. ilmiy darasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasining avtoreferati. Toshkent: BMA, 2009. 24b.

	foydalanishga berish.
Ijara muddatining boshlanishi – ijarachi ijaraga olingan aktivdan foydalanish huquqini amalga oshirib boshlashi mumkin bo‘lgan sana.	Ijaraning boshlanish muddati - ijara shartnomasining shartlariga muvofiq ijarachi ijaraga olingan ijara ob‘yektiga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlagan sana.
Ijara muddati – ijarachi aktivni ijaraga olishga kelishilgan, muddatidan oldin qilinmaydigan davr bilan ijarachi aktivning ijarasini qo‘shimcha to‘lovni amalga oshirib yoki oshirmasdan davom qilish huquqiga ega bo‘lgan va ijaraning boshlanishida ijarachi ushbu huquqdan foydalanishi yetarli darajada aniq bo‘lgan har qanday qo‘shimcha muddat.	Ijara muddati - bekor qilinmaydigan ijara (lizing) kelishuvi amal qiladigan davr, shuningdek har qanday keyingi davrlar bo‘lib, bu davrlar mobaynida ijarachi (lizingga oluvchi) ijara (lizing) shartnomasi tuzilganda aytib o‘tilganidek, mazkur kelishuvni uzaytirishi mumkin.
Minimal ijara to‘lovlari – ijara muddati davomida ijarachi tomonidan to‘lanadigan yoki to‘lanishi talab etilishi mumkin bo‘lgan to‘lovlar bilan summalar, bundan shartli ijara hamda ijaraga beruvchiga to‘lanadigan yoki qoplanadigan xizmatlar haqi va soliqlar mustasno.	Minimal ijara to‘lovlari – ijarachi tomonidan ijara muddati davomida to‘lanadigan ijara to‘lovlari va ijara (lizing) ob‘yektining kafolatlangan qoldiq qiymati summasi.
Kafolatlanmagan qoldiq qiymati – ijaraga berilgan aktiv qoldiq qiymatining bir qismi bo‘lib, u ijaraga beruvchi tomonidan pullanishi kafolatlanmaydi yoki xolos ijaraga beruvchi bilan bog‘liq taraf tomonidan kafolatlanadi.	Kafolatlanmagan qoldiq qiymat - ijara ob‘yekti qiymatining bir qismi bo‘lib, ijara shartnomasining boshlanishida, uning sotilishini ijaraga beruvchi kafolatlamaydi yoki u ijaraga beruvchi bilan boqliq taraf tomonidagina kafolatlanadi.
Ijarada ko‘zda tutilgan foiz stavkasi - (a) minimal ijara to‘lovlari va (b) kafolatlanmagan qoldiq qiymati yig‘indisining keltirilgan qiymati (i) ijaraga olingan aktivning haqqoniy qiymati va (ii) ijaraga beruvchining dastlabki bevosita xarajatlari yig‘indisiga ijara boshlanishi paytigacha teng bo‘lishini ta‘minlaydigan diskont stavkasidir.	Ijara shartnomasida ko‘zda tutilgan foiz stavkasi - ijara (lizing) muddatining boshlanishida ijara (lizing) ob‘yektining joriy qiymati bilan minimal ijara (lizing) to‘lovlari va kafolatlanmagan qoldiq qiymati summasi yig‘indisining diskontlangan qiymatining teng bo‘lishini ta‘minlaydigan diskont stavkasidir.
Ijarachi uchun qarz kapitalning o‘sib boruvchi foiz stavkasi – xuddi shunday ijara kelishuvi bo‘yicha ijarachi tomonidan to‘lanishi talab etilgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan foiz stavkasi.	Qarz kapitalining o‘sib boruvchi foiz stavkasi - bu xuddi shunday ijara (lizing) shartnomasi uchun ijarachi (lizingga oluvchi) to‘lashi lozim bo‘lgan foiz stavkasi.

“Ijara hisobi” nomli 17-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida keltirilishicha minimal ijara to‘lovlari to‘lanishi talab etilishi mumkin bo‘lgan to‘lovlar bilan quyidagi summalar,

bundan shartli ijara hamda ijaraga beruvchiga to'lanadigan yoki qoplanadigan xizmatlar haqi va soliqlar mustasno:

a) ijarachi uchun – ijarachi yoki u bilan bog'liq shaxs tomonidan kafolatlangan har qanday summalar; yoki

b) ijara beruvchi uchun – quyidagilar tomonidan ijara beruvchiga kafolatlangan har qanday qoldiq qiymati summasi:

- ijarachi;

- ijarachi bilan bog'liq tomon; yoki

- ijara beruvchiga bog'liq bo'lmagan va kafolat bo'yicha majburiyatlarni moliyaviy jihatdan bajara oladigan uchinchi tomon.

Biroq, agar ijarachi tegishli aktivni uning haqqoniy qiymatidan shu qadar past narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsaki, buning natijasida ushbu huquqning amalga oshirilishi yetarlicha aniq deb ijaraning boshlanishida hisoblash mumkin bo'lsa, minimal ijara to'lovlari ijara muddati davomida ushbu sotib olish huquqini amalga oshirilishi kutilayotgan sanagacha to'lanadigan minimal to'lovlarni hamda ushbu huquqni amalga oshirish uchun talab qilinadigan to'lovni o'z ichiga oladi.

Natija va muhokama.

Ijara kelishuvi yoki shartnomasi ijaraning boshlanishi bilan ijara muddatining boshlanishi orasidagi davr ichida ijara ob'yektini qurish yoki sotib olish tannarxidagi o'zgarishlarni yoki tannarx yohud qiymatning qandaydir boshqa o'lchovidagi, masalan umumiy narxlar darajasidagi, o'zgarishlarni yoki ijara beruvchining ijarani moliyalashtirish xarajatlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, ijara to'lovlarini o'zgartirish shartini o'z ichiga olishi mumkin. Bunday holatda, mazkur Standart maqsadida bu kabi o'zgarishlarning oqibatlarini ijara boshlanishida mavjud bo'lgan deb hisoblanishi kerak.

Ijaraning ta'rifi ijarachiga kelishilgan shartlar bajarilganidan keyin aktivga egalik qilish huquqini olish imkoniyatini beradigan, aktivni ijara berish shartnomalarini qamrab oladi. Bunday shartnomalar ba'zida sotib olish huquqini beradigan ijara shartnomalari nomi bilan ma'lum.

Ijarachilar, MHXS 7 "Moliyaviy instrumentlar: Ma'lumotlarni ochib berish" talablariga rioya qilish bilan birga, moliyaviy ijara bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni ochib berishlari lozim:

a) aktivlarning har bir guruhi bo'yicha, hisobot davri oxiridagi sof balans qiymatini.

b) kelgusi minimal ijara to'lovlarining hisobot davri oxiridagi jami summasi bilan ularning keltirilgan qiymati o'rtasidagi solishtirmasini. Bundan tashqari, tashkilot kelgusi minimal ijara to'lovlarining hisobot davri oxiridagi jami summasi va ularning keltirilgan qiymatini quyidagi davrlarning har birisi uchun ochib berishi kerak:

- bir yilgacha bo'lgan davr;

- bir yildan besh yilgacha bo'lgan davr; besh yildan ko'p bo'lgan davr.

v) davr uchun xarajatlar sifatida tan olingan shartli ijara.

g) hisobot davri oxirida muddatidan oldin bekor qilinmaydigan ikkilamchi ijara kelishuvlari bo'yicha kelgusida olinishi kutilayotgan minimal ijara to'lovlarining jami summasi.

d) ijarachining ahamiyatli ijara kelishuvlarining umumiy tavsifi, shu jumladan quyidagilar, lekin ular bilan chegaralanmagan:

- to'lanadigan shartli ijara nima asosida aniqlanganligi;

- ijara kelishuvini qaytadan tuzish yoki ijara olingan aktivni sotib olish huquqlarining hamda narxlarning qayta ko'rib chiqilishi to'g'risidagi shartlarning mavjudligi va shartlari; va

- ijara kelishuvlari bo'yicha qo'yiladigan cheklolar, masalan dividendlarni to'lash,

qo‘shimcha qarz mablag‘larini jalb etish, va yangi ijara kelishuvlarini tuzish bo‘yicha kabi cheklovlar.

Bundan tashqari, ijarachilar moliyaviy ijara bo‘yicha aktivlarni olganida BHXS 16, BHXS 36, BHXS 38, BHXS 40 va BHXS 41 talablariga muvofiq ma‘lumotlarni ochib berishi kerak.

6- sonli Buxgalteriya hisobining milliy standartida esa, moliyaviy hisobotlarda va unga tushuntirish xatida quyidagilar ochib berilishi lozim:

a) moliyaviy hisobotni taqdim qilish sanasida ijara (lizing) ob‘yektlari hisoblangan aktivlar qiymati to‘g‘risida ma‘lumotlar. Mazkur ijara mulklari bilan bog‘liq bo‘lgan qarzdorliklarni (debitorlik yoki kreditorlik) moliyaviy va operativga ajratgan holda boshqa qarzlardan alohida tan olinishi kerak;

b) moliyaviy ijara bo‘yicha ijara (lizing) to‘lovlariga taalluqli majburiyatlarni umumlashtirilgan shaklda, ularning summasi va to‘lash davri to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni keltirgan holda;

v) salmoqli moliyaviy cheklovlar, moliyaviy ijarani qayta tiklash huquqlari, moliyaviy ijara ob‘yektlarini xarid qilish va moliyaviy ijara bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa kutilmagan (tasodifiy) holatlar bo‘yicha ma‘lumotlar;

g) har bir moliyaviy hisobotni tuzish sanasiga ijara (lizing) to‘lovlarining qoldiq summasi va ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) daromadi hamda moliyaviy ijara ob‘yektining kafolatlangan qoldiq qiymati;

d) moliyaviy ijara davri uchun qoplanmagan majburiyat qoldig‘iga doimiy foiz stavkasini olish uchun ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) daromadi (moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar)ni taqsimlashda foydalaniladigan usul;

y) moliyaviy hisobotni tuzish sanasiga ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing)dan olinishi kutilayotgan kelgusi ijara (lizing) to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

j) ijara shartnomasining muhim shartlarining umumiy tavsifi.

Xulosa.

Har qanday tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi o‘rtacha foyda me‘yoridan kam bo‘lmagan foydaga erishish, shu orqali o‘zining va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ekan, bugungi kunda ijara faoliyatini rivojlanishiga va uning iqtisodiyotda tutgan o‘rnini topishiga to‘sqinlik qilib kelayotgan asosiy sabablardan biri mulkni ijaraga berishdan ko‘ra uni sotishning yoki mavjud mablag‘ni bank depozitlariga qo‘yishning yuqori samara berishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Утанов Т.Н. Тижорат банкларининг лизинг оперциялари ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш.// И.ф.н. илмий дарасини олиш учун ёзилган диссертациясининг автореферати. Тошкент: БМА, 2009. 24б.
2. Ковалев В.В. Лизинг:финансовые,учетно-аналитические и правовые аспекты:Москва, Проспект: 2014.-441с.с.54
3. Газман В.Д. Рынок лизинговых услуг. М.:Фонд “Правовая культура” 1999. -37бс. С. 144.
4. Левконин А.О. Формирование рынка лизинговых услуг. М.:Деловой и учебной литературы.2004.-324с. С.35.
5. Горемыкин В.А. Основы технологии лизинговых операций . учеб.пособие. М.: Ось-89, 2000. 287с. 26с.
6. Утанов Т.Н. Тижорат банкларининг лизинг оперциялари ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш.// И.ф.н. илмий дарасини олиш учун ёзилган диссертациясининг автореферати. Тошкент: БМА, 2009. 24б.

Sodiq Boymurotov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Soliq va soliqqa tortish kafedrası dotsenti

**SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI YOKI SOLIQ MA'MURCHILIGI: TUSHUNCHALAR
TAHLILI VA IZOHLAR**

Содик Боймуротов

Ташкентский государственный экономический университет
Доцент кафедры Налоги и налогообложение

**НАЛОГОВОЕ АДМИНИСТРИРОВАНИЕ ИЛИ НАЛОГОВАЯ АДМИНИСТРАЦИЯ:
АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ И ПОЯСНЕНИЯ**

Sodiq Boymurotov

Tashkent State University of Economics
Associate professor, Department of taxes and taxation

**TAX ADMINISTRATION OR TAX ADMINISTRATION: ANALYSIS OF CONCEPTS
AND EXPLANATIONS**

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq ma'murchiligi va soliq ma'muriyatchiligi tushunchalari, ularning mohiyati, xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining soliq ma'murchiligi va soliq ma'muriyatchiligi tushunchalari bo'yicha tadqiqotlari tahlil qilindi, shuningdek mamlakatimiz soliq tizimida soliq ma'murchiligini qo'llash amaliyotini tahlil qilish orqali uning soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan.

Tayanch so'zlar: Soliq to'lovchi, menejment, soliq menejmenti, soliq ob'ektlari, soliq hisoboti, soliq xisob-kitoblari, soliq xisobotini tuzish, yuritish, penya va jarimalar hisobini yuritish, hujjatlarni boshkarish, soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i, soliq muloqoti, soliq nazorati, soliq nizolari, soliq ma'murchiligi, soliq ma'muriyatchiligi, vakolatli organlar, soliq organlari, soliq munosabati sub'ektlari.

Аннотация: В данной статье проанализированы понятия налогового администрирования и налогового администрирования, их сущность, исследования зарубежных и отечественных экономистов по понятиям налогового администрирования и налогового администрирования, а также изучены аспекты, связанные с налоговым администрированием, путем анализа практики применения налогового администрирования в налоговой системе нашей страны.

Ключевые слова: налогоплательщик, управление, налоговое управление, объекты налогообложения, налоговая отчетность, налоговые расчеты, подготовка и ведение налоговой отчетности, учет штрафов и пеней, документооборот, личный счет налогоплательщика, налоговый диалог, налоговый контроль, налоговые споры, налоговое администрирование, налоговая администрация, уполномоченные органы, налоговые органы, субъекты налоговых отношений.

Abstract: This article analyzes the concepts of tax administration and tax administration, their essence, research by foreign and domestic economists on the concepts of tax administration and tax

administration, and also examines aspects related to tax administration by analyzing the practice of applying tax administration in the tax system of our country.

Key words: taxpayer, management, tax administration, objects of taxation, tax reporting, tax calculations, preparation and maintenance of tax reporting, accounting of fines and penalties, document flow, personal account of the taxpayer, tax dialogue, tax control, tax disputes, tax administration, tax administration, authorized bodies, tax authorities, subjects of tax relations.

KIRISH

Bizgacha yetib kelgan ilmiy tadqiqotlar manbalaridan ma'lumki, soliqlar har qanday mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida eng muhim omillardan biri hisoblanib, ular davlatning paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgan va davlatning rivojlanishi bilan shakllanib, kengayib, shu davlatning taraqqiy etishida asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanib kelgan.

O'z navbatida, soliq ma'murchiligi ham soliqlarning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga kelgan va kishilik jamiyatining rivojlanib borishi bilan u ham takomillashib, jamiyatda amal qiladigan doirasi kengayib, ahamiyati oshib borgan. Bu esa, olimlar, tadqiqotchilar va iqtisodchilar orasida soliq ma'murchiligini muntazam tadqiq etish, uning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati bilan hamohang o'sishini ta'minlash borasida takomillashtirib borish yuzasidan tadqiqotlar olib borilishini taqazo qilib kelgan.

Sir emas bugungi kunda soliq ma'murchiligi va soliq ma'muriyatchiligi tushunchalari borasida xalqaro va alohida mamlakatlar olimlari, tadqiqotchilari va soha mutaxassislari orasida turli xil qarashlar, mulohazalar, mushohadalar yuzaga kelmoqda.

Bu borada, ilmiy tadqiqot manbalari va soliq munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarga asoslanib, ushbu maqolada biz "soliq ma'murchiligi nima?" va "soliq ma'muriyatchiligi nima?", "ular bir-biri bilan bog'liq tushunchalarmi?" yoki "ularning bir-biridan farqli tomonlari ham bormi?" degan savollarga aniqlik kiritishga harakat qildik.

Xalqaro internet tarmoqlari ma'lumotlarida "Admin" ya'ni "Mamur" so'zi "administrator" ya'ni "Ma'murchi" so'zidan olingan bo'lib, biror narsani yoki ishni boshqarib boradigan shaxsni anglatadi va "ish tavsifiga yoki mexnat shartnomasi hamda umumiy funksiyalar ya'ni, mijoz yoki xodimlar ish jadvallarini yaratish, yuritish, xisob-kitoblari va kassa xisobotini tuzish, yuritish va hujjatlarni boshqarish, mijozlar bilan muloqot, nizolarini xal kilishidan kelib chiqib, ma'murning vazifalari bir-biridan keskin farq qilishi mumkin"¹ degan ma'lumotlar keltirilgan,

Qayd etish joizki, ma'murning kasbi murakkab kasb bo'lmagan deb xisoblansa-da, u xamma uchun mos emas, chunki ma'mur mas'uliyatligi va tashkilotchiligi, oqilona fikrlashi, jamoa bilan ishlash, muloqot qobiliyatlari, stressga qarshilik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida har bir mamlakatda boshqaruv modellarini shakllantirishda ham keskin o'zgarishlar ro'y bermokda. Jumladan, **menejment** – bugungi kunda moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, xo'jalik mexanizmining tamoyillari, funksiyalari va usullarini ko'llash orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida maqsadlarga erishishga qaratilgan kasbiy faoliyat turiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, **soliq menejmenti** kasbi birinchidan soliq to'lovchining byudjetga soliq va to'lovlarni to'g'ri va to'liq hisoblab to'lashga, ikkinchidan mavjud moliyaviy aktivlarni maqsadli boshqarishni tashkil etishda qonuniy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan eng masuliyatli faoliyat sifatida shakllanib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

¹ <https://academedu.ru/articles/professiya-administrator-kto-eto-i-chem-zanimaetsya/>

Soliq ma'murchiligi va uning har bir davlat soliq siyosati hamda soliq tizimidagi ahamiyati xorijiy malakatlar iqtisodchi olimlari Kleyton Kristensen, A.P.Zrelova va M.V. Krasnova, O.A.Ileva, T.A. Yefrimova L.Gorcharenko, A.B.Paskachev, V.A.Kashin va M.R. Boboevlar tomonidan muntazam o'rganilib tadqiq etib kelingan

Shuningdek, soliq munosabatlarini takomillashtirishda soliq ma'murchiligini o'rni hamda ahamiyati va uning mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari B.Isroilov, B.Ibragimovlar, M.Mirzaev, Q. Ergashev va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda indukciya va dedukciya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq menejmentining soliq ma'murchiligini tashkil etish va yuritish, vakolatli organ tomonidan soliq ma'murchiligi tashkil etish va yuritish tartiblari bilan taqqoslanib, soliq ma'murchiligi va soliq ma'muriyatchiligini o'xshash va farqli jihatlarining tahlillari amalga oshirilib, ilmiy xulosalar berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Bozor iqtisodiyotining shiddat bilan rivojlanishi har bir mamlakatda unga mos ravishda bozor mexanizmlarini tartibga soluvchi huquqiy me'yoriy asoslarni ham takomillashtirib borishni talab qilmoqda. Bugungi kunda menejment, markitolog, boshqarishning tashkil etishning muhim personallariga aylanib bormoqda.

Mazkur jarayon soliq munosabatlari sub'ektlari o'rtasida ham rivojlanib, mamlakat soliq siyosati to'g'ri belgilashda va soliq ma'murchiligini amliyotda qo'llash jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, rus iqtisodchi olimlari A.P.Zrelova va M.V. Krasnova solik menejmenti konsepsiyasini "birinchidan, boshqaruv tizimi sifatida solik to'lovchilarning solik majburiyatlarini, soliq va to'lovlarni, shuningdek ularning soliq solinadigan bazasini tashkil etuvchi resurslarni hisob-kitobini to'liq va to'g'ri yuritishni, ikkinchidan, solik to'lovchilarning davlat solik tizimi bilan o'zaro munosabatlari samaradorligini oshirishga karatilgan faoliyati sifatida ko'rib chiqishni"² taklif kiladilar.

Yana bir rus iqtisodchi olimasi O.A.Ilevaning fikricha, "Soliq menejmenti korporativ soliqqa tortishni boshqarish tizimi sifatida korxonada ichidagi soliq oqimlarini boshqarish jarayonini tashkil etish, soliklarni rejalashtirish, uning hisob-kitoblarini tartibga solish va soliq qonunchiligini nazorat qilish funksiyalarini bajarishi kerak"³ deb ta'kidlaydilar.

Shunday kilib, soliq menejmentini bir tomondan davlatning soliq siyosatini to'g'ri yuritilishi tashkil etishni, ikkinchi tomondan esa solik mavjud moliyaviy aktivlarni to'g'ri boshqarish orqali soliq va boshqa to'lovlarni byudjetga to'liq va o'z vaqtida to'lanishida davlat tomonidan belgilangan konuniy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan eng maqbul, maksadli tashkil etilgan faoliyat sifatida qarash mumkin.

Iqtisodchi rus olimi L.Gorcharenko o'z tadqiqotlarida soliq ma'murchiligini soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar to'plami, davlat organlarining soliqqa oid vakolat va majburiyatlari hamda nazorat qiluvchi organlarning funksiyalari sifatida talqin etib, "soliq munosabatlarining shaffofligini oshirish, bu boradagi ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish

² <http://www.upravlenie24.ru/vidinalogmanagmenta.htm>

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovyy-menedzhment-suschnost-i-soderzhanie>

uchun qulay soliq muhitini yaratuvchi davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi kompleks hamkorlik"⁴ deb ta'kidlaydi.

Amerikalik tadqiqotchi Kleyton Kristensen "soliq ma'murchiligini - soliq majburiyatlarini samarali bajarish, davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ko'p funksiyali faoliyat"⁵ sifatida baholasa, rus iqtisodchi olimi I.A Mayburov "soliq ma'murchiligi davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan kompleks yondoshuv"⁶ ekanligi qayd qilgan.

Shuningdek, iqtisodchi olim T.A. Yefrimova soliq ma'murchiligini soliq jarayonlarini boshqarishning kompleks tizimi sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha "boshqarishning bu tizimi nafaqat soliqlarni yig'ish va nazorat qilishni tashkil etish, balki, soliq to'lovchilar bilan sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, soliq munosabatlaridagi shaffoflikni ta'minlashi va o'zaro hamkorlikni optimallashtirishni ham o'z ichiga olishi lozim"⁷ deb hisoblaydi

O'z navbatida iqtisodchi olimlar A.B.Paskachev, V.A.Kashin va M.R.Boboevlar soliq ma'murchiligini soliqlarni hisoblash, hisob-kitobini yuritish hamda ularni yig'ish va to'lash jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilishni qamrab oluvchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida tariflab, "soliq ma'murchiligi soliq to'lovchilar va soliq organlari harakatlarini muvofiqlashtirishga e'tibor qaratishi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ushbu jarayonlarni optimallashtirishini muhim"⁸ deb biladilar.

Soliq ma'murchiligining predeti bu soliq munosabatlari bo'lib, bu munosabatlar bir tomondan soliq majburiyati yuzaga kelgan paytdan e'tiboran uni hisob-kitobini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar va ikkinchi tomondan soliqlarni to'liq va o'z vaqtida undirilishi ta'minlovchi davlat o'rtasida shakllanadi. Mamlakatimizda soliq munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida aynan ushbu soliq munosabati sub'ektlari uchun soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq qat'iy normalar belgilangan.

Unga muvofiq, "soliqlar va yig'imlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati bu soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyati bo'lib, soliqlarni to'g'ri hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o'z vaqtida o'tkazish majburiyati hisoblanadi hamda soliq qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda yuzaga keladi va soliq to'lovchi tomondan mustaqil bajariladi"⁹.

Soliqlarni to'g'ri va to'liq hisoblash maqsadlarida "soliq solish ob'ektlari to'g'risidagi axborotlarni yuritish tizimlashtirish va umumlashtirish hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini tuzish uchun qonun talablariga muvofiq soliq to'lovchi tomondan hisob hujjatlarini yuritish hisobga olish"¹⁰ deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi qonunchilikka muvofiq, soliqlarni to'g'ri va to'liq hisoblash maqsadida soliq solish ob'ektlarini aniqlashi, ular to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirishi, tizimlashtirishi,

⁴ Goncharenko L.I. Monitoring nalogovыx riskov kak element nalogovogo meneymenta orgganizatsii. «Ekonomika . Nalogi. Pravo» 2014g №3 S-60-66

⁵ Kleyton T Krestensen Reshenie problemy innovatsiy v biznese https://www.google.com/search?_esv

⁶ Mayburov I.A. Nalogovыaya politika . Teoriya i praktika -5izd. / I.A.Mayburov –M. : YuNITI-DANA 2018 –S 349.

⁷ Yefrimova T.A. Razvitie nalogovogo adminstirovaniya v Rossii: teoriya, metodologiya i prktika. Diss. Na soisk. Uch.stepen.d.en po spes 08.00.10 "Finansы.den. obr i kredit. Saroansk 2017 [Http:// dlib.rsl.ru](http://dlib.rsl.ru).

⁸ A.B.Paskachev, Bolshoy tolkovыy slovar nalogovыx terminov i norm / A.B.Paskachev, V.A.Kashin va M.R.Boboev – M: Gelios ARV, 2002.864 s.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 86- moddasi <https://lex.uz/docs/4674902>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 87- moddasi <https://lex.uz/docs/4674902>

shuningdek soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarishi, soliq hisobotini tuzishi, belgilangan tartibda taqdim etishi va hisoblangan soliqni byudjetga to'lashi lozim.

Demak, ilmiy taqdiqotchilar tomonidan yuqorida qayd etilgan shuningdek soliq qonunchiligida belgilangan normalar bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan soliqni ishini tashkil etishi bu soliqni ma'murchiligini tashkil etadi.

O'z navbatida soliq qonunchiligiga ko'ra, "soliq majburiyati yuzaga kelgan soliq to'lovchilarni soliq solish ob'ektlari bo'yicha hisobga qo'yish, hisoblangan hamda to'langan soliqlar va yig'implar summalarini, shuningdek penyalar va jarimalarni soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'ida yuritish, tugatilayotgan soliq to'lovchining soliq majburiyatini to'liq bajarilishi ta'minlash va uni hisobdan chiqarish"¹¹, shuningdek "soliq to'lovchi tomonidan soliq majburiyatini bajarishda soliq qonunchiligi qoidalariga to'g'ri rioya etilishini nazorat qilish"¹² vakolatli organ sifatida, soliq organlarining soliq ishini tashkil etishi bu ham soliqni ma'murchiligini tashkil etadi.

Demak, soliq qonunchiligida belgilangan normalarga muvofiq soliq majburiyati yuzaga kelishi bilan soliq munosabatlari sub'ektlari ya'ni soliq to'lovchilar va soliq organlari tomonidan soliq hisobini yuritish, hisoblangan soliqlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi hamda undirilishi bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tashkil etilishi va yuritilishini soliq ma'murchiligi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Endi ma'muriyatchilik tushunchasi kelsak, zamonaviy xorijiy so'zlar lug'atida "ma'muriyatchilik" so'zi ma'nosi "boshqarish, byurokratik, buyruq, farmoyish berish, orqali boshqarish"¹³ ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida esa "ma'muriyatchilik" so'zining lug'aviy ma'nosi "ma'muriy huquqni suiiste'mol qilish"¹⁴ mazmunida talqin qilingan

Rus iqtisodchi olimasi M.A.Troyanskaya tadqiqotlarida "ma'muriyatchilik so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha "administration" -boshqaruv, rahbarlik ma'nolarini bildirishi hamda u byurokratik usulida buyruq berish boshqaruvini anglatadi"¹⁵ deb izoxlaydi..

Fransuz klassik olimi A.Fayol "ma'muriyatchilik - bu oldindan ko'rish, tashkil kilish, farmoyish berish, raxbarlik kilish va nazorat kilish"¹⁶dir, deb xisoblaydi.

Iqtisodchi olimlarimiz B.Isroilov, B.Ibragimovlar o'z tadqiqotida "Ma'muriyatchilik - vakolatli organ tomonidan me'yoriy hujjatlar, tartib qoidalar va rejalar hamda vakolat doirasidagi huquq va majburiyatlar asosida boshqaruv obekti, jamoa, soha va davlat tizimini boshqarishdir"¹⁷ deb tariflaydilar.

S.Ribakov solik ma'muriyatchiligi - tarixiy tajriba, iqtisodiy fanlar va amaliyot yutuqlariga asosan soliq mexanizmi funksiyalari aniq elementlari (rejalashtirish, tartibga solish, nazorat) hamda hisob-tahlil, hisobot qoidalari va boshqalar bajarilishini ta'minlash uchun soliqqa tortish huquqiy asoslarini ishlab chiqish degan ta'rifni bergan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 85-86- moddalari <https://lex.uz/docs/4674902>

¹² O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni 2-moddasi. <https://www.google.com/search>

¹³ Современный словарь иностранных слов. – СПб.: «Дуэт»; «Комета», 1994. – С. 752

¹⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. A Madvaliyev tahriri ostida. 565-bet. ziyouz.uz>durdona...uzbek-tilining-izohli-lugati.

¹⁵ Троянская М.А. Совершенствование налогового администрирования как резерва роста доходов бюджета // АНИ: экономика и управление, Т. 6. № 2(19), 2017. – С. 274-278

¹⁶ Qaralsin: Административное право зарубежных стран. Под ред. А.Н. Козырина, М.А. Штатиной - М.: Спарк, 2003. – С. 214

¹⁷ Isroilov B.I., Ibragimov B.B. "Soliq munosabatlari tizimini tartibga solish". // Monografiya.-T.: TDIU, 2024. -173

Shuningdek, O.A. Nogina soliq ma'muriyatchiligiga "kam xarajatlar sarflash evaziga ko'p miqdordagi soliqlarni o'z vaqtida undirishga karatilgan ma'muriy chora-tadbirlar majmuasidir"¹⁸ yani soliq ma'muriyatchiligiga aksariyat hollarda davlatning samarali fiskal tadbiri sifatida ta'riflaydi.

Demak, yuqorida qayd etilgan tariiflardan bozor munosabatlari sharoitida solik ma'muriyatchiligi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va solik to'lovchilarning solik majburiyatlarini shaffof bajarilishini ta'minlashda, davlatning soliq siyosatini yuritish, tegishli vakolatli organlarning solik konunchiligi bo'yicha normalarni joriy etish hamda solik munosabatlarini tartibga solishni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali jarayon degan xulosaga kelishni taqazo etadi.

Soliq ma'murchiligi va soliq ma'muriyatchiligi bir-biri bilan bog'liq tushunchalarmi yoki ularning bir-biridan farqli jihatlari ham bormi degan masalaga kelsak, albatta ular bir-biri bilan bog'lik tushunchalar bo'lib, bir-birin to'ldirib keladi.

XULOSA

Yuqorida ta'kidlanganlardan shuni hulosa qilish mumkinki, har bir mamlakat tomonidan belgilangan solik siyosatini amalga oshirishda vakolatli organlar va solik to'lovchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan tegishli chora-tadbirlarning ijrosi va nazoratining hukukiy asoslari bu soliq ma'muriyatchiligini tashkil etsa, o'z navbatida soliq ma'murchiligida aynan ushbu huquqiy asoslar ya'ni qonun, farmon va qarorlar ijrosi bo'yicha soliq to'lovchilar va vakolatli organlar tomonidan soliq ishi bilan bogliq faoliyatning tashkil etilishi va yuritilishi tushuniladi.

Shu bilan birga, soliq ma'murchiligi va soliq ma'muriyatchiligining bir-biridan farqli jihatlarga kelsak, bozor munosabatlarining o'sib, takomillashib borishi bilan soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha normalar ham takomillashib boradi. Lekin soliq ma'murchiligi jumladan, soliq to'lovchilar va ularning soliqqa tortish ob'ektlarini hisobga olish, hisobini yuritish, soliqlarni to'g'ri hisoblash, to'lash hamda soliq nazoratini tashkil va o'tkazishning shakllari, usullari o'zgarib borsada uning maqsad va mohiyatan saqlanib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон.
2. S. Boymurotov «SOLIQ MAMURCHILIGI» Darslik.–T.: "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2025. – 23-26 bet.
3. Goncharenko L.I. Monitoring налоговых рисков как элемент налогового менеджмента организации. «Экономика . Налоги. Право» 2014г №3 S-60-66.
4. Kleyton T Krestensen Reshenie problemy innovatsiy v biznese <https://www.google.com/searchq>.
5. Isroilov B.I., Ibragimov B.B. "Soliq munosabatlari tizimini tartibga solish". // Monografiya.-T.: TDIU, 2024. -173
6. Mayburov I.A. Nalogovaya politika . Teoriya i praktika -Sizd. / I.A.Mayburov –M. : YuNITI-DANA 2018 –S 349.

¹⁸ Ногина О. А. Налоговый контроль: вопросы теории. – СПб., 2002 (цит. по: Абрамчик Л. Я. Развитие налогового администрирования в Республике Беларусь // Налоговое администрирование: ежегодник–2007 / под общ. ред. С. В. Заполского, Д. М. Щекина. – М., 2008. – С. 74).

7. Yefrimova T.A. Razvitie nalogovogo adminstirovaniya v Rossii: teoriya, metodologiya i prktika. Diss. Na soisk. Uch.stepen.d.en po spes 08.00.10 "Finansy.den. obr i kredit. Saroansk 2017 [Http:// dlib.rsl.ru](http://dlib.rsl.ru).

8. A.V.Paskachev, Bolshoy tolkovyy slovar nalogovykh terminov i norm / A.V.Paskachev, V.A.Kashin va M.R.Boboev – M: Gelios ARV, 2002.864 s.

9. Ногина О. А. Налоговый контрол: вопросы теории. – СПб., 2002 (цит. по: Абрамчик Л. Я. Развитие налогового администрирования в Республике Беларусь // Налоговое администрирование: ежегодник–2007 / под общ. ред. С. В. Заполского, Д. М. Щекина. – М., 2008. – С. 74).

Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com
PhD.v.b.dotsent

BANKLARNING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Эркинхожиев Исmoilжон Икромжон угли
Ташкентского государственного экономического университета
ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com
PhD. и.о.доцент

ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВ

Erkinkhojiev Ismoiljon
Tashkent state university of economics
ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com
PhD. acting associate professor

INCREASING THE FINANCIAL STABILITY OF BANKS

Annotatsiya: *Jahon iqtisodiyotida moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashda, banklar o'rtasidagi muloqot samaradorligini kuchaytirishda hamda pul-kredit siyosati mexanizmlarining ta'sirchanligini oshirishda tijorat banklari likvidligini tartibga solishning ahamiyati oshib bormoqda. Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asoslari yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *tijorat banklari, moliyaviy barqarorligi, banklar faoliyatini mustahkamlash, kreditlash.*

Аннотация: *В мировой экономике возрастает значение регулирования ликвидности коммерческих банков для обеспечения стабильности финансовой системы, повышения эффективности межбанковских коммуникаций и повышения эффективности механизмов денежно-кредитной политики. В данной статье рассматриваются основы обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, финансовая стабильность, укрепление банковской деятельности, кредитование.*

Abstract: *In the global economy, the importance of regulating commercial bank liquidity is growing to ensure the stability of the financial system, improve the efficiency of interbank communications, and enhance the effectiveness of monetary policy mechanisms. This article examines the fundamentals of ensuring the financial stability of commercial banks.*

Keywords: *commercial banks, financial stability, strengthening of banking activities, lending.*

Kirish

Ma'lumki banklar tashkil topgandan beri bugungi kunga qadar, banklar faoliyatini mustahkamlash, ular barqarorligini ta'minlash, risklarni boshqarish masalasi o'z dolzarbligini hamon yo'qotmagan. Tarixdan bilamizki, dunyo mamlakatlarida turli inqirozlar bo'lib o'tganligi, shuningdek, ushbu inqirozlarda, eng avvalo, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini saqlab qolish masalasi davlatning iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi. Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo'jaliklari va tadbirkorlik sub'ektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo'l qo'ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin.

Moliyaviy nobarqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy nobarqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, bitta muassasadagi muammolar banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o'zaro qattiq bog'langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfni, ya'ni tizimli xavfni yuzaga keltirishi, ishonchli bo'lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy nobarqarorlikka olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorij davlatlarining iqtisodchi olimlaridan xususan, banklarning moliyaviy barqarorligini takomillashtirish borasidagi yirik tadqiqotlar va nazariy ishlanmalar yetakchi iqtisodchilar J.Sinki, F.Mishkin, I.Lavrushin, V.Usoskin, E.Jukov, E.Jarkovskaya, N.Valenseva, A.Simanovskiy, R.Olxova, A.Tavsiev va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan va tahlil qilingan.

O'zbekistonda banklarning moliyaviy barqarorligini takomillashtirish masalalari bo'yicha iqtisodchi olimlaridan T.Qoraliyev, Sh.Abdullayeva, N.X.Jumayev, A.U.Burxonov, A.Omonov, O.Sattarov, M.Kurbonbekovanning ilmiy ishlarida umumiy bank faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Lekin alohida ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini takomillashtirishning amaliy ham metodologik tomonlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot metodologiyasining asosini banklarning moliyaviy barqarorligini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning ishlari tashkil etadi. Nazariy kuzatish, ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil, statistik, monografik kuzatuv va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama


O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga asosan 2024-yil davomida pul bozoridagi holatning deyarli o'zgarishsiz shakllangan sharoitida bank sektori va ichki valyuta bozoridagi ijobiy o'zgarishlar umumiy moliyaviy stress indeksining pasayishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston moliyaviy stress indeksi o'zining o'rtacha va bir standart chetlanish qiymatidan pastda shakllanib, mamlakat bank tizimidagi stress holatining past darajada ekanligidan dalolat bermoqda.

Banklarda kredit qo'yilmalari va depozitlar hajmining o'sishi, shuningdek foizli marjaning ortib borishi bank tizimidagi ijobiy o'zgarishlarida o'z ifodasini topdi. 2024-yilda kreditlar va depozitlar qoldig'i yillik hisobda mos ravishda 13 va 28 foizlarga o'sdi. Depozitlar va kreditlar hajmining ortishi sharoitida banklarning foiz ko'rinishdagi sof daromadi oshdi. Xususan, 2024-yil yakuni bo'yicha bank tizimi bo'yicha jami sof foizli daromad hajmi 34,2 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 18 foizga ko'paygan. Ichki valyuta bozorida xorijiy valyutadagi taklif talabga nisbatan yuqori shakllandi. Valyuta birjasidan 2024-yilda tijorat banklari tomonidan sof sotib olingan xorijiy valyutalar hajmi 10,4 mlrd AQSh dollari ekvivalentini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 16 foizga kamaygan. Shuningdek, 2024-yilda jismoniy shaxslar tomonidan banklarga sotilgan xorijiy valyuta hajmi sotib olingan xorijiy valyuta hajmiga nisbatan 6,7 mlrd AQSh dollarga ko'proq bo'ldi. Ushbu tafovut 2023-yilga nisbatan 2,1 barobar ortgan. Moliyaviy stress holatining bank tizimiga tarqalishi bilan bog'liq xatar darajasi mo'tadil baholanmoqda.

2024-yil yakunida bank tizimida rentabellik ko'rsatkichining kamayishiga qaramay, banklarda likvidlik holatining yaxshilanishi hamda fond bozori tebranuvchanligining pasayishi hisobiga Δ CoVaR ko'rsatkichida keskin o'zgarish bo'lmadi. 2024-yilda Δ CoVaR ko'rsatkichi o'zining o'rtacha trendida shakllandi, bu esa banklardagi ehtimoliy zaifliklar natijasida tizimli xatarlarni sodir bo'lish bilan bog'liq xavotirlarni o'zgarishsiz saqlanayotganligi bilan izohlanadi.

Aholi depozitlarining hajmi jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning qoldig'iga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sdi. 2024-yil yakuni bo'yicha tijorat banklari tomonidan aholiga ajratilgan kreditlar qoldig'i 177,5 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 20 foizga oshdi. Jismoniy shaxslarning omonatlari miqdori esa 42 foizga o'sib, 2024-yil yakunida 122,4 trln so'mga yetdi. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning aholi ixtiyoridagi daromadiga nisbati hamda banklar majburiyatining kapitalga nisbati ko'rsatkichlari yaxshilandi. Kredit bozori holati xaritasiga ko'ra, 2024-yilda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 31 foizni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, banklardagi majburiyatlar va kapital hajmining deyarli bir xil sur'atlarda o'sishi hisobiga ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi bo'yicha majburiyatlar va kapital miqdorlarining yillik o'sish sur'atlari 18 foizni tashkil etdi (1-rasm).




1-rasm. Kredit bozorining holati

Bank tizimi aktivlari bo'yicha rentabelligi pasaygan. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati 1 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 1 foiz bandga kamaygan. Jumladan, 2024-yil davomida bank tizimi aktivlari hajmi 18 foizga o'sdi. Shuningdek, 2024-yilda kredit va lizinglar uchun yaratilgan zaxiralar bo'yicha ko'rilgan zararlarning qiymati 2023-yilga nisbatan 41 foizga ortishi hisobiga soliq to'langunga qadar sof foyda miqdori pasaygan. Banklar kredit portfelida substandart va muammoli deb tasniflangan kreditlar ulushi ortdi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, substandart va muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 21 foizni tashkil etib, 2024-yilning mos holatiga nisbatan 1 foiz bandga o'sgan. Bank tizimining xatarlarga bardoshlilik holati yaxshilangan. 2024-yakunida likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti 194 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 29 foiz bandga oshgan. Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti 4 foiz bandga ortib, 2024-yil yakunida 115 foizni tashkil etdi. Shuningdek, kapital monandlilik koeffitsiyenti o'rnatilgan minimal talabdan yuqori shakllanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 17 foizni tashkil etdi.

Kreditlar banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lib qolmoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi jami aktivlari 769 trln so'mni tashkil etib, shundan bank aktivlarining 67 foizi kreditlar hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, boshqa banklardagi mablag'lar, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarning jami aktivlardagi ulushi 16 foizga yetdi. Bank tizimi majburiyatlari tarkibida depozitlarning ahamiyati ortib bormoqda. 2024-yilda banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarning jami passivlardagi ulushi 3 foiz bandga oshib, 40 foizni tashkil etdi. Shuningdek, kreditlar banklarning asosiy moliyalashtirish manbalardan biri sifatida qaralib, uning ulushi 31 foizni tashkil etmoqda.

2024-yilda bank tizimi rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish dinamikasi kuzatildi. 2024-yilning yakunida banklarning sof foydasi 7 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 44 foizga pasaygan. Banklar sof foydasining kamayishi hisobiga kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichi 6,6 foiz darajasida shakllangan. Bank tizimining aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi pasaydi. 2024-yil


yakuniga kelib aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 1,4 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 1,2 foiz bandga kamaydi. Bunda, operatsion xarajatlar hamda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar mos ravishda 21 va 45 foizga oshgani aktivlar rentabelligining kamayishida asosiy omillardan bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Bank sektori rentabelligi

Tizimli ahamiyatga molik banklarda muammoli kreditlarning ulushi yuqoriroq shakllanmoqda. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushida o'sish kuzatilmoqda. 2024-yilda bank tizimi bo'yicha muammoli kreditlar hajmi 27 foizga oshib, 21,2 trln so'mga yetdi. Shuningdek, 2025-yilda kredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan 8 foiz bandga kamayib, 13 foiz bo'ldi. Tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi 4,4 foizni tashkil etdi. Boshqa banklarda esa ushbu ko'rsatkich 3 foiz atrofida shakllandi. O'zbekistonda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 4 foizni tashkil etib, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bo'yicha mediana ko'rsatkichidan 1 foiz bandga yuqoriroq joylashdi. Banklar kredit portfelini bo'yicha konsentratsiya xavfining bank tizimi to'lov qobiliyatiga ta'siri yuqori bo'lishi namoyon bo'lmoqda. 2027-yil yakuniga ko'ra, xatarli ssenariy bo'yicha banklar kredit portfelida eng yuqori ulushga ega qarz oluvchining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bank tizimi bo'yicha jami regulyativ hamda I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyentlarini 2,5 foiz bandga kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, konsentratsiya xavfining yuzaga kelishi tufayli I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti 3,5 foizgacha, jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti esa 5,8 foizgacha pasayishi mumkin.

Bank tizimi likvidlilik holati asosiy va xatarli ssenariylar asosida makro stress-test orqali baholandi. Asosiy ssenariy bo'yicha pul oqimida kutilayotgan pul kirimi va chiqimini baholash koeffitsiyentlari Bazeli qo'mitasining tavsiyalariga asoslangan holda o'rganildi. Xatarli ssenariyda tashqi va ichki iqtisodiy noaniqliklarning ortishi oqibatida kutilayotgan yuqoriroq pul chiqimi hamda kamroq pul kirimi yuzaga kelish holatlari, shuningdek milliy valyuta almashinuv kursi qadrsizlanishi hisobga olingan. Jumladan, xatarli ssenariyda noaniqliklar hisobiga banklarga bo'lgan ishonchning pasayishi va buning natijasida, banklardan omonatlarning qaytarib olinishi, kreditlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilmasligi bilan bog'liq xatarlar inobatga olingan (3-rasm).



3-rasm. Bank tizimi aktivlari va majburiyatlarining muddatlari bo'yicha tarkibi,%

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, global moliyaviy beqarorlikni kuchayishi sharoitida O'zbekiston tijorat banklari barqarorligini ta'minlash barcha tomonlama yondashuvni talab qiladi. Ya'ni:

- bank tizimi moliyaviy holati rivojlanishtirish maqsadida xalqaro tajribaga asoslangan holda solishtirib baholash. Milliy xususiyat va sharoitlarga moslashuvchan metod va mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda stress-tess mexanizmlarini keng joriy qilish.

- kapital yetarliligi va likvidlilik normalarini mustahkamlash orqali turli xil moliyaviy shoklarga bardoshlilik darajasini oshirish.

- kibirxavf va operatsion tavakkalchiliklarni aniqlash, ularni oldini olish va minimallashtirish uchun avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimi, ichki audit salohiyatini rivojlantirish.

- tijorat banklarining barqarorligini ta'minlashda normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining olib borayotgan islohatlari hisobiga sohada ijobiy va katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan bank bozorida muhim ko'rsatkichlardan biri mamlakat yalpi ichki mahsulotida bank sohasi ulushining sekin astalik bilan oshayotganligini ko'rishimiz mumkin.

- O'zbekistonda bank sohasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi orqali ancha rivojlantirildi. Hususan, sohaning huquqiy asoslarini yaratish va banklarning moliyaviy barqarorligini tizimli yuritilishini takomillashtirish kabi ishlarni ko'rsatsa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ivanov V.V. (2020) Banki i bankovskie operatsi: uchebnik i praktikum dlya vuzov / - Moskva: Izdatelstvo Yurayt, - 189 s.

- 2.Litun O.N. (2002) Strategiya bankovskoy restrukturizatsii: Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk, - SPb., s. 134-135.

3. M.Toshtemirova.O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar jurnali. 2025yil. 67-74 b.
4. Zakhirov, M. M. Capital efficiency (return on equity) in banks and risks. International Finance and Accounting 2017, vol.3
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy barqarorlik sharhi 2024 yil.5-131b.

Erxonova Maloxat Absaitovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

malohaterhonova8@gmail.com

**PAXTACHILIK TARMOG' I SAMARADORLIGINI OSHIRISH YUZASIDAN
HIMOYALASH TADBIRLARI KO'LAMI O'ZGARISHI PROGNOZI
(Toshkent viloyati misolida)**

Эрхонова Малохат Абсаитовна

Доцент Ташкентского государственного

экономического университета

malohaterhonova8@gmail.com

**ПРОГНОЗ ИЗМЕНЕНИЙ ОБЪЕМА МЕР ПООЩРЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ХЛОПКОВОДСТВА
(на примере Ташкентской области)**

Erkhonova Malokhat Absaitovna

Associate Professor at Tashkent State

University of Economics

malohaterhonova8@gmail.com

**FORECAST OF CHANGES IN THE SCOPE OF PROTECTIVE MEASURES TO
IMPROVE THE EFFICIENCY OF THE COTTON INDUSTRY
(using Tashkent region as an example)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyatida paxta ekin maydonlarini zararli hashoratlardan biologik usul yordamida himoyalash ko'lami o'zgarishi tahlil qilingan, tanlangan muammo doirasida prognozni amalga oshirish uchun avvalo ko'p omilli regressiya tahlili modeli amalga oshirilgan, ekinni hashoratlardan biologik usulda himoyalash ko'lami o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'lanish darajalari juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi keltirilgan, ko'p omilli ekonometrik modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari ishlab chiqilgan, Toshkent viloyatida paxta ekin maydonlarida hashoratlarga qarshi biologik usul qo'llash ko'lami o'zgarishi prognoz ko'rsatkichlari hisoblangan.

Tayanch so'zlar: Ekonometrik model, Fisher mezoni, korrelyatsion matritsa, trend funksiyalari, real ko'rsatkichlar, prognoz ko'rsatkichlari, zararlangan maydon, omillar bilan o'rtacha bog'langanlik, omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya, determinatsiya koeffitsienti.

Аннотация: В данной статье проанализированы изменения масштабов защиты хлопковых посевов в Ташкентской области от вредных насекомых с помощью биологических методов, для выполнения прогноза в рамках выбранной проблемы в первую очередь был проведён многомерный регрессионный анализ, приведена матрица коэффициентов парной корреляции для выявления степеней взаимосвязи факторов, влияющих на изменение масштабов биологической защиты посевов от насекомых, разработаны критерии проверки качества и значимости многомерной эконометрической модели, рассчитаны прогнозные показатели изменения масштабов применения биологических методов защиты посевов хлопка

от вредителей в Ташкентской области.

Ключевые слова: Эконометрическая модель, критерий Фишера, корреляционная матрица, трендовые функции, фактические показатели, прогнозные показатели, повреждённая площадь, средняя связь с факторами, автокорреляция остатков факторов, коэффициент детерминации.

Abstract: This article analyzes changes in the scale of cotton crop protection in the Tashkent region from harmful insects using biological methods. To make a forecast within the selected problem, a multivariate regression analysis was primarily conducted, a matrix of pairwise correlation coefficients was provided to identify the degrees of interrelation of factors affecting changes in the scale of biological crop protection from insects, criteria for checking the quality and significance of the multivariate econometric model were developed, and forecast indicators of changes in the scale of using biological methods for protecting cotton crops from pests in the Tashkent region were calculated.

Key words: Econometric model, Fisher's criterion, correlation matrix, trend functions, actual indicators, forecast indicators, damaged area, average correlation with factors, autocorrelation of factor residues, coefficient of determination.

KIRISH: Global iqlim o'zgarishi va demografik vaziyatlar tufayli qishloq xo'jaligi rivojlanishiga qo'shimcha talab hamda yangi muammolar paydo bo'lishi sohada tejamkor va ekologik texnologiyalar, vositalar va usullar ko'lamini oshirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligi ekinlari zararli hashoratlarining kimyoviy vositalarga chidamli agressiv mutatsiyalari paydo bo'lishi, ko'p miqdorda yo'qotishlarga olib kelmoqda. Mutaxassislar fikricha dunyo bo'yicha, "insoniyat birgina zararkunandalar tufayli har yili: 203,7 mln. tonna – don; 228,4 mln. tonna – qand lavlagi; 23,8 mln. tonna – kartoshka; 23,4 mln. tonna – sabzavot; 11,3 mln. tonna – mevalar yo'qotiladi".

Shuningdek, sayyoramizda ekologik muvozanat buzilishi oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar, ekologik toza qishloq xo'jaligiga talab keskin ortmoqda. Global iqlim o'zgarishi zararkunandalarning yangi turlarini paydo qilmoqda. Bunda qarshi kurashning biologik usullarini yanada takomillashtirish, yangi vositalar ishlab chiqish bilan birga yangicha strategiyalarni tanlashni talab etmoqda. Bunday sharoitda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va shuningdek hosilni himoyalashning hajmlari o'zgarishini prognoz qilish, kelgusida hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish hajmini o'sib borishini prognozlash kabi vazifalar dolzarblik kasb etib boraveradi.

Ta'kidlash lozimki, paxtachilik sohasining rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq. Shuning uchun, iqtisodiy tahlil qilish usullari qatorida matematik modellashtirish usullarini qo'llash unga ta'sir qiluvchi omillarni qamrab olgan holda rivojlanish dinamikasini haqqoniy baholash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Atrof muhit ifloslanishi bilan bog'liq muammolarning oldini olishda, o'simliklarni himoya qilishda biologik usulning ahamiyati tortib bormoqda. Bu borada dunyo olimlaridan P.G.Chesnokov (1954; 1955); P.N.Painter (1958; 1968); N.I.Vavilov (1964); I.D.Shapiro (1966; 1985); F.G.Maxwell, P.R.Jennings (1984); N.T.Reynolds, P.R.Adkisson, F.S.Ray, R.E.Frisble (1990) ilmiy ishlarida qishloq xo'jaligi ekinlarini biologik usulda himoyalash masalalari tadqiq etilgan.

O'zbekiston sharoitida mazkur masala bilan shug'ullanuvchi ilmiy markazlar qatoriga Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (Xasanova F., Abdulimov Sh.), O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti (Xo'jaev Sh.,

hashoratlar bilan zararlangan maydon, biolaboratoriyaga ajratilgan mablag' (mln so'm) kabilar hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi muhim omillar asos sifatida qabul qilindi (1-jadval):

1-jadval

Toshkent viloyatida paxta ekin maydonlarini zararli hashoratlardan biologik usul yordamida himoyalash ko'lami o'zgarishi

Kuzatil-gan yillar	Jami paxta ekin maydoni, (ming ga)	Shu jamladan		Mavjud biolaboratoriya soni, dona	Biolaboratoriya uchun ajratilgan mablag', mln so'm
		Hashoratlar bilan zararlangan maydon, ga	Hashoratga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydon, ga		
2015 yil	91,6	4120	421680	38	1108,3
2016 yil	91,5	4162	430960	38	967,3
2017 yil	86,4	4154	454400	38	1020,2
2018 yil	75,8	3986	444741	38	824,2
2019 yil	73,0	4230	406095	38	1236,9
2020 yil	73,0	4321	418567	38	1459,7
2021 yil	71,9	4589	422188	38	1984,5
2022 yil	72,1	4966	450755	38	2270,0
2023 yil	70,1	5076	460333	37	3245,0
2024 yil	70,1	7050	477640	37	6867,0

Jadval ma'lumotlari asosida, hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan paxta maydonni o'zgarishi uchun olingan natijaviy va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi juft korrelyatsiya koeffitsientlarining quyidagi korrelyatsiya matritsasini, "MATLAB" dasturlash tilidan foydalanib hisoblaymiz (2-jadval).

X_1 - paxta ekin maydoni, (ming ga)

X_2 - hashoratlar bilan zararlangan maydon, ga ;

X_3 - biolaboratoriyaga ajratilgan mablag', mln so'm.

Ko'rilayotgan jarayon uchun prognozni amalga oshirish uchun avvalo quyidagi ko'p omilli regressiya modelini ko'rib chiqamiz.

$$y_i = \alpha_0 + \alpha_1 x_{1i} + \alpha_2 x_{2i} + \alpha_3 x_{3i} \quad (4)$$

Omillar o'rtasidagi korrelyatsion matritsa tahlili hamda xususiy korrelyatsiya koeffitsientlarini tahlil qilib chiqamiz. Xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari bu natijaviy omil (Y) bilan har bir ta'sir etuvchi omil (X_1, X_2, X_3) o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.

Ekinni hashoratlardan biologik usulda himoyalash ko‘lami o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarning o‘zaro bog‘lanish darajalari juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi¹

	Y	X ₁	X ₂	X ₃
Y	1,0000			
X ₁	-0,2287	1,0000		
X ₂	0,6941	-0,5165	1,0000	
X ₃	0,6998	-0,2206	0,9734	1,0000

Paxtachilikda hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydon o‘zgarishi, (Y) va jami paxta ekin maydoni, (ming ga) (X₁) o‘rtasida sust aloqa mavjudligini ko‘rsatmoqda (-0,2287). Hashoratlarga qarshi biologik usul qo‘llanilgan maydon o‘zgarishi, (Y) va hashoratlar bilan zararlangan maydon, (X₂) o‘rtasida (0,6941) yaxshi, hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydon o‘zgarishi, (Y) va biolaboratoriyaga ajratilgan mablag‘, mln so‘m (X₃) o‘rtasida yaxshi aloqa mavjud (0,6998).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, paxta ekin maydoni, (X₁) va hashoratlar bilan zararlangan maydon (X₂) o‘rtasida (-0,5165) o‘rtacha bog‘liqlik mavjud, paxta ekin maydoni, (X₁) va biolaboratoriyaga ajratilgan mablag‘, mln so‘m (X₃) o‘rtasida bog‘liqlik juda sust (-0,2206). Ayni paytda biolaboratoriyaga ajratilgan mablag‘, (X₃) va xashorat bilan zararlangan maydon (X₂) o‘rtasidagi bog‘liqlik juda zich (0,9734). Umuman olganda tanlab olingan omillar bo‘yicha paxtachilikda bevosita aloqalarni o‘rtacha ekanligi kuzatildi.

Yuqoridagi jadvallarda berilgan yechimlarning tahlili ko‘rsatadiki, paxtachilikda 250812,3136 ozod had tahlil qilinmaydi. X₁ - paxta ekin maydoni bir birlikka o‘zgarganda xashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonni o‘zgarishi 0,67755 birlikka o‘sishiga ta’sir qiladi, X₂– xashoratlar bilan zararlangan maydonning bir birlikka o‘zgarishi xashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonni o‘zgarishi 0,1085 birlikka o‘sishiga olib qeladi, X₃- biolaboratoriyaga ajratilgan mablag‘ bir birlikka o‘zgarishi hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonni o‘zgarishi 29,6035 birlikka o‘sishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasiga zamonaviy texnikalarning kirib kelishi paxtachilikda yalpi mahsulot qiymatini o‘sishiga zamin yaratadi. Bunda, xashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydon o‘zgarishi funksiyasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$U = 250812.3136 + 0.67755 * X_1 + 0.1085 * X_2 + 29.6035 * X_3 \quad (5)$$


Paxtachilik xo‘jaliklarida paxta ekinlarini parvarishlashda biologik usul qo‘llanilgan maydonning o‘zgarishini, haqiqiy va (5) model asosida hisoblangan qiymatlari grafigi quyidagi rasmda o‘z aksini topgan. Ushbu matritsalarini hosil qilish orqali yonma-yon turgan omillar orasida zich bog‘lanish mavjud yoki mavjud emasligi, ya’ni multikolleniarlik mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash mumkin (1-rasm).

Bunga ko‘ra paxtachilikda hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonning o‘zgarishi, (Y) va unga ta’sir etuvchi omillar asosida regression model tuzish uchun multikollinearlik muammosi mavjud emasligi aniqlandi.

Paxta ekin maydonlarida zararli hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonning o‘zgarishi, yillar kesimida o‘sib, kamayib va yana o‘sib borishi kuzatilgan. Bu holatni hisobga olgan holda determinatsiya koeffitsienti hisoblandi.

¹Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida hisoblangan.

$$D = R^2 = 0,53658$$



1-rasm. Hashoratlarga qarshi biologik usul qo'llanilgan maydon o'zgarishining haqiqiy va (5) model asosidagi qiymatlari²

Ishlab chiqilgan trend funksiyalaridagi no'malum sonlar o'rniga yuqorida foydalanilgan model va formulalar yordamida olingan real raqamlarni qo'yish asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga muvofiq paxta ekinlarining hashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonni o'zgarishi, 2015-2024 yillardagi dinamikasi asosida 2025-2030 yillar davomida prognozi ishlab chiqildi.

Ko'p omilli chiziqli regression ekonometrik modelning umumiy sifat ko'rsatkichini aniqlashda determinatsiya koeffitsienti (R^2) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y}_i)^2}{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2} \quad (6) \quad y_i$$

-natijaviy ko'rsatkichning kutilayotgan darajasi;

\bar{y} - natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha arifmetik qiymati;

\hat{y} - natijaviy ko'rsatkichning aniqlangan, prognozlashtirilgan, tekislangan miqdorlari; n – kuzatuvlar soni.

Ko'p omilli modelda korrelyatsiya koeffitsienti: $R=0,73252$ ga teng. Demak, natijaviy omil va ta'sir qiluvchi omillar orasidagi bog'lanish darajasi juda yaxshi. Bundan determinatsiya koeffitsientining quyidagi qiymati kelib chiqadi: $D = R^2 = 0.53658$. Bundan kelib chiqadiki, Y-paxtachilikda xashoratlarga biologik usul bilan qarshi kurashilgan maydonning o'zgarishi darajasiga yuqoridagi omillarning ta'siri 53,66 foizini tashkil qilishi ko'rinadi. Qolgan 44,34 foizi bu yerda hisobga olinmagan boshqa omillar hamda tabiatning qulay yoki noqulay kelishiga bog'liq bo'lgan omillardan iborat.

Determinatsiya koeffitsienti modelga kiritilgan omillarning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini foizda ko'rsatadi. Barcha omillarga tegishli ko'rsatkichlar [0;1] diapozon ichidagi qiymatlarda

²Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ifodalanib, agar ularning qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, modelga kiritilgan omillarning natijaviy ko'rsatkich darajasini haqqoniy baholashdagi o'rni muhimligini asoslaydi. Boshqa tomondan esa modellarni turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyati borligi va ushbu omillar miqdorining R^2 statistik ko'rsatkichga ta'sir etmasligi uchun odatda tekislangan determinatsiya koeffitsientidan foydalaniladi, ya'ni: $R=0.73252$

$$R_{\text{tekis}}^2 = 1 - \frac{S^2}{S_y^2} \quad (7)$$

Mazkur ko'p omilli regressiya modeli statistik ahamiyati va tanlangan jarayonga mosligini aniqlash uchun Fisherning F-mezonini asos qilib olindi va uning qiymatini hisoblash uchun quyidagi formula ishlatildi³, ya'ni:

$$F = \frac{R^2}{1-R^2} * \frac{(n-k-1)}{k} \quad (8)$$

bu yerda,

n – kuzatuvlar soni;

k - ko'p omilli regressiya tenglamasidagi omillar soni.

Keyingi bosqichda F - Fisher mezonining hisoblangan qiymati (F_{his}) nazariy hisoblangan ($F_{\text{jadv}}(\alpha; k; n-k-1)$) qiymati bilan taqqoslandi. Agar $F_{\text{his}} > F_{\text{jadv}}$ bo'lsa, u holda qo'llanilgan model ahamiyatli yoki o'rganilayotgan jarayonga adekvat hisoblanadi. Shundan keyin Studentning t -mezonini asosida ko'p omilli regression ekonometrik model parametrlari va korrelyatsiya koeffitsientlarining ishonchliligi tekshiriladi. Ularning (8) formuladan $F=9.263$ qiymati quyidagi formula yordamida tasodifiy xatolar qiymatlari bilan taqqoslandi⁴:

$$t_b = \frac{b}{m_b}; t_a = \frac{a}{m_a}; t_r = \frac{r}{m_r}. \quad (9)$$

Ekonometrik modelni qo'llash asosida olingan parametrlar va korrelyatsiya koeffitsientlarining tasodifiy xatolari quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi⁵:

$$m_b = \sqrt{\frac{\sum(y - \hat{y}_x)^2 / (n - 2)}{\sum(x - \bar{x})^2}}; \quad (10)$$

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum(y - \hat{y}_x)^2}{(n-2)}} \cdot \frac{\sum x^2}{n \sum(x - \bar{x})^2} = \sqrt{S_{\text{koldik}}^2 \frac{\sum x^2}{n^2 \sigma_x^2}} = S_{\text{koldik}} \frac{\sum x^2}{n \sigma_x}; \quad (11)$$

$$m_{r_{xy}} = \sqrt{\frac{1 - r_{xy}^2}{n - 2}}. \quad (12)$$

Studentning t -mezonini bo'yicha hisoblangan (t_{his}) va olingan natijalarni aks ettiruvchi jadvaldagi ($t_{\text{jad.}}$) qiymatlarni taqqoslab, qabul qilingan N_0 gipotezaning asoslanganlik darajasi tekshirildi. Buning uchun t -mezon asosida ishlab chiqilgan jadvaldagi omillar qiymatining ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($\gamma = n - k - 1$) shartlar doirasida topiladi. Bu yerda n

- kuzatuvlar soni, k - omillar soni. Ushbu hisoblangan a_0, a_1, a_2, a_3

$$Y = 250812.3136 + 0.67755 * X_1 + 0.1085 * X_2 + 29.6035 * X_3$$

³Dimitrios Asterio and Stephan G.Hal. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.397): [101; c. 65-66].

Despite positive developments, several challenges continue to limit investment potential in the region. These include inconsistent regulations, limited coordination, insufficient infrastructure, and exposure to external shocks. To address these challenges, the region needs stronger governance, better legal institutions, more digital public services, and improved public–private partnerships.

The Potential of a Common Investment Space

One of the most promising ideas is the creation of a common investment space in Central Asia. This would make the region more competitive by reducing fragmentation and allowing countries to attract larger, long-term investors. A common investment space could include coordinated tax policies, joint special economic zones, and unified digital investment platforms. If implemented effectively, such measures would make the region easier to navigate for foreign companies and increase investor confidence.

Results and Discussion

The analysis shows that Central Asia is experiencing a gradual but steady increase in foreign investment. Kazakhstan and Uzbekistan continue to lead the region, supported by reforms, improvements in the business environment, and growing interest in renewable energy and digital infrastructure. Smaller economies such as Kyrgyzstan and Tajikistan are also benefiting from investment in mining, hydropower, and agriculture.

One of the most notable findings is the diversification of investment sources. Beyond traditional partners such as Russia and China, the region is now attracting investors from Europe, the Gulf states, and East Asia. This diversification reduces vulnerability to external shocks and strengthens economic resilience.

The study also finds that integration initiatives are becoming increasingly important. The commitments made during the 7th Consultative Meeting indicate a shared willingness to harmonize policies and develop joint infrastructure. If implemented effectively, these measures could significantly improve the region's investment climate and help Central Asian economies transition toward more sustainable and diversified growth.

However, challenges remain. Inconsistent regulations, limited coordination, and insufficient infrastructure still hinder the full realization of investment potential. Addressing these issues will require long-term policy commitment and closer cooperation among the countries of the region.

Conclusion

Central Asia is experiencing a significant shift in its investment landscape. Rising FDI inflows, national reforms, and stronger cooperation are creating new opportunities for growth. To fully benefit from these trends, countries must continue strengthening institutions, improving transparency, and

expanding cooperation. With sustained effort, Central Asia has the potential to become one of the major emerging investment destinations in the global economy.

References

1. UNCTAD. (2024). World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Value Chains. United Nations Conference on Trade and Development.
2. World Bank. (2024). Migration and Economic Development in Central Asia. The World Bank Group.
3. World Bank. (2023). Kazakhstan Economic Update: Balancing Growth and Stability.
4. Asian Development Bank. (2024). Asian Development Outlook 2024: Financing Resilience and Connectivity in Central Asia. Manila: ADB.
5. Asian Development Bank. (2023). Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Program Progress Report.
6. OECD. (2023). OECD Investment Policy Reviews: Central Asia. Paris: OECD Publishing.
7. International Energy Agency. (2023). Renewables 2023: Analysis and Forecast to 2028. IEA Publications.
8. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). Transition Report 2024: Investing in Sustainable Growth.
9. UN ESCAP. (2023). Trade and Transport Connectivity in Central Asia: Trends and Policy Priorities.
10. Government of Uzbekistan. (2024). Reform Program for Improving the Investment Climate. Ministry of Investment, Industry and Trade.
11. Government of Kazakhstan. (2023). National Investment Policy and Development Strategy 2023–2030.
12. Central Asia Consultative Meeting of Heads of State. (2024). Official Communiqué of the 7th Consultative Meeting.

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

TDIU «Budjet hisobi va g`aznachilik» kafedراسi dotsenti

E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

ORCID: 0009-0003-5169-4233

**BANK SEKTORIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI KENG JORIY ETISH HAMDA
USHBU JARAYONNING BUDJET INTIZOMINI TA'MINLASHDAGI TA'SIRI.**

Абдуджалилова Дилноз Абдусатторовна

Доцент кафедры «Бюджетный учет и казначейство»

ТГЭУ E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

**ШИРОКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ
И ВЛИЯНИЕ ЭТОГО ПРОЦЕССА НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЮДЖЕТНОЙ
ДИСЦИПЛИНЫ.**

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

Associate Professor of the Department of

"Budget Accounting and Treasury" of the

TSUE E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

**WIDE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE BANKING SECTOR
AND IMPACT OF THIS PROCESS ON ENSURING BUDGET DISCIPLINE.**

Аннотация: Mazkur maqolada bank sektorida raqamli texnologiyalar - xususan, fintech platformalari, raqamli to'lov tizimlari va blockchain texnologiyasining joriy etilishi davlat moliyasi boshqaruvi va budjet intizomiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda fintech yechimlarining to'lovlar tezligi, tranzaksiya xavfsizligi, ma'lumotlarni avtomatik qayd etish imkoniyatlari orqali budjet jarayonlarida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, blockchain asosida to'lovlar reyestrini yuritishning afzalliklari - o'zgarmas ma'lumotlar bazasi, markazlashmagan nazorat mexanizmlari va real vaqt rejimidagi kuzatuv budjet intizomiga bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: fintech texnologiyalari, raqamli to'lovlar, blockchain hisoboti, budjet intizomi, shaffoflik va hisobdorlik, bank sektorida raqamlashtirish, kiberxavfsizlik.

Аннотация: В данной статье научно обоснованно раскрывается влияние внедрения цифровых технологий в банковский сектор - в частности, fintech-платформ, систем цифровых платежей и технологии blockchain-на управление государственными финансами и обеспечение бюджетной дисциплины. В исследовании анализируется роль fintech-решений в повышении прозрачности и подотчётности бюджетных процессов за счёт ускорения платежей, обеспечения безопасности транзакций и возможностей автоматизированной фиксации данных. Кроме того, рассматриваются преимущества ведения реестра платежей на основе технологии blockchain, такие как неизменяемая база данных, децентрализованные механизмы

контроля и мониторинг в режиме реального времени, которые выступают факторами прямого влияния на бюджетную дисциплину.

Ключевые слова: fintech-технологии, цифровые платежи, blockchain-отчёт, бюджетная дисциплина, прозрачность и подотчётность, цифровизация банковского сектора, кибербезопасность.

Abstract: This article provides a scholarly examination of how the implementation of digital technologies in the banking sector - particularly fintech platforms, digital payment systems, and blockchain technology - influences public financial management and budgetary discipline. The study analyzes the role of fintech solutions in enhancing transparency and accountability in budget processes by improving payment speed, increasing transaction security, and enabling automated data recording. Furthermore, it explores the advantages of maintaining a blockchain-based payment ledger, including an immutable database, decentralized control mechanisms, and real-time monitoring, all of which directly contribute to strengthening budget discipline.

Keywords: fintech technologies, digital payments, blockchain accounting, budget discipline, transparency and accountability, digitalization of the banking sector, cybersecurity.

KIRISH

So‘nggi yillarda global moliya tizimi misli ko‘rilmagan raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Xususan, bank sektorida raqamli texnologiyalar - fintech platformalari, mobil ilovalar, raqamli to‘lov tizimlari, sun‘iy intellekt yechimlari va blockchain texnologiyalari - moliyaviy operatsiyalarni tubdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu jarayon nafaqat tijorat banklari faoliyatini, balki davlat moliyasi boshqaruvi, budjet jarayonlari, fiskal shaffoflik va budjet intizomiga oid mexanizmlarni ham sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida banklarning davlat organlari bilan o‘zaro hisob-kitoblari, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi, tranzaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimidagi monitoring va nazorat tizimlarining samaradorligi moliya boshqaruvining eng muhim ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Fintech texnologiyalari joriy etilishi to‘lovlar tezligini oshirish, xizmatlar narxini pasaytirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda moliyaviy jarayonlarning avtomatlashtirilishini ta‘minlab, budjet ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini bermoqda. Raqamli to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarning aniq qayd etilishi, ma‘lumotlar bazalarining integratsiyasi va avtomatik solishtirish mexanizmlari davlat sektori moliyaviy intizomining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat budjeti mablag‘larining har bir bosqichida raqamli iz qoldirishi korrupsion xavflarni keskin kamaytiradi, mablag‘lardan foydalanishning samaradorligini oshiradi va hisobotlarning aniq va o‘z vaqtida shakllanishiga zamin yaratadi [1].

Blockchain texnologiyasining joriy etilishi esa moliyaviy axborotlarni o‘zgarimas, markazlashmagan, xavfsiz va shaffof holatda saqlash imkoniyatini berib, budjet jarayonlarida tamomila yangi nazorat modeli paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Blockchain asosida hisob yuritishda ma‘lumotlar reyestri o‘zgarimas (immutable) bo‘lib, har bir tranzaksiya tarmoqdagi barcha ishtirokchilar tomonidan tasdiqlanadi. Bu esa davlat mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha manipulyatsiyalarni deyarli imkonsiz qiladi, moliyaviy ma‘lumotlarning haqiqiyliги va ishonchliligini ta‘minlaydi, budjet intizomining barqarorligini oshiradi. Shuningdek, ushbu texnologiya real vaqt monitoringi (real-time monitoring), markazlashmagan nazorat (decentralized control) va avtomatik audit imkoniyatlari orqali shaffoflik va hisobdorlikni sezilarli kuchaytiradi [2].

Raqamli transformatsiya jarayonlari O‘zbekiston Respublikasida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda elektron hukumat tizimining

rivojlantirilishi, bank sektorida raqamli xizmatlar ulushining ortishi, budjet jarayonlarining avtomatlashtirilishi va soliq-budjet ma'lumotlarining yagona raqamli maydonga o'tkazilishi davlat moliyasining boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, blockchain texnologiyasini davlat xaridlari, subsidiya taqsimoti, soliq to'lovlari va budjet ijrosi monitoringiga tatbiq etish istiqbollari moliya intizomini mustahkamlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha qator tezkor chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [3].

2025-yil 1-iyuldan boshlab aholiga xizmat ko'rsatuvchi budjet tashkilotlari, gaz va neft mahsulotini sotuvchi va mulkni ijaraga beruvchi yuridik shaxslar majburiy tartibda elektron to'lov tizimlariga ulanadi hamda to'lovlarni ular orqali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bunda yuridik shaxslar tomonidan to'lovlarni elektron to'lov tizimlari orqali qabul qilishni rad etish hisob-kitob terminallari orqali to'lovlarni qabul qilishni rad etishga tenglashtirilishi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rilishi uchun asos bo'lishi belgilab qo'yildi [4].

Mazkur maqola aynan bank sektorida fintech va blockchain texnologiyalarining keng joriy etilishi davlat moliyasi boshqaruviga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, budjet intizomini ta'minlashda qanday yangi imkoniyatlar yaratayotgani, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida shaffoflik va hisobdorlikning qay darajada oshishi mumkinligini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, raqamli bank texnologiyalarini keng joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar - kiberxavfsizlik muammolari, regulyator moslashuvi, texnologik infratuzilmaning yetukligi, axborot xavfsizligi kabi jihatlar ham ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI .

Bank sektorida fintech texnologiyalarining joriy etilishi, blockchain asosida hisob yuritish va davlat moliyasi boshqaruvida shaffoflikni oshirish masalalari so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan. Adabiyotlarni tahlil qilish ushbu yo'nalishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Kanadalik iqtisodchi olim Don Tapscott - raqamli iqtisodiyot va blockchain nazariyasi asoschisining tadqiqotlariga ko'ra, blockchain texnologiyasi moliyaviy jarayonlarni tubdan o'zgartiruvchi, markazlashmagan va yuqori shaffof axborot tizimini yaratadi. Muallifning fikricha, blockchain asosidagi tranzaksiya reyestri budjet mablag'larining harakatini real vaqt rejimida kuzatishni ta'minlaydi va davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytiradi [5]. Unga ko'ra, davlat sektorida blockchain joriy etilishi, korrupsion xavflarni kamaytiradi, tranzaksiyalarning o'zgarasligini kafolatlaydi, audit jarayonlarini avtomatlashtiradi hamda fiskal shaffoflikni oshiradi.

AQShlik iqtisodchi olim Princeton Universiteti profesori Arvind Narayanan - Blockchainning iqtisodiy oqibatlari bo'yicha eksperti blockchainning iqtisodiy tizimlarda ochiqlikni oshirishini ta'kidlab, markazlashmagan tarmoqlar davlat moliya monitoringini optimallashtirishga xizmat qilishini qayd etadi. Uning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, blockchain asosida yaratilgan to'lov tizimlari tranzaksiyalarni yashirish imkoniyatini kamaytiradi, budjet jarayonlarini avtomatlashtiradi, ma'lumotlar integratsiyasi orqali xatolarni kamaytiradi hamda davlat va bank tizimi o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan O.Mirzaev o'z tadqiqotida O'zbekistonda bank tizimining raqamlashtirilishi bosqichlari, mavjud muammolar va istiqbollarini batafsil tahlil qilgan. Muallifning fikricha, mamlakatda internet tarmog'ining kengayishi va davlat tomonidan moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosat raqamli bank xizmatlarining keng tarqalishiga

turtki bo‘lmoqda. Biroq, ushbu jarayonlar hali ham ayrim texnik va ijtimoiy to‘siqlarga duch kelmoqda Muallif davlat moliyasi boshqaruvida “raqamli iz” (digital trace) tizimi orqali xarajatlarning shaffofligini oshirish zarurligini alohida belgilaydi [7].

Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O’ o‘zlarining ilmiy asarlarida «Elektron to‘lov tizimini joylashuviga qarab 2 turga, ya’ni xalqaro va milliy to‘lov tizimlariga bo‘lish mumkin. Xalqaro to‘lov tizimlariga SWIFT, CHIPS, CHAPS, ZENCHEKIO va boshqa tizimlar kiradi. Milliy to‘lov tizimiga Markaziy bankning elektron to‘lovt izimi, Bank-mijoz to‘lov tizimi, tijorat banklarining to‘lov tizimlari, chakana to‘lov tizimlarini kiritish mumkin» deya ta’kidlab o‘tishgan [8].

Shu tariqa, xorijiy hamda mahalliy olimlarning fikricha, bank sektorida raqamli texnologiyalar joriy etilishi va ularni budget intizomiga ta’sirini o‘rganish O‘zbekistonning global moliyaviy tizimga integratsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning ilmiy izlanishlari esa bank sektorida raqamli texnologiyalar joriy etishni yanada takomillashtirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot bank sektorida raqamli texnologiyalar (fintech) va raqamli to‘lovlar infratuzilmasini joriy etishning O‘zbekiston budget intizomi va budget mablag‘laridan foydalanish shaffofligiga ta’sirini baholash, shuningdek blockchain texnologiyasi asosida hisob yuritish imkoniyatlarini tahlil qilish jarayonida induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan hamda, fintech va raqamli to‘lovlar tushunchasi, ularning bank tizimidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalarini samarodligini tahlil qilishda bank sektori tashkilotlarining rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank sektorida fintech texnologiyalari, mobil banking, QR-to‘lovlar va agregatorlar faol joriy etildi. Natijada raqamli to‘lovlar hajmi keskin oshib bormoqda. Quyida 2004 yildan boshlab 2021 yilgacha bank-mijoz tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni keltirilgan (1-rasm).

2004-2021 yillarda bank-mijoz tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni¹



Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yillar kesimida bu ko‘rsatkich o‘shib boorish tendensiyasiga ega. Quyida esa 2019-2024 yillarda amalga oshirilgan raqamli to‘lovlar hajmini yanada batafsilroq tahlil qilishimiz mumkin (1-jadval).

¹ Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2019-2024 yillar kesimida amalga oshirilgan raqamli to'lovlar hajmi².

Yillar	Raqamli to'lovlar hajmi	Mobil banking foydalanuvchilari (mln)	QR-to'lovlar ulushi (%)
2019	98 trln so'm	8.1 mln	3%
2020	181 trln so'm	12.4 mln	8%
2021	322 trln so'm	16.7 mln	15%
2022	410 trln so'm	19.2 mln	24%
2023	515 trln so'm	22.5 mln	33%
2024	690 trln so'm	25.4 mln	41%

2019–2024 yillar davomida O'zbekiston bank sektorida raqamli moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanib, raqamli to'lovlar bo'yicha ko'rsatkichlar keskin oshganligi kuzatiladi. Ushbu davr mobaynida raqamli to'lovlar hajmi 98 trln so'mdan 690 trln so'mgacha yetib, qariyb 7 baravar o'sgan. Bu o'sish avvalo to'lovlarni raqamlashtirish siyosati, banklar tomonidan qulay mobil ilovalarning keng joriy etilishi va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kanallarga bo'lgan ishonchi ortib borayotgani bilan izohlanadi. Ayniqsa 2020–2021 yillarda o'sish sur'atlarining yuqori bo'lgani pandemiya sharoitida masofaviy to'lovlarga talab oshgani bilan bevosita bog'liqdir.

Mobil banking foydalanuvchilari soni ham sezilarli darajada ko'payib, 2019 yildagi 8,1 milliondan 2024 yilda 25,4 million nafarga yetgan. Bu 3 baravardan ziyod o'sishni anglatadi. Dastlabki ikki yil davomida mobil bankingda keskin yuksalish kuzatilgan bo'lsa, keyingi yillarda o'sish sur'atlari nisbatan barqarorlashgan va 15–17 foiz oralig'ida davom etgan. Buning o'zi ham aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ortib borayotganini, raqamli moliyaviy inklyuziya kengayganini ko'rsatadi. Mobil bankingdan foydalanish osonligi soliq to'lovlari, kommunal to'lovlar, davlat xizmatlari uchun to'lovlar va boshqa majburiy operatsiyalarning tartibli va izchil amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Bu esa davlat byudjeti tushumlarining maromli va prognoz qilinadigan bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

QR-to'lovlar ulushi esa jadvaldagi eng jadal o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lgan segment hisoblanadi. 2019 yilda ular umumiy to'lovlarning atigi 3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda ushbu ko'rsatkich 41 foizga yetgan. Bu 13 baravarga yaqin o'sish bo'lib, kichik savdo nuqtalari, xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar va onlayn savdo platformalarining bank infratuzilmasiga faol integratsiyalashuvini anglatadi. QR-to'lovlarning keskin o'sishi naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayonining tezlashgani, shuningdek "yashirin to'lovlar" ulushining kamayishiga olib kelayotgani bilan ahamiyatlidir. QR to'lovlar har bir tranzaksiyaning raqamli qayd etilishi, undagi summaning aniq aks ettirilishi va nazorat qilinishi imkonini beradi. Shuning uchun bu jarayon soliq nazorati va tushumlarni yig'ish sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchala ko'rsatkichning parallel ravishda o'sib borayotgani shuni anglatadiki, O'zbekistonda raqamli moliya ekotizimi shakllanib bo'lgan va endi kengayish bosqichiga o'tgan. Raqamli to'lovlar ulushi ortgani sari davlat moliyaviy nazorat organlari uchun real vaqtga yaqin ma'lumotlar oqimi paydo bo'ladi, soliq bazasi rasmiylashadi, naqd pulga bog'liqlik kamayadi va budjet intizomi

² Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

mustahkamlanadi. Raqamli tranzaksiyalarning oshishi korrupsion xavflarni kamaytiradi, chunki har bir to'lovning izlari aniq qayd etiladi va audit uchun qulay bo'ladi.

Umuman olganda, 2019-2024 yillardagi o'zgarishlar O'zbekiston bank sektorida raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilayotganini, fintech infratuzilmasi kengayib borayotganini va uning budjet intizomi hamda davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon davlatning raqamli iqtisodiyot strategiyasi, to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish siyosati hamda banklarning raqamli xizmatlar bo'yicha innovatsion yondashuvlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli to'lovlar o'sishi budjet intizomiga bevosita ta'siri ko'rsatadi. Jumladan, raqamli to'lovlar ko'payishi natijasida budjet daromadlarining yig'im darajasi yaxshilandi, naqd pulsiz to'lovlar soliq bazasini "yashirinishini" oldini oladi, soliq tushumlarining kechikishi kamayadi hamda g'aznachilik tizimida real vaqt monitoringi joriy etiladi. Quyida budjet daromadlari intizomi ko'rsatkichlarini (foizda) tahlil etamiz (2-jadval).

2-jadval.

Budjet daromadlari intizomi ko'rsatkichlari (foizda).

Yil	Yig'im darajasi (%)	Kechikkan to'lovlar ulushi	Soliq bazasi oshishi (%)
2019	83%	18%	2.1%
2020	87%	14%	3.8%
2021	91%	11%	6.5%
2022	94%	8%	7.2%
2023	96%	7%	9.4%
2024	97%	6%	11.3%

2019–2024 yillar davomida soliq va budjet intizomiga oid ko'rsatkichlar sezilarli darajada ijobiy dinamikani namoyon etgan. Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, yig'im darajasi 2019 yildagi 83 foizdan 2024 yilda 97 foizga yetgan bo'lib, bu soliq tushumlarining to'liq va o'z vaqtida undirilishi bo'yicha muhim yutuqlarni ko'rsatadi. Yig'im darajasining bunday izchil o'sishi soliq to'lovchilar intizomining oshgani, raqamli to'lov tizimlari imkoniyatlarining kengaygani, soliq nazorati va ma'murchilik chora-tadbirlarining takomillashgani bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish qulayliklarining keng tarqalishi ham majburiy to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishiga xizmat qilgan.

Kechikkan to'lovlar ulushi esa aksincha keskin pasaygan. 2019 yildagi 18 foiz ko'rsatkich 2024 yilga kelib 6 foizgacha kamaygan. Bu soliq tushumlaridagi barqarorlikni kuchaytirgan, chunki kechikishlarning kamayishi budjet uchun likvidlik xavfini pasaytiradi, tushumlarni prognoz qilishni yengillashtiradi va budjet ijrosini yuqori aniqlikda rejalashtirish imkonini yaratadi. Kechikkan to'lovlarning kamayishi fiskal risklarning pasayganidan dalolat beradi. Bu jarayon soliq organlarining raqamli eslatmalar, avtomatlashtirilgan hisoblash tizimlari, shuningdek to'lovlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradigan texnologiyalar joriy etgani bilan izohlanadi.

Soliq bazasining o'sishi bo'yicha ko'rsatkichlar ham aniq ijobiy tendensiyani aks ettiradi. 2019 yilda soliq bazasi atigi 2,1 foizga oshgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 11,3 foizga yetgan. Soliq bazasi o'sishining bunday sezilarli sur'atda davom etishi iqtisodiyotdagi rasmiy aylanmalar ulushining oshgani, naqd pulsiz va raqamli tranzaksiyalar ko'paygani, yangi faoliyat turlari va

subyektlarning soliq tizimiga jalb etilgani, shuningdek “soya iqtisodiyoti” qisqargani bilan izohlanadi. Raqamli to‘lovlar tizimlarining kengayishi, elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa apparatlari va bank ma’lumotlar bazalari integratsiyasi natijasida ko‘plab iqtisodiy operatsiyalar rasmiy statistikada aks eta boshlagan.

Jadvaldagi uch ko‘rsatkich o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Yig‘im darajasining oshishi va kechikkan to‘lovlar ulushining kamayishi soliq bazasi o‘shiga zamin yaratgan; soliq bazasining kengayishi esa yig‘im darajasi yana ortishini ta‘minlagan. Bu o‘zaro mustahkamlovchi sikl davlat fiskal siyosatining samarali ishlayotganini anglatadi. Raqamli texnologiyalar, fintech yechimlari, mobil banking xizmatlari va QR-to‘lovlarning keng tarqalishi ushbu jarayonlarning asosiy omili bo‘lib xizmat qilgan.

Umuman olganda, 2019–2024 yillar davomida soliq ma‘murchiligi samaradorligi, budjet intizomi va fiskal barqarorlik sezilarli ravishda yaxshilangan. Raqamli moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi natijasida soliq tushumlari nafaqat hajman o‘sgan, balki ularning to‘lov intizomi ham mustahkamlangan. Bu esa davlat budjeti uchun yanada barqaror va izchil moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank sektorida fintech texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli to‘lovlarning ommalashuvi davlat moliyaviy boshqaruvi, budjet intizomi va fiskal shaffoflikka sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. 2019–2024 yillar davomida raqamli to‘lovlar hajmi qariyb yetti baravarga oshgani, mobil banking foydalanuvchilari sonining uch baravarga ko‘paygani hamda QR-to‘lovlar ulushining 3 foizdan 41 foizgacha keskin o‘sgani raqamli moliyaviy ekotizimning ildam kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon soliq tushumlari yig‘im darajasining 83 foizdan 97 foizga yetishiga, kechikkan to‘lovlar ulushining keskin qisqarishiga va soliq bazasining izchil kengayishiga bevosita ta‘sir qilgan.

Raqamli texnologiyalar, xususan real-time payments, mobil va onlayn banking, QR-to‘lovlar va to‘lov agregatorlarining keng joriy qilinishi majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlab, budjet likvidligi barqarorligini mustahkamlamoqda. Soliq tushumlarining barqarorlashuvi esa, o‘z navbatida, davlat xarajatlarini rejalashtirish va ijro etishda aniqlikni oshiradi. Xalqaro tashkilotlar - Jahon banki, IMF, BIS va OECD hisobotlarida qayd etilganidek, raqamli to‘lovlar va fintech yechimlari davlat moliyaviy boshqaruvida shaffoflikni kuchaytiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va soliq ma‘murchiligini samarali qiladi. Ayniqsa blockchain texnologiyasining joriy etilishi tranzaksiyalarni o‘zgarmas qayd etish imkoniyati orqali korrupsion xavflarni kamaytirib, audit izlarini mustahkamlaydi hamda budjet mablag‘larining sarflanishini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida davlat moliya tizimi yanada ochiq, samarali va hisobdor bo‘lib bormoqda. Soliq bazasining o‘shirish sur‘atlari, budjet intizomining yaxshilanishi va naqd pulsiz to‘lovlar ulushining ortishi fiskal boshqaruvda raqamli transformatsiyaning eng muhim natijalari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, fintech ekotizimini chuqur rivojlantirish nafaqat bank sektorining modernizatsiyasi, balki butun fiskal tizimning samaradorligini oshirishning kuchli omili sifatida shakllandi. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Real-time fiskal monitoring tizimini kengaytirish.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ta’kidlaganidek, real vaqt rejimidagi tranzaksiyalar ma’lumotlari budjet intizomini sezilarli kuchaytiradi. Shu sababli soliq, bojxona, g‘aznachilik va bank tizimlarining yagona raqamli monitoring platformasini yaratish zarur.

2. **Raqamli to'lovlarni barcha davlat xizmatlarida majburiy standart sifatida joriy etish.** Yagona to'lov portallari, QR-kod asosidagi to'lovlar va mobil ilova orqali amalga oshiriladigan davlat xizmatlari majburiyati fiskal shaffoflikni sezilarli oshiradi.

3. **Raqamli savodxonlikni oshirish va aholini fintech xizmatlaridan foydalanishga keng jalb etish.** Mobil banking va QR-to'lovlardan foydalanish qulayliklari bo'yicha aholining barcha qatlamlari uchun o'quv dasturlarini tashkil etish soliq to'lovlari intizomini yanada mustahkamlaydi.

4. **To'lov infratuzilmasida xavfsizlik va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish.** Raqamli tranzaksiyalar hajmi ortgani sari kiberxavflar ortib boradi. Shu sababli banklar va davlat organlari tomonidan zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish muhimdir.

5. **Fintech-startaplar va to'lov tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash.** Yangi raqamli xizmatlar va innovatsion to'lov yechimlarini ishlab chiqish uchun fintech kompaniyalariga qulay sharoit yaratish raqamli moliya bozorining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonuni, 01.11.2019 yildagi O'RQ-578-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Elektron to'lov tizimlari xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 26.02.2025 yildagi 117-son.
5. Don Tapscott & Alex Tapscott «Blockchain Revolution» 2018 Updated Edition.
6. Arvind Narayanan «Bitcoin and Cryptocurrency Technologies: A Comprehensive Introduction» July 2016 p. 336.
7. Mirzaev O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Tashkent: «Iqtisodiyot va moliya», 2022. 214 bet.
8. Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O. «Bank ishi». Darslik-T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. -576 b.

Yusupov Asror Maxmanazar o'g'li
"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE
TECHNOLOGY AND SCIENCE" institutining
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası v.b dotsenti
asroryusupov14011992@gmail.com

**QO'SHMA KORXONALARDA MAJBURIYATLAR HISOBINI XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Юсупов Асрор Махманазар угли
и.о. доцента кафедры "Бухгалтерский
учет" института "INTERNATIONAL SCHOOL
OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE"
asroryusupov14011992@gmail.com

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В СОВМЕСТНЫХ
ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ**

**IMPROVING THE ACCOUNTING OF LIABILITIES IN JOINT VENTURES BASED ON
INTERNATIONAL STANDARDS**

Yusupov Asror Makhmanazar ugli –
Acting Associate Professor of the Department of
"Accounting" of the Institute
"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE
TECHNOLOGY AND SCIENCE"
asroryusupov14011992@gmail.com

Annotatsiya: Qo'shma korxonalarda xalqaro standartlar asosida majburiyatlar, ya'ni aniq baholangan, shartli majburiyatlarning bir-biridan o'zaro farqli jihatlari, ularning tan olish va moliyaviy hisobda hamda hisob siyosatida hisobini, qolaversa boshqa ma'lumotlarini tushuntirish bo'limida hisobga olish tartibi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: majburiyatlar, zahira, baholangan majburiyat va shartli majburiyat, kafolat, xizmat ko'rsatish, zarar keltiruvchi shartnomalar, restrukturizatsiya.

Аннотация: В совместных предприятиях раскрыты различия между обязательствами на основе международных стандартов, а именно: между точно оцененными и условными обязательствами, порядок их признания и учета в финансовом учете и учетной политике, а также порядок отражения прочих сведений в пояснительном разделе.

Ключевые слова: обязательства, резерв, оценочное обязательство и условное обязательство, гарантия, оказание услуг, обременительные договоры, реструктуризация.

Annotation: In joint ventures, the procedure for accounting obligations based on international standards is disclosed. This includes specifically assessed and conditional obligations, their differences, recognition, and accounting in financial records and accounting policies. Additionally, other related information is explained in the explanatory section.

Keywords: liabilities, reserves, estimated liability and contingent liability, guarantee, service provision, onerous contracts, restructuring.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz yirik korxonalarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishining zaruriyati yana shu bilan belgilanadiki, dunyo bozorlariga chiqish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirish, dunyo xom-ashyo va valyuta birjalarida o'z o'rnini topish, dunyo banklaridan kredit olish uchun kompaniya va tashkilotlar tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobot tuzishni talab etilishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotini jahon andozalari darajasiga chiqarishning yagona yo'li bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg'or xorijiy tajribalarni, sohaga doir jahon adabiyotlari va hujjatlarini o'rganish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilishdan iboratdir. Mazkur jarayonga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611 sonli [1] qarori qilindi. Qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotda aks ettirilayotgan axborotlarning sifatini oshirish maqsadida uning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg'or usul va uslublardan foydalanish, xalqaro tajribalar va standartlarini hamda MHXSlar talablariga to'liq muvofiq keladigan takomillashgan namunaviy moliyaviy hisobot formatlarini joriy qilish kun tartibida turgan masalalar hisoblanadi. Mana shu o'zgarishlar so'zimiz isboti bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari va yirik soliq to'lovchilar amaliyotiga joriy etilmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari buxgalteriya hisobining asosiy obyektlaridan hisoblangan majburiyatlarga oid axborotlarning shaffofligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan temir yo'l korxonalarining moliyaviy hisobotlarida uzoq muddatli kredit qarzlari yildan yilga oshib kelmoqda.

Ayniqsa qo'shma korxonalarda asosiy vositani sotib olish, bino qurish, xom-ashyoni sotib olish, elektr energiya va ishchi kuchidan foydalanish uchun yirik mablag' sarflanadi. Bu esa xorijiy investorlar va kreditorlardan yirik sarmoyalar kiritilishini talab qiladi.

Buning natijasida qo'shma korxonalar qarz, zaym, kreditlar olib yildan yilga biznes jarayonini va ish faoliyatini tartibga solishga harakat qiladi, bu esa har bir tarmoqda majburiyatlarning oshib ketishiga imkon beradi va bu jarayonlar standart orqali tartibda solinadi.

Ya'ni:

- 32-BHXS "Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish" – moliyaviy instrumentlarni majburiyatlar yoki kapital sifatida taqdim etish hamda moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarni o'zaro hisob-kitob qilish tamoyillarini belgilash, moliyaviy instrumentlarni emitent nuqtayi nazaridan moliyaviy aktivlarga, moliyaviy majburiyatlarga va ulushli instrumentlarga tasniflash, tegishli foiz, dividendlar, foyda va zararlarni tasniflash hamda moliyaviy aktivlar bilan moliyaviy majburiyatlar o'zaro hisob-kitob qilinishi kerak bo'lgan holatlarga nisbatan qo'llaniladi;

- 37-BHXS "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar"ga, nisbatan to'g'ri tan olish mezonlari va baholash asoslari qo'llanilishini hamda foydalanuvchilar ushbu zaxiralar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlarning mohiyatini, vaqtini va summasini tushunishi uchun moliyaviy hisobotlarga izohlarda yetarlicha ma'lumotlar ochib berishda qo'llaniladi, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar nomli xalqaro standartlarga ko'ra majburiyatlar hisobda tan olinadi.

Shu sababli majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va o'z vaqtida hisobot moddalarida aks ettirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi:

Normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda majburiyatlarning mohiyatini ochib berishga oid ko'plab qarashlar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 234-moddasida "Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi" [2] deb ta'riflanadi. MHXSlarida "Majburiyat – bu o'tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligidir, qaysiki uning uzilishi iqtisodiy nafni o'zida mujassamlantirgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi" deb ta'rif berilgan. Xalqaro standartlarda shartnoma bo'yicha majburiyatlar, qaysiki teng proporsional darajada bajarilmagan (masalan, buyurtma berilgan, lekin hali olinmagan zahiralari bo'yicha) majburiyatlar qoidaga ko'ra moliyaviy hisobotda majburiyat sifatida tan olinmasligi qayd qilingan [3]. Shu bois, milliy standartda ko'rsatilgan holatda, ya'ni buxgalteriya majburiyatlari xo'jalik subyekti bitimga kirishganda ham vujudga kelishi hamma hollarda ham uyg'un emas, deb o'ylaymiz. Iqtisodchi olim A.N.Azriliyan tahriridagi buxgalteriya hisobiga oid lug'atda "Majburiyat kreditorlik qarzini bildiradi. U huquqiy tomondan – shartnoma asosida rasmiylashtirilgan fuqarolik-huquqiy munosabatlardir. Iqtisodiy tomondan – ma'lum sanada kelajakda to'lanishi zarur bo'lgan pul mablag'lari summasidir. Aksariyat majburiyatlarning to'lov hajmi va sanasi ma'lum" [4] degan fikrlar keltirib o'tilgan. Xorijlik iqtisodchi olimlar O.Podolianchuk, N.Plaxti va N.Gudzenko ta'kidlashicha, "to'lovlar holati, qarzni o'z vaqtida to'lash, majburiyatlarni bajarishning to'liqligi va sifati korxonaning ishbilarmonlik obro'sini, moliyaviy barqarorlikni tavsiflaydi. Shuning uchun kompaniyaning majburiyatlari bor yoki yo'qligi emas, balki uni samarali boshqarishni qanday amalga oshirish kerakligi muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda, boshqaruv tizimi uchun majburiyatlarni to'g'ri tasniflash, ularni baholash muhim ahamiyatga ega" [5]. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.Xoshimovning fikricha, "Subyektning majburiyatlari – bu oldingi amalga oshirilgan muomalalar natijasi yoki kelajakda o'zida mujassamlangan iqtisodiy nafning chiqib ketishi yoki yangi majburiyatlarning vujudga kelishi bilan yakunlanadi" [6]. D.I.Shaulov va U.T.Kanlar fikricha, "Majburiyatlar - hisobot yili yoki undan oldingi davrlarda yuzaga kelgan, uni so'ndirish iqtisodiy nafni kamaytirishga olib kelishi haqidagi ishonch mavjud bo'lgan kreditorlik qarzi yoki boshqa xil qarzdir" [7]. S.Maxmudovning fikricha, "Majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo'lgan qarzdorligini ko'rsatuvchi, ularning so'ndirilishi esa, qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergan xo'jalik muomalalarining natijasidir" [8]. A.J.Tuychiyevning fikricha, "Majburiyatlar deyilganda xo'jalik yurituvchi bir subyektning boshqa subyektga mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va boshqa harakat natijasida yuzaga keladigan hamda keyingi o'zaro hisoblashishlarga asos bo'luvchi huquqiy munosabatlar tushuniladi" [9]. F.Sh.Ochilov ta'kidlashicha, "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyat deganda, eng avvalo, sodir bo'lgan turli hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan fuqarolik huquqiy munosabatini baholash va ushbu majburiyatni bajarishda o'zidagi iqtisodiy resurslarning chiqib ketishi tushuniladi"[10]. Yuqorida keltirib o'tilgan ta'riflarda turlicha yondashuvlar mavjud. Biroq moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash sharoitida majburiyatlarning mohiyati to'liq ochib berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada analiz va sintez, guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, monografiya, kuzatish va boshqa tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Natija va muhokama. Qo'shma korxonalarda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning birinchi bo'limi aktiv, ikkinchi bo'limi esa kapital va majburiyatlardan iborat.

Shundan kelib chiqqan holda majburiyatlar 3ga bo'linadi.

1. Aniq majburiyatlar;
2. Baholangan majburiyat;
3. Shartli majburiyatlar.

Birinchi navbatda, zahiralar tushunchasiga to'xtalib o'tamiz:

1. Zahiralar - bu tovar moddiy zahira;
2. Zahiralar - bu shubhali qarzlilar bo'yicha baholangan zahira;
3. Zahiralar - bu kapitaldagi zahira kapitali (asosiy vositalarni qayta baholash zahirasi)
4. Zahiralar - bu majburiyatlardagi baholangan majburiyat.

Shu sababli, ushbu atamalarni almashtirib yubormaslik uchun majburiyatlar qismidagi zahiralar baholangan majburiyat deb hisobga olish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda majburiyatlar turkumlanishi quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz.

1-jadval.

Qo'shma korxonalarda MHXS asosida majburiyatlarning turkumlanishi

Ko'rsatkichlar	Aniq majburiyatlar	Baholangan majburiyatlar	Shartli majburiyatlar
Ta'rif	Korxonaning o'tgan hodisalar natijasida iqtisodiy resursni o'tkazish bo'yicha mavjud javobgarlikdir.	Uning so'ndirish vaqti va summasi noaniq bo'lgan majburiyatdir	Uning so'ndirish vaqti va summasi noaniq bo'lgan majburiyatdir
Tan olish mezonlari	Baholangan majburiyatlarni baholash chog'ida hisobga olinishi zarur bo'lgan omillar. -pullarning vaqtinchalik • diskontlash - kelajakda kutilayotgan hodisalar • qonun hujjatlari, texnologiyalardagi o'zgarishlar. -haqqoniy taqdim etish majburiyatni kamaytirmaslik, biroq xarajatlarni ham oshirib ko'rsatmaslik. Agar majburiyatlar summasini ishonchli baholash imkoniyati bo'lmasa, korxonada shartli majburiyatni izohlarda ochib berishi lozim.	Kutilayotgan qiymatni hisoblash. Ushbu usul katta jamlanmadagi majburiyatlarni, masalan, kafolatlar bo'yicha baholangan majburiyatlar kattaligini baholashda qo'laniladi. Eng ehtimoliy natijadan foydalanish Bitta majburiyat baholanganda qo'llanilishi mumkin.	Kutilayotgan qiymatni hisoblash. Ushbu usul katta jamlanmadagi majburiyatlarni, masalan, kafolatlar bo'yicha baholangan majburiyatlar kattaligini baholashda qo'laniladi. Eng ehtimoliy natijadan foydalanish Bitta majburiyat baholanganda qo'llanilishi mumkin.
Baholash usullari	Uzoq muddatli majburiyatlar, joriy majburiyatlar	-kutilayotgan qiymatni hisoblash -eng ehtimoliy natijadan foydalanish	-kutilayotgan qiymatni hisoblash -eng ehtimoliy natijadan foydalanish
Hisobda aks ettirish	Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda muddati bo'yicha uzoq yoki joriy majburiyat bo'limi	Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda muddati bo'yicha uzoq yoki joriy majburiyat bo'limi	Moliyaviy hisobotning tushuntirish qismida

Yuqoridagi jadval natijalaridan aniq majburiyatlar, baholangan majburiyatlar, va shartli majburiyatlarning farqli jihatlari hamda hisobda aks ettirishni ifodalashga xizmat qiladi.

Majburiyatlar o'tgan hodisalar natijasida ro'y berib, quyidagilarni yuzaga kelishiga olib keladi.

2-jadval

Qo'shma korxonalarda baholangan majburiyatlarning yuzaga kelishi bo'yicha turlari

Farqlanishi	Yuridik majburiyatlar	Haqiqatdagi (Konklyudent) majburiyatlar
Ta'rifi bo'yicha	Yuridik majburiyat-bu shartnomadan, qonun hujjatlaridan yoki qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotidan kelib chiqadigan majburiyat (masalan, sudning hal qiluvchi qaroridan).	Konklyudent(haqiqatdagi, konstruktiv, an'anaviy) majburiyat –bu faoliyatning o'rnatilgan amaliyoti bilan izohlanadigan majburiyatdir.
Faoliyatiga ko'ra	Sudning hal qiluvchi qaroriga ko'ra kafolatli ta'mirlar xarajatlarning optimal baholanishi.	Ekologik muomalar natijasida, tabiiy boyliklarni qazib olish chog'ida yerni tekislash xarajatlari, ijaraga olingan mulk bo'yicha qilingan xarajatlar va hakoza.

Yuqoridagi jadvaldan baholangan majburiyatlarni yuridik yoki haqiqatda majburiyatlardan farqli jihatlarni o'z ifodasini topgan.

Agar majburiyatlar summasini ishonchli baholash imkoniyati bo'lmasa, korxonada shartli majburiyatni moliyaviy hisobotning tushuntirish va izohlarda ochib beriladi.

Baholangan majburiyatlarni hisobda aks ettirish uchun quyidagi jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiq.

3- jadval

Qo'shma korxonalarda baholangan majburiyatlarni hisobga olish mezonlari

Oqim	% da	Kirim	Chiqim
Kafolat	100%	Aktiv tan olinadi	Majburiyat tan olinadi
Eng yuqori	50-99%	Tushuntirish qismida	Majburiyat tan olinadi
O'rtacha	20-50%	Aks etirilmaydi	Tushuntirish qismida
Eng kam	0-20%	Aks etirilmaydi	Aks etirilmaydi

Yuqoridagi jadval asosida baholangan majburiyatni tan olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Baholangan majburiyatlarning tan olish mezonlari va shartlari.

- o‘tmishdagi muayyan hodisa oqibatida kompaniyaning majburiyati mavjud.
- yuqori ehtimollik bilan tasdiqlash mumkinki, ushbu majburiyatning bajarilishi o‘zida iqtisodiy naflarni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishiga olib keladi.
- Ushbu majburiyat yetarli darajadagi (50 % dan yuqori) ishonchlilik bilan pul ifodasida baholanishi mumkin.

Agar ushbu shartlarning hech bo‘lmaganda birontasi bajarilmasa, majburiyat shartli deb qaraladi va balansda tan olinadi.

Masalan, Qo‘shma korxonalar mijozlari tomonidan sifatsiz xizmatini ko‘rsatish natijasida 2 000 000 so‘mlik da‘vo ishi bo‘yicha sud jarayonni amalga oshiriladi.

Bunga temir yo‘l korxonasi sifatsiz xizmat ko‘rsatgani uchun 2 000 000 so‘mni baholangan majburiyat sifatida aks etiradi. Bunga kafolat 100% bo‘lganligi sababli, 3-jadvalga ko‘ra, kafolat va chiqim majburiyatlarni kesishmasiga ko‘ra majburiyat tan olinadi va hisobda quyidagicha o‘tkazma beriladi.

D^t Ma‘muriy xarajatlar – 2 000 000 so‘m

K^t Sud da‘vosi bo‘yicha baholangan majburiyat - 2 000 000 so‘m.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalar moliyaviy hisobotida majburiyalar (uzoq va joriy), baholangan majburiyalar (uzoq va joriy), shartli majburiyalar esa moliyaviy hisobotning tushuntirish qismida ochib beriladi.

Xulosa.

1. Baholangan majburiyat deganda – uning so‘ndirilishi vaqti va summasi noaniq bo‘lgan majburiyatlar tushuniladi.
2. Majburiyatlar turkumlanishiga ko‘ra, aniq majburiyatlar, baholangan majburiyatlar shartli majburiyatlar sifatida hisobga olish maqsadga muvofiq.
3. Aniq majburiyatlar moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning uzoq va joriy qismida aks ettirilishi hamda tarkibiga kreditorlarning qarzlari, sho‘ba korxonalarga qarzlar, muddati kechiktirilgan soliq qarzlar, olingan avanslar, soliq qarzlari maqsadli qarzlar, to‘lanadigan dividendlar, ish haqi, kredit va qarzlar, hamda boshqa majburiyatlarni o‘z ichiga oladi.
4. Majburiyatlar moliyaviy hisobotda quyidagicha aks ettiriladi: Aniq majburiyatlar- Uzoq va joriy majburiyatlar bo‘limida hisobga olinadi. Baholangan majburiyatlarni baholash chog‘ida hisobga olinishi zarur bo‘lgan omillar.

- pullarning vaqtinchalik diskontlash
- kelajakda kutilayotgan hodisalar
- qonun hujjatlari, texnologiyalardagi o‘zgarishlar.
- haqqoniy taqdim etish
- majburiyatni kamaytirmaslik, biroq xarajatlarni ham oshirib ko‘rsatmaslik.

Agar majburiyatlar summasini ishonchli baholash imkoniyati bo‘lmasa, korxonalar shartli majburiyatni moliyaviy hisobotning izohlarda ochib berishi lozim.

5. “Majburiyat” so‘zining lug‘aviy ma‘nosining zamonaviy xalqaro talablarga mos va haqiqatga yaqin talqinini berish maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra, fikrimizcha, “Majburiyat” so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga ta‘rif berilganda huquqiy va iqtisodiy tomondan yondashish maqsadga muvofiqdir, birinchidan, huquqiy jihatdan olinganda majburiyat jismoniy yoki yuridik shaxslar o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida paydo bo‘ladigan, bajarilishi shart bo‘lgan qarz yoki huquqiy munosabatdir, ikkinchidan, iqtisodiy jihatdan olganda tomonlar iqtisodiy naf yoki foyda olishga intilishlari natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy jarayon, deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirishda baholanadigan majburiyatlarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mamlakatimiz amaliyotida baholanadigan majburiyatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish talablarini o'z ichiga qamrab oladigan milliy standart mavjud emas. Shu boisdan buxgalteriya hisobining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida baholangan majburiyatlarni hisobga olish uchun alohida milliy standartni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida to'g'ri aks ettirish natijasida kreditorlar va qarz beruvchilar uchun yanada ishonchli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati oshishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. www.lex.uz/docs/111189.
3. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti. Minfin.ru/ru/performance/accounting/mej_standard_fo/docs\09.02.2016
4. Bolshoy buxgalterskiy slovar. / Pod red. A.N. Azrilyana. –M.: Institut novoy ekonomiki, 1999. - 574 s.
5. Olena Podolianshchuk, Tetiana Plakhtii, Nataliya Gudzenko. Current liabilities and their accounting in the attracted capital management system. //Baltic Journal of Economic Studies 5(3):159, August 2019.
6. Xoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2004. -320 b.
7. Shaulov D.I., Kan U.T. Korxonalarda buxgalteriya hisobi. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2001, 344-bet.
8. Maxmudov S. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt.fan.nom. dis. ...avtoref. – T., 2006. -22 b.
9. Tuychiyev A.J. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari. i.f.d., dis. – T., 2011. - 29 b.
10. Ochilov F.Sh. Majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2020. -56 b.
11. D.E.Norbekov, A.N.To'rayev, Sh.Sh.Raxmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019. -332 b.

Internet saytlari:

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

www.ziyonet.uz – ta'lim portali

<https://www.ifrs.com>

<http://xarid.mf.uz/>

<https://railway.uz/ru/> saytlari.

Jurayeva Hamida Bozor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ,
Raqamli iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti
jurayevahamida@gmail.com

**ZAMONAVIY TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI
VA IMKONIYATLARI**

Джураева Хамида Базар кизи

Ташкентский государственный
экономический университет,
магистрантка 2 курса направления
«Цифровая экономика»
jurayevahamida@gmail.com

**ЗНАЧЕНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОЙ
СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

Jurayeva Hamida Bozor qizi

Tashkent State University of Economics,
2 nd year Master's student in Digital Economy
jurayevahamida@gmail.com

**THE IMPORTANCE AND OPPORTUNITIES OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN
MODERN EDUCATION**

Annotatsiya

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'limga yangicha yondashuvlarni olib kirib, interaktiv vositalar, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va moslashtirilgan o'quv platformalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonlarini shaxsiylashtirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va pedagogik metodlarni innovatsion usullar bilan boyitish imkonini beradi. Shu bois, ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va ilg'or tajribalarni keng joriy qilish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

Tayanch so'zlar

Raqamli texnologiyalar, Ta'lim tizimi, Raqamli transformatsiya, Innovatsion ta'lim, Sun'iy intellekt, Ma'lumotlar tahlili, Moslashtirilgan ta'lim, Interaktiv vositalar, Ilmiy izlanishlar, Pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация

В современном мире цифровые технологии становятся важным фактором модернизации системы образования и повышения ее эффективности. Процессы цифровой трансформации вносят новые подходы в сферу образования, способствуя использованию интерактивных инструментов, искусственного интеллекта, анализа данных и персонализированных образовательных платформ. Эти технологии позволяют

индивидуализировать учебный процесс, расширять возможности получения знаний и обогащать педагогические методы инновационными решениями. Поэтому развитие научных исследований и широкое внедрение передового опыта в области цифровых технологий в образовании становятся приоритетными направлениями современной образовательной системы.

Ключевые слова

Цифровые технологии, Система образования, Цифровая трансформация, Инновационное образование, Искусственный интеллект, Анализ данных, Персонализированное обучение, Интерактивные инструменты, Научные исследования, Педагогические инновации.

Abstract

In today's world, digital technologies are becoming a key factor in modernizing the education system and increasing its efficiency. The processes of digital transformation introduce new approaches to education, promoting the effective use of interactive tools, artificial intelligence, data analytics, and personalized learning platforms. These technologies enable the customization of the learning process, expand access to knowledge, and enhance pedagogical methods with innovative solutions. Therefore, advancing scientific research and widely implementing best practices in digital education are becoming priority areas in the modern educational system.

Keywords

Digital technologies, Education system, Digital transformation, Innovative education, Artificial intelligence, Data analysis, Personalized learning, Interactive tools, Scientific research, Pedagogical innovations.

KIRISH.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonlarini yanada samarali va innovatsion qilish, dunyo bo'ylab ta'lim sohasining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda texnologiyalarning tez rivojlanishi o'quv jarayonlarini yangi, innovatsion yondashuvlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida individual yondashuvlarni joriy etish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, o'quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish va baholashga katta yordam berishi mumkin. Xususan, sun'iy intellekt, Big data va ta'lim analitikasi kabi ilg'or texnologiyalar o'quvchilarning bilim darajasini baholash, zaif tomonlarini aniqlash hamda moslashtirilgan ta'lim rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu texnologiyalar nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish va baholashda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari" PK-4699-son (13) qarorida ta'limda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni jadallashtirish, raqamli transformatsiya orqali o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish muhimligi ta'kidlangan. 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" (14) strategiyasida esa ta'lim sohasini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va texnologik infratuzilmani takomillashtirish masalalari alohida e'tibor qaratilgan. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni ta'lim sohasiga joriy etish nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etish, balki global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli, ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni, afzalliklari va istiqbollari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini samarali va interaktiv ravishda boshqarish imkonini beradi. Mirahmedova Shoxida ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi (1). Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'рни va rollari, ta'limni yanada innovatsion shakllarga o'zgartirishga xizmat qiladi (4). Israilova F.A. ta'kidlashicha, ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat dars materiallarini taqdim etishda, balki o'quvchilarning faolligini oshirishda ham muhimdir (2).

Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'limda individual yondashuvlarni yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, Qurbanov B.B. o'z tadqiqotida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ta'limda o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qilishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi (6). Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va kamchiliklari haqida tadqiqotlar mavjud. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnalida keltirilgan tahlillarga ko'ra, raqamli texnologiyalarning ta'limga joriy etilishi o'quvchilarning bilim olish darajasini oshirishga yordam beradi, lekin bu jarayon o'qituvchilarning malakasiga bo'lgan talabni oshiradi (5).

T. Ismoilov raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidladi. U o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning bilim olish jarayonini soddalashtirish uchun raqamli vositalardan foydalanishni muhim deb biladi (11). Nurmatov Sh esa, raqamli texnologiyalar yordamida ta'limda sifatni oshirishning ahamiyatiga e'tibor qaratgan (10). J. Oripov va O. To'xtayev innovatsion yondashuvlarni ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblashadi (12). Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi ahamiyati va imkoniyatlari yaqqol ko'rinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda va kelajakda yangi imkoniyatlarni yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.


TAQQIQOT METODOLOGIYASI.

Zamonaviy ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash va ularning imkoniyatlarini o'rganish uchun ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqotlar, dinamik o'zgarishlarni kuzatish, ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash kabi usullar qo'llaniladi. Ushbu metodlar yordamida raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kiritilishi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar to'liq tahlil qilinib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlar aniqlanadi. Shuningdek, turli mamlakatlarning tajribalarini taqqoslash orqali raqamli ta'limning afzalliklari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Zamonaviy ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jahon tajribasida olib borilgan tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini yaxshilashda katta imkoniyatlar yaratgani aniqlandi. Interaktiv ta'lim resurslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar esa oliy ta'lim muassasalarida virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining joriy etilishi talabalar bilimini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi (Silva va boshqalar, 2025)(16). Xususan, gamifikatsiya va AR texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan blended learning tizimlari o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning o'quv jarayoniga qiziqishini kuchaytirganligi aniqlandi (Sonjaya & Saepullah, 2025)(17). Kiberxavfsizlik bo'yicha ta'lim dasturlarida AR va interaktiv o'yinli texnologiyalarni qo'llash kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha

tushunchalarni kengaytirishga xizmat qilishi kuzatildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, virtual muhitda kiberxavfsizlik bo'yicha real vaziyatlarga asoslangan interaktiv o'yinlar o'quvchilarning ushbu sohadagi bilimlarini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi (Pitchay va boshqalar, 2025)(18).



1-rasm. Raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'siri

Grafikdan ko'rinib turibdiki (1-rasm) raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirdi. Masalan, 2019-2023-yillar davomida onlayn platformalar va masofaviy ta'lim tizimlari ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, millionlab o'quvchilar uchun ochiq va qulay ta'lim muhitini yaratdi. Coursera, edX va Khan Academy kabi platformalar yordamida 2023-yilda 200 milliondan ortiq kishi onlayn ta'lim olgan bo'lsa, pandemiya davrida 1.6 milliard o'quvchi masofaviy ta'limga murojaat qilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt va LMS tizimlari (Google Classroom, Moodle) yordamida o'quv jarayoni shaxsiylashtirildi. AI asosida moslashtirilgan ta'lim natijasida o'quvchilarning tushunish darajasi 30% ga oshdi, gamifikatsiya (Kahoot, Quizizz) orqali esa ishtirok 60% ga ortdi.

Masofaviy ta'limni qulaylashtirishda Zoom va Google Meet kabi vositalar muhim rol o'ynadi. 2020-yildan boshlab Zoom foydalanuvchilari 30 barobar oshgan. Bulutli texnologiyalar esa ta'lim muassasalarida hujjat aylanishi samaradorligini 40% ga oshirdi. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish natijasida elektron reyting tizimlari (Kundalik, Edupage) orqali hujjatlar bilan ishlash 60% ga tezlashdi. AI yordamida avtomatlashtirilgan baholash tizimlari esa 90% aniqlik bilan natijalarni tahlil qilmoqda. Bularning barchasi ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarga individual yondashuvni rivojlantirishga olib keldi. IoT va aqlli sinfxonalar orqali o'quvchilarning baholari 20% ga yaxshilangan, shuningdek, moslashtirilgan o'quv materiallari orqali ularning darsga qiziqishi 50% ga oshgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga integratsiyalashuvi o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga oluvchi innovatsion tizimlarni yaratish, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va o'qituvchilarning samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Onlayn platformalar, sun'iy intellekt asosidagi moslashtirilgan o'qitish tizimlari va raqamli baholash usullari ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng miqyosda joriy etish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Jumladan, zamonaviy texnologik infratuzilmani shakllantirish, raqamli ta'lim platformalarining kengayishini ta'minlash va o'qituvchilarning yangi texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirish kabi muammolar yechimini talab qiladi. Shu bilan birga, texnologiyalarni

ta'lim tizimiga moslashtirish va ulardan samarali foydalanish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, raqamli texnologiyalar ta'lim sohasining ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir davrda, ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun tizimli yondashuv zarur. Ta'limning raqamlashtirilishi nafaqat o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtirokini oshirish, balki o'qituvchilarning o'qitish uslublarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Natijada, ta'lim jarayoni yanada samarali, moslashuvchan va innovatsion bo'lib, kelajak avlodga ilg'or bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini yaratadi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali qilgan holda, ta'lim oluvchilarga ko'proq imkoniyatlar yaratdi va kelajakdagi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi.

XULOSA.

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sohasini takomillashtirishning bir qator afzalliklari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallab, ta'lim sifatini oshirish, uni shaxsiylashtirish va avtomatlashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, onlayn platformalar va raqamli ta'lim tizimlari orqali o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan, masofaviy ta'lim va elektron o'quv materiallari bilim olish jarayonini yanada qulay va moslashuvchan qiladi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar o'qituvchilarning yukini kamaytirib, ta'lim jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradi. Elektron baholash tizimlari, LMS platformalari va sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalar natijalarni tez va aniq baholash imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilib, o'quvchilarning bilim olish darajasini yaxshilashga ko'maklashadi. Masalan, interaktiv darslar va gamifikatsiya usullari o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini 50% ga oshirish imkonini bergan. Shu bilan birga, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi kelajakda ta'lim samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi mumkin. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va uning ta'lim tizimiga integratsiyasi ta'limning zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligini oshirib, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu jarayonlar o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish, shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Umuman olganda, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar o'quvchilarga individual yondashuv yaratish, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va uni yanada samarali qilishda muhim rol o'ynamoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim tizimining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligini oshirib, kelajakda innovatsion va interaktiv ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nusratilloevna. "Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish." Miraxmedova Shoxida
2. "Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish." Israilova F.A. ResearchGate.
3. "Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari." Herald of Kokand University.
4. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va rollari." CyberLeninka.
5. "Ta'lim jarayonini raqamlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari." Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal.
6. "Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati." Qurbanov B.B. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal.
7. "Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va kamchiliklari." ResearchGate.
8. "Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish" – A. Qodirov
9. "Raqamli axborot texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishining dolzarb jihatlari va ahamiyati" – I. Karimov
10. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati" – Sh. Nurmatov
11. "Raqamli Texnologiyalar va Ta'limda O'zgarishlar" – T. Ismoilov
12. "Ta'limda Raqamli Texnologiyalar: Innovatsion Yondashuvlar" – J.Oripov, O.To'xtayev
13. <https://lex.uz/docs/-4800657>
14. <https://lex.uz/acts/-5458249>
15. <https://lex.uz/acts/-5085887>
16. Silva, V.F.N., Arias, E.A.B., Polo, S.M.Z. (2025). Evolution of Interactive Educational Resources in Digital Higher Education. Journal of Lifestyle Education.
17. Sonjaya, I., Saepullah, S. (2025). Enhancing Blended Learning Through Augmented Reality and Gamified Strategies in Modern Teaching. The Journal of Academic Science.
18. Pitchay, S.A., Azni, A.H., Ridzuan, F. (2025). SWINDLERT©: Development of Augmented Reality Game-Based Interactivity for Enhancing Cybercrime Awareness. Journal of Computing Research.

Xujaboyeva Yulduz Davronqul qizi
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi,
Guliston davlat universitet
Y3251650@gmail.com

**MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING ASOSIY
OMILLARI**

Хужабоева Юлдуз Давронкул кизи
Кафедра “Экономика” преподаватель,
Гулистанского государственного университета
Y3251650@gmail.com

**ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ**

Xujaboyeva Yulduz Davronqul kizi
Lecturer, Department of Economics,
Gulistan State University
Y3251650@gmail.com

MAIN FACTORS FOR ENSURING THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY

Annotatsiya. *Iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda milliy iqtisodiyotning makrodarajadagi barqarorligi asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqolada makroiqtisodiy barqarorlikning nazariy jihatlari, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘llari, iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda hududiy o‘shishni ahamiyati, iqtisodiy o‘shishni ta’minlash masalalari ochib berishga harakat qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *hududiy o‘shish, iqtisodiy muvozanatlik, iqtisodiy o‘shish, iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish unumdorligi, iqtisodiy o‘shish turlari,*

Аннотация. *В обеспечение экономического роста основным фактором является макроэкономическая стабильность национальной экономики. В данной статье основное внимание уделено на раскрытые теоретические аспекты макроэкономической стабильности пути достижения макроэкономической стабильности, решения проблемы обеспечения экономического роста.*

Ключевые слова: *экономические равновесия, экономический рост, экономическая стабильность, производственная производительность, виды экономического роста.*

Abstract. *Macroeconomic stability is the main factor of ensuring economic growth. Theoretical aspects of macroeconomic stability, problems of ensuring economic growth, ways of reaching macroeconomic stability are discussed in the given article.*

Keywords: *Economic equilibrium, economic growth, economic stability, efficiency of production, types of economic growth.*

Kirish

Iqtisodiy o‘shish iqtisodiyot erkinlashuvining chuqurlashuvi va miqyosi kengayishi, valyuta bozorining barqarorlashuvi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal sur‘atlarda rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida iqtisodiyot sohasida yuz bergan tub o‘zgarishlar asosida keyingi bosqichning strategik maqsadlari va yo‘nalishlari: iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va shu negizda iqtisodiy barqaror o‘shishni ta‘minlab, bozor munosabatlarini to‘liq joriy etish belgilab olindi.

Iqtisodiy o‘shishni iqtisodiyot erkinlashuvining chuqurlashuvi va miqyosi kengayishi, valyuta bozorining barqarorlashuvi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal sur‘atlarda rivojlanishini ta‘minladi.

Keyingi yillarda xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli tovarlar ulushining ortishiga qaratilgan tarkibiy siyosatni amalga oshirish natijasida mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining pasayishi va sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalarining ulushi ortishi kuzatilmoqda.

Bu esa bank tizimining mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shish sur‘atlarini saqlash va milliy ustuvor tarmoqlar raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashdagi o‘rnini kengaytirishga xizmat qildi. Ushbu vazifalar doirasida bank tizimi nazoratini Bazil qo‘mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, bank tizimi va alohida banklarning yuqori xalqaro reyting baholariga ega bo‘lishini ta‘minlash, tijorat banklarining resurs bazasini yanada kengaytirish, ularning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, tarmoqlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladigan kreditlar hajmini ko‘paytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Iqtisodiy o‘shish muayyan qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi. Ba‘zan uni harakatlantiruvchi kuch siklik ahamiyat kasb etsa, boshqa paytlarda ekstensiv va intensiv omillarga bog‘liq bo‘ladi. Shubhasiz, davlatning siyosati iqtisodiy jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatishi yoki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy institutlarga ta‘sir etishi orqali bilvosita ta‘sirga egadir. Iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarda sodir bo‘lishi yoki sustlashuvi ayrim hollarda siklik hususiyatga emas, balki aynan davlat siyosatining amalga oshirilishi bilan bog‘liqligi kuzatiladi.

Odatda, yuqori sur‘atdagi iqtisodiy o‘shish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilayotgan davriga to‘g‘ri keladi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan **innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz**. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun

jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz"¹.

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibining ahamiyati iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda, ularning samaradorligini oshirishda va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda ko'rinadi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mamlakatlar rivojlanishining xususiyatlariga bog'liq holda o'zgarib boradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashdagi muhim omillardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarni baholashda iqtisodiyot tarkibiga asosan tarmoq, takror ishlab chiqarish, mintaqaviy va tashqi savdo jihatidan qaraladi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar tarmoq jihatdan qaralganda, asosiy uch tarmoq: sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar ko'rsatish sohasining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi yoki ushbu tarmoqlarda band bo'lgan aholi soniga qarab aniqlanadi. Mamlakat iqtisodiy o'sishining dastlabki bosqichlarida mazkur uch tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi jihatidan qishloq xo'jaligi ustunlik qilsa, iqtisodiy o'sishning keyingi bosqichlarida sanoat va yuqori iqtisodiy o'sish pallasida esa xizmatlar ko'rsatish sohasining yetakchilik qilishi kuzatiladi.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o'rtacha 6 million so'mga yetdi. Xususan, iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – 38,1 foizni tashkil etib, aholi jon boshiga o'rtacha 2,3 million so'mga to'g'ri keldi. Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 34,9 foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida faollashgani tufayli ularda ishlab chiqarish hajmini oshganligini ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga sanoat bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi ham sezilarli hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 59 327,1 milliard so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 58 91 milliard so'mni, o'rmon xo'jaligi – 100,5 milliard so'mni, baliq xo'jaligi – 238,5 milliard so'mni tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,9 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,9 foizi – fermer xo'jaliklariga, 2,2 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2023 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 6 124,1 ming tonna (90,8 foiz) don ishlab chiqarildi, 2 410,7 ming tonna kartoshka yetishtirildi, 8 661,4 ming tonna sabzavot, 1 607,2 ming tonna poliz, 2 090,0 ming tonna meva va rezavorlar, 1 313,6 ming tonna uzum yig'ib olindi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chor-vachilik mahsulotlarining ulushi 42,7 foizni tashkil etdi. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha turdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.press-service.uz/ru/lists/view/>

xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 1 788,8 ming tonna go'sht, 7 830,1 ming tonna sut, 5 368,2 million dona tuxum, 30,2 ming tonna jun ishlab chiqarildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoatning qazilma tarmoqlariga nisbatan qayta ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari ko'proq iqtisodiy naf keltiradi, u ichki bozorga mo'ljallangan. Lekin shuni aytish kerakki, ichki bozorning sotib olish qobiliyati har doim ham yetarli darajada emas, shuning uchun tayyor sanoat mahsulotlarini keng eksport qilishning zarurati tug'iladi. Shuningdek, iqtisodiyotda mahalliy tabiiy resurslardan foydalanayotgan xom ashyo tarmoqlari ham yangi texnologiyalar asosida rivojlanishi zarur. Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy siljishlar sanoat tarmoqlarining sifat jihatdan siljishi, ko'p resurs foydalanishdan resurslarni tejash texnologiyasiga o'tishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Rus iqtisodchi olimi S.D. Alekseyevichning fikricha, iqtisodiyot tarkibi uzoq muddatli davrda mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. U miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiyot tarkibi mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligi va havfsizligini tavsiflaydi. Shuning uchun iqtisodiyotda miqdoriy va sifat jihatdan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. (6)

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va uning tashqi hamda ichki o'zgarishlarga moslashishi zaruriyatini aniqlovchi ishlab chiqarish kuchlarining katta miqdordagi tarkibiy o'zgarishlarini ifodalaydi. Bunda muhim maqsad: ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, jumladan, korxonalarining samarasiz bo'g'inlarini yo'q qilish yoki qo'shib yuborish, jismonan va ma'nan eskirgan asosiy vositalarni almashtirish, texnik yangiliklarni kiritish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishdir. Bularning bari tarmoqlararo, hududiy, texnologik, institutsional va ishlab chiqarishning boshqa muhim tarkibiy siljishlariga olib keladi.

Iqtisodchi olim A.A. Kushnarevning fikricha, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni, jahon va milliy bozorlarda raqobatbardoshlikni kamaytiruvchi yoki oshiruvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sektorlari, hududlar, korxonalar turlari, texnologik ukladlar va iqtisodiy tizimning boshqa elementlari o'rtasidagi o'zaro nisbatlarning mavjud o'zgarishi hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori darajada saqlanishi va barqaror saqlanishining asosiy omillari bo'lib, eksport salohiyatining yuqori sur'atlarda oshishi hamda iqtisodiyotda keng ko'lamdagi investitsiyalarning amalga oshirilishi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Iqtisodiy o'sish iqtisodiyot erkinlashuvining chuqurlashuvi va miqyosi kengayishi tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan mazkur maqola materiallarini tartiblash va tizimlashtirish maqsadida ilmiy bilishning mantiqiylik, kuzatish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Natija va muhokama

Har bir rivojlanayotgan va iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirayotgan mamlakat kabi O'zbekistonda ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish doim ustuvor masala bo'lib kelgan. Jahon amaliyotida xorijiy investitsiyani jalb qilishda ikki masalaga katta e'tibor beriladi:

birinchidan, xorijiy tadbirkor kapitalni milliy iqtisodiyotga bir marta olib kiradi (ishlab chiqarishni xarid qilish yoki tashkil etishda), uning daromadi repatriatsiya qilinishi esa uzluksiz

davom etadi. Daromadning qayta investitsiyalash masalasi esa ancha nozik hisoblanadi va bunday qarorni qabul qilinishi mamlakatdagi umumiy investitsiya muhiti va valyuta konvertatsiyasi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi;

ikkinchidan, xorijiy tadbirkor kapitalni asosan milliy iqtisodiyotning maksimal darajada foyda olish imkoni mavjud sohalariga yo‘naltirishga harakat qiladi. Bu, o‘z navbatida, sohalarni rivojlantirishda milliy manfaatlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Shu bilan birga, ekologiya me‘yorlari yuqori bo‘lgan rivojlangan mamlakatlardan ekologiyaga ahamiyat bermaydigan rivojlanayotgan mamlakatlarga atrof muhitga zarar keltiradigan korxonalarining kirib kelishi masalasi ham muhim o‘ringa ega.

Ma‘lumki, mamlakat investitsiya muhitini ijobiy baholashda, avvalambor, siyosiy barqarorlikka katta ahamiyat beriladi. Mamlakatda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik investor o‘z faoliyatini sinchkovlik bilan rejalashtirish va darhol foyda olish emas, balki uzoq muddatga mo‘ljallangan investitsiya loyihalarini tuzishi uchun zamin yaratadi. O‘zbekistondagi investitsion muhit Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida eng barqarori hisoblanadi.

Bozor amal qilayotgan har qanday mamlakatda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash xo‘jalik yuritish shakllarining olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar talabiga qay darajada javob berishi bilan hamda amal qilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyotni barqarorligi va uni iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, eng avvalo makroiqtisodiyot darajasida iqtisodiy muvozanatlikka erishishni talab etadi.

Iqtisodiy muvozanatlik esa milliy iqtisodiyotning amal qilish shakli bo‘lib, uning harakat darajalari va qo‘lami turlicha bo‘ladi. Iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida iqtisodiy muvozanatlik bizning fikrimizcha, shunday iqtisodiy jarayonki, bunda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning asosiy qismini o‘z iqtisodiy faoliyatlaridan qoniqish hosil qilishib, uni o‘zgartirishga iqtisodiy sabab qidirmaydi. Bizning fikrimizcha, bunday holat qisqa muddatlidir, chunki bu holda ishlab chiqaruvchi sub‘ektlar o‘rtasida iqtisodiy raqobatni chuqurlashtirishga, o‘zoq muddatga mo‘jallangan strategik rejalar, dasturlar tuzishga hamda ularni amalga oshirishga majbur qiladi. Demak, har qanday shakldagi iqtisodiy muvozanat nisbiy xarakteriga ega bo‘lib, ularni makrodarajada uzoq muddat ichida saqlanishi iqtisodiy barqarorlik kategoriyasi bilan ifodalanadi.

Iqtisodiy barqarorlik tushunchasini mazmuni uzviy bog‘langan ikki jarayon o‘rtasidagi muvozanatning qisqa davr ichida, saqlanib turishini ifodalaydi. Makrodarajadagi iqtisodiy barqarorlik eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanat orqali erishiladi. Hamda qlar o‘rtasidagi muvozanat boshqa iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashga asos yaratadi va ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday maroiqtisodiyot darajasidagi muvozanatlarga ishlabchiqarish bilan is‘temol, ishlab chiqarish bilan jamg‘arma, aholining shaxsiy pul daromadlari bilan aholi is‘temol tavarlari va xizmatlari, bozordagi investitsion tovarlar bilan aholi is‘temol tovarlari, nominal ish haqi bilan real ish haqi, ishlab chiqarish omillarining sarflanish natijalari bilan daromadlarning taqsimlanishi o‘rtasidagi muvozanatliklar kiradi. Bir holatini inobatga olish zarur ya‘ni, iqtisodiy muvozanatlarni amaldagi kurinishlaridan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni qanoatlanishi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlantirishning muhim sharti hamdir. Shu bilan birgalikda u makro va mikro iqtisodiyot miqyosida iqtisodiy o‘shishni muhim omili bo‘lib, xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha masalaning ikkinchi tomoni ham bor, ya‘ni iqtisodiy faoliyati bilan shug‘ulayotganlarni mavjud iqtisodiy sharoit qanoatlantirsa hamda iqtisodiy faoliyatining bundan keyingi harakatidan manfaatdorligi, qiziqishni ortishiga yordam berishiga sharoit yaratilsa, o‘shandagina iqtisodiy o‘shish ro‘y berishi mumkin. Agar, jamiyatda vujudga kelgan iqtisodiy muvozanatlik holati iqtisodiy sub‘ektlar manfaatiga, qiziqishga zid

kelsa, jamiyat mavjud iqtisodiy resurslaridan samarali foydalana olmaydi, iqtisodiy o'sish sur'ati, aholi turmush darajasi pasayib va iqtisodiyotda tanglik alomatlari paydo bo'la boshlaydi.

Iqtisodiy faoliyat sub'ektlarini jamiyatdagi mavjud iqtisodiy shart-sharoitdan qoniqishi, ularni tashabbuskorligining o'zaro uyg'unlashuvi, iqtisodiy muvozanatlikda o'z ifodasini topadi. Bu holda iqtisodiy muvozanat ishlab chiqarishning shakli va turidan qat'iy nazar bozor sub'ektlarining faoliyatining faolashtirishga undashi lozim.

Iqtisodiy rivojlanish tug'risida so'z yuritganda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi, balki ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni xo'jalikning ustav kapitali oshishi, daromadi foyda miqdorining kupayishi, xo'jalikda ishlaydiganlarning soni ish haqi miqdori, kapital sig'imi va qaytimi kabi ko'rsatkichlarning ijobiy tamonga o'zgarishning qamrab oladi.

Demak, iqtisodiy o'sish deganda, qisqa davr davomida real ishlab chiqarishning ko'payishini emas, balki o'zoq davr ichida, iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqan holda, real ishlab chiqarishning iqtisodiy resurslar bilan birgalikda o'zgarishi yoki o'zoq vaqt oralig'ida ishlab chiqarish salohiyatini bir muvozanatlik holatidan ikkinchi muvozanatlik holatiga o'tishi tushunishi lozim. Iqtisodiy o'sishini o'rganishda asosiy e'tiborini uning sur'atlariga berish lozim.

Shu sababli real iqtisodiy o'sishini tahlil qilganda nafaqat uning jo'shqinligini belgilovchi omillarini, balkim makroiqtisodiyot darajasida tarmoqlararo va institutsional tarkibiy o'zgarishlarini, hamda davlatning bu yo'nalishda olib borilayotgan ichki va tashqi iqtisodiy siyosatini ham o'rganish ham zarur.

Ma'lumki, real iqtisodiy o'sish o'z ifodasini iqtisodiy resurslarining cheklanganligi bilan ehtiyojlarini cheksizligi o'rtasidagi ziddiyatining takrorlanishi va yechimini topadi. Ushbu ziddiyatni yechish, bizning fikrimizcha ikki usulda amalga oshiriladi: Birinchidan, bu ishlab chiqarish imkoniyatlarin kupaytirish bo'lsa, ikkinchidan, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatidan samarali foydalanish yo'l-yo'riqlarini izlab topishdan iboratdir. Lekin, har ikkala usulning amal qilishi mobaynida yangi ehtiyojlar vujudga kela veradi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengayishi nafaqat ijtimoiy ehtiyojlarining miqdor jihatdan o'sishga, balki tarkibiy o'zgarishiga ham bevosita bog'liqdir. Real holatda aholini qaysi bir qismi, qanday tovarni qisqa vaqt ichida afzal ko'rishi tez o'zgarib, ishlab chiqarish resurslari va ishlab chiqarishning tarkibi unga tez moslasha olmaydi, ya'ni ehtiyojlari o'zgarishi sur'ati bilan ularni qondirish imkoniyati vaqtida bir-biriga mos kelmaydi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy o'sishga ikki yoqlama yondashish keng tarqalmoqda. Birinchi yo'nalish bu iqtisodiy faoliyatning natijasi sifatida qabul qilingan real yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot yoki real milliy daromad hajmining o'sish sur'ati, ikkinchisi esa, bu real milliy mahsulot va real milliy daromadning jon boshiga to'g'ri kelishidir. Bizning fikrimizcha yuqoridagi yo'nalishdan qaysi birini tanlash ushbu masalani yechishini yechishi uchun qo'shgan maqsadiga bog'liq. Birinchi yo'nalishdagi iqtisodiy o'sishni aniqlash ko'p hollarda davlatning takror ishlab chiqarish salohiyatini aniqlash maqsadida ishlatilsa, ikkinsichisi esa, jamiyat asoslarining turmush darajasi dinamikasini hamda bu ko'rsatkichlarni boshqa mamlakatlar bilan taqozlash uchun ishlatiladi.

Real ishlab chiqarishning hajmi uning tarkibiy jamiyatda mavjud bo'lgan institutsional o'zgarishlar bilan birgalikda hamohang olib borilishi lozim. Bu masala ham muvozanatning muhim masalasi bo'lib, uni e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Bunday sharoitda muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bozor mexanizmlaridan tashqari davlat mexanizmlarining roli oshib boraveradi. Iqtisodiyot nazariyasiga oid bo'lgan

adabiyotlarda keng yoritilgan E.Domar va R.Xarroding iqtisodiy o'sish nazariyalari mavjud bo'lib o'rganish va hisobga olish foydadan holi emas. Masalan, E.Domar modelida uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga aholining to'la bandlik muammosi hisobiga olingan bo'lsa, R.Xarroding modelida esa, iqtisodiy o'sish nafaqat tenglamalar asosida ularning nisbatlari balki ularning funksional aloqalari hamda tadbirkorligini psixologik motivlari ham hisobga olinadi. Albatta, bu sharoitlarning hisobiga olinishi qisqa va o'zoq muddatlarga mo'jallangan iqtisodiy muvozanatlikni ta'minlashda va uning tendensiyasini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida iqtisodiy o'sish o'zoq va nihoyatda uzoq muddatli davrlarga bo'lib o'rnatiladi. Lekin, shuni aytish kerakki muddat jihatdan iqtisodiy o'sishning "uzoq va nihoyatda uzoqqa" bo'linishi asosan o'zining konseptual muhimligiga sifat jihatdan yangi hodisa yoki jarayonning vujudga kelishigacha bo'lgan iqtisodiy o'sishni o'z ichiga oladi. Neokeynschilar va neoklassik iqtisodiy o'sish nazariyasining tarafdorlari uzoq davrga mo'jallangan iqtisodiy o'sish muddatini asosiy kapitalning amal qilish sikliga teng, deb hisoblaydi.

Real hayotda shunday iqtisodiy jarayonlar bo'ladiki, o'zoq va nihoyatda o'zoq muddatga mo'jallangan iqtisodiy o'sishlarni ta'minlaydigan tarkibi, institutsional va funksional o'zgarishlar o'zoq vaqtdagi o'zgarishlarga nisbatan oldinroq, ya'ni, mo'jaldagi vaqtdan oldin sodir bo'lishi mumkin. Lekin, shunga qaramasdan nihoyatda o'zoq muddatdagi iqtisodiy o'sishni tahlil etganda, bizning fikrimizcha, ikki xususiyatini hisobga olish zarur.

Birinchidan, iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy elementi, tarkibiy qismi sifatida qaralib, tahlil qilinishi lozim. Sababi, ma'lum qisqa davr ichidagi iqtisodiy o'sish iqtisodiy sikllini keltirib chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatsa, ma'lum bir qisqa davr ichidagi iqtisodiy o'sish iqtisodiy siklning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqardikki, uzoq davr ichidagi iqtisodiy ush tahlil qilinganda e'tiborni uning shu davrdagi o'sish sur'atiga emas, balki iqtisodiyotdagi global o'zgarishlar, barqaror tendensiyalar va qonuniyatlarga qaratish lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy asoslari, ya'ni tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarining to'qnashishi bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatlar hamda tashqi muhitning o'zgarishi sharoitida yangi iqtisodiy tarkibining tashkil topishi, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va bu masalalarni hal qilishda davlat institutlari rolining o'zgarishi kabi masalalar tahlil qilinadi. Demak, makro mikro darajadagi iqtisodiy o'sish qisqa, uzoq va nihoyatda uzoq davr ichida bo'ladimi, bundan qat'iy nazar uning o'z oldiga qo'ygan pirovard maqsadi aholini moddiy ma'naviy ehtiyojlarini to'liqroq qondirish, xalq farovonligini oshirish va xavfsizligini ta'minlashdir.

Iqtisodiy o'sishdan ko'zlangan maqsadi quyidagilardan iborat:

- Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real milliy daromadni ko'paytirish;
- Iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari va aholining bo'sh vaqtini ko'paytirish;
- Real milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini takomillashtirib, jamiyat a'zolarining, jumladan, mehnatga layoqatli va layoqatsiz ishsizlarga tegadigan mahsulot hissasini oshirib borish, ijtimoiy himoyalash, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarni qaror toptirish;

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sishdan ko'zlangan maqsad, jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirib, ularni farovonligini oshirishdir.

Mamlakatning kelgusida hududiy rivojlanish formatini aniqlab beruvchi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: qishloq hududlaridan shahar va shahar tipidagi qishloqlarga migratsiya oqimining kuchayishi. O'zbekiston aholi soni o'sishining yuqori sur'ati (ayniqsa qishloq hududlarda) bilan ajrab turadi (1.3-1.7%). 2030 yilga kelib O'zbekiston aholisi soni 37.7 mln. kishini tashkil qiladi, bu ko'rsatkich 2013 yil ko'rsatkichidan 22% ga yuqori. Hozirgi kundagi aholi yashash

hududlarining geografik tarkibini saqlanib turilishi sharoitida, asosiy ishchi kuchining o'sish ko'rsatkichi qishloq hududlariga to'g'ri keladi. Bu vaziyat migratsiya oqimini kuchayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa

Iqtisodiy o'sish bilan iqtisodiy muvozanatning o'zaro bog'liqligini tahlil qilganda, bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sishning iqtisodiy muvozanatlikka ta'sirini va aks ta'sirini tahlil qilish zarur.

Bu ta'sir va aks ta'sir yo'llari quyidagilardan iborat:

Birinchi, iqtisodiy o'sish mamlakat ichida va mamlakataro raqobat sharoitida amalga oshganligi sababli, u tovarlar va xizmatlar sifatini oshirishni va ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishni taqozo etadi;

Ikkinchi, qondirilmagan ehtiyojlarni yangi tovarlar ishlab chiqarish evaziga qondirishga sharoit yaratadi;

Uchinchi, ishlab chiqarish resurslarning xalq xo'jaligi tarmoqlari, sohalari va mintaqalari bo'yicha taqsimlanishini takomillashtirish evaziga ularni samaradorligini oshiradi;

To'rtinchi, ishlab chiqarish omillarining unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan chora tadbirlar, usullar takomillashtiriladi va inson omiliga e'tibor, unga sarflanadigan investitsiya hajmi ko'payadi;

Beshinchi, bozor iqtisodiyoti o'zining tabiatiga ko'ra, jamiyatning ba'zi bir ijtimoiy masalalariga salbiy munosabatida bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiy o'sish, jamiyatdagi ishsizlarni kamaytirish, xavfsizligini ta'minlash va ularni ijtimoiy himoya qilishiga undaydi;

Oltinchi, iqtisodiyotda mutanosiblik va muvozanatlik ta'minlangan sharoitdagina iqtisodiy o'sish ro'y beradi va o'ziga xos vazifalarini bajara oladi.

Bu yerda o'sish turli darajada iqtisodiy muvozanatlikning yakuniy natijasisifatida yuzaga chiqadi. Sababi, iqtisodiy muvozanatlik ta'minlanganini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkich YaIMning oshishi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad hajmining ko'payishidir.

Real sektor iqtisodiyotini izchil rivojlanishiga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashda hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirilishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda

Hududiy dasturlarni qabul qilinishi va bajarilishi orqali:

- mavjud tabiiy resurslarni kompleks va samarali o'zlashtirish, har bir tumanning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, shuningdek xorijiy investitsiyalar hajmlarini ko'paytirish hisobiga yalpi mintaqaviy mahsulotning o'sishini ta'minlaydigan mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror yuqori sur'atlarda o'sishiga erishiladi;
- zamonaviy qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta jihozlashni davom ettirish, birinchi navbatda, aholining bandlik darajasi past va dotatsiyada bo'lgan tumanlarda raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish hisobiga yalpi hududiy mahsulot hajmida sanoat korxonalari ulushi oshishi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa qishloq joylarda jadal rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kichik biznesning yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushini oshishi hamda shu asosda doimiy ish o'rinlari va barqaror daromad manbalari yaratish hisobiga aholi bandligi muammolarini hal etiladi;
- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida, ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, uning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushining ko'payishiga erishiladi.

Mamlakatimiz hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi tafovutlarga barham berishning eng samarali usullaridan biri joylarda, ayniqsa, qishloqlarda kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish hisoblanadi. Qishloq joylarida kichik va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy topishi qishloq aholisini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchini ishlab chiqarishning boshqa sohasiga jalb etish, mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov D.Q., Ishmuxamedov A.E., Jumayev Q.X., Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot.-T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jang'armasi nashriyoti», 2004
2. Menkyu N.G. Принципы макроэкономики: 4-ye izd./ Per.s ang. – SPb.: Piter, 2009.
3. Samuelson, Pol E., Nordhaus, Vilyam D. Makroekonomika, 18-ye izd.: per. s angl,-M.: OOO «I.D. Vilyams», 2009.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28 dekabr 2018 yil. <http://www.press-service.uz/ru/lists/view/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi «Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5621 sonli Farmoni //http://lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sanoat statistikasi boshqarmasi ma'lumotlari.

Научный руководитель
Камалов Шухрат Камалович
PhD, доцент
sh.kamalov@tsue.uz

Расулова Комолахон Сираджевна
Магистрант ТГЭУ-ФМО
kamolaxonrasulova@gmail.com

ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Ilmiy rahbar
Kamalov Shuhrat Kamalovich
PhD, dotsent
Magistr TDIU-FMO

Rasulova Komolaxon Siradjevna
kamolaxonrasulova@gmail.com

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Scientific supervisor
Kamalov Shukhrat Kamalovich
associate professor

Master's student TSUE-FMO
Rasulova Komolakhon Siradjevna
Master's student TSUE-FMO
kamolaxonrasulova@gmail.com

INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE REGIONS OF UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Аннотация. В статье анализируются факторы, формирующие инвестиционную привлекательность регионов Узбекистана, существующие проблемы и приоритетные направления их устранения. На основе показателей регионального экономического неравенства, качества инфраструктуры, институциональной среды, доступности финансовых ресурсов, кадрового потенциала и предпринимательского климата изучено текущее состояние инвестиционной среды. В заключение разработаны предложения по повышению инвестиционной привлекательности регионов.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, региональное развитие, экономические зоны, инфраструктура, иностранные инвестиции, институциональная среда, модернизация.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududlarining investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik, infratuzilma sifati, institutsional muhit, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, kadrlar salohiyati va tadbirkorlik muhiti asosida investitsion muhitning hozirgi

holati baholanadi. Tadqiqot yakunida investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch soʻzlar: investitsion jozibadorlik, hududiy rivojlanish, iqtisodiy zonalar, infratuzilma, xorijiy investitsiyalar, institutsional muhit, modernizatsiya.

Abstract. This article analyzes the key factors shaping the investment attractiveness of the regions of Uzbekistan, identifies existing challenges, and outlines priority directions for their resolution. The current state of the regional investment environment is assessed based on indicators of economic disparities, infrastructure quality, institutional conditions, access to financial resources, human capital, and the entrepreneurial climate. The study concludes with practical recommendations aimed at enhancing the investment attractiveness and competitive advantages of the regions.

Keywords: investment attractiveness, regional development, economic zones, infrastructure, foreign investment, institutional environment, modernization.

Введение

В последние годы движение международного капитала, в частности прямые иностранные инвестиции (ПИИ), стало одним из ключевых факторов экономического роста и региональной конкурентоспособности. По данным UNCTAD, объем глобальных ПИИ сократился с 1,5–1,6 трлн долларов в 2021 году до 1,3 трлн долларов в 2022 году, то есть на 12%; в 2023 году этот показатель составил около 1,33 трлн долларов, продемонстрировав умеренную, но нестабильную динамику [1]. Это свидетельствует о высокой неопределенности мировой инвестиционной среды, геополитической напряженности и росте финансовых рисков.

В Узбекистане же благодаря либерализации инвестиционной политики, созданию благоприятных условий для инвесторов и расширению производственных мощностей в регионах инвестиционная активность демонстрирует устойчивый рост. В 2023 году объем инвестиций в основной капитал достиг 352,1 трлн сумов, что значительно выше уровня 2022 года; в первом квартале 2024 года освоено 107,1 трлн сумов инвестиций, что существенно превосходит аналогичный период прошлого года [2]. ПИИ также увеличились: в 2024 году их объем вырос более чем на 50%, а к началу 2025 года число предприятий с иностранным капиталом превысило 17 тысяч [3].

Однако на фоне сокращения глобальных инвестиций, усиления конкуренции, роста климатических требований и экологических стандартов, а также нарушений в логистических цепочках возникает необходимость пересмотра инвестиционной стратегии регионов Узбекистана. Инвестиции сегодня — это не просто краткосрочный источник финансирования, а стратегический ресурс для долгосрочного регионального развития, диверсификации промышленности, создания высокодоходных отраслей и обеспечения занятости населения.

Экономические диспропорции между регионами, различия в уровне инфраструктуры, кадровом потенциале, институциональном управлении, а также проблемы, связанные с выделением земельных участков и подключением к инженерным сетям, препятствуют формированию равномерной инвестиционной привлекательности. В этой связи изучение регионального инвестиционного потенциала и выявление факторов, влияющих на его развитие, приобретает особую значимость.

Обзор литературы

Теоретические основы инвестиционной привлекательности были заложены М. Портером в модели «национального ромба», согласно которой конкурентоспособность региона определяется инфраструктурой, спросом, ресурсами и государственной политикой [4]. В международной инвестиционной теории значительное место занимает парадигма OLI Дж. Даннинга, объясняющая решение инвесторов размещать капитал наличием преимуществ владения, локации и интернализации [5].

В рамках теории регионального развития П. Кругман и М. Фуджита доказывают, что капитал концентрируется вокруг кластеров, где развиты производственные связи и инфраструктура [6]. Представители институциональной экономики Д. Норт и О. Уильямсон подчеркивают важность защиты прав собственности, прозрачности управления и стабильности правовой системы для привлечения инвестиций [7]. Узбекские исследователи — М. Юкубов, Ш. Худойбердиев и др. — обращают внимание на ключевую роль инфраструктуры, кадрового потенциала и эффективности регионального управления в процессе повышения инвестиционной привлекательности регионов [8].

Методология исследования

В исследовании применён комплекс методологических подходов, обеспечивающих всесторонний и научно обоснованный анализ инвестиционной привлекательности регионов Узбекистана. В первую очередь использован документально-статистический анализ, который позволил изучить глобальные и национальные показатели движения инвестиций и определить их динамику. На основе компаративного анализа сопоставлены различия в инвестиционной активности между регионами, что дало возможность выявить существующие диспропорции и факторы их формирования. Структурно-аналитический подход применён для детального изучения ключевых составляющих инвестиционной привлекательности — инфраструктуры, институциональной среды, доступности финансовых ресурсов и кадрового потенциала. Метод *policy analysis* обеспечил оценку эффективности действующей инвестиционной политики, существующих льгот и государственных программ поддержки. Для наглядного представления тенденций и сравнительных характеристик данные были визуализированы в форме таблиц и графиков, что позволило качественно отразить динамику инвестиционных процессов.

Анализ и обсуждение результатов

Изучение глобальных инвестиционных тенденций показывает, что хотя мировые объёмы ПИИ сокращаются, развивающиеся страны сохраняют относительную устойчивость к глобальным шокам. Для Узбекистана это означает возможность привлечения дополнительного капитала на фоне продолжающихся экономических реформ.

Таблица 1

Потоки прямых иностранных инвестиций в мире (2021–2023 гг.) [1]

Год	Глобальный объём ПИИ (млрд долл.)	ПИИ в развивающиеся страны (млрд долл.)	Изменение
	≈ 1 570	—	—
	≈ 1 300	—	–12 %
	≈ 1 330	≈ 867	–2 %

Анализ данных показывает, что сокращение ПИИ в 2022 году связано с замедлением мирового роста, геополитическими кризисами и нестабильностью энергетических рынков. Несмотря на это, инвестиции в развивающиеся страны остаются стабильными, что создает благоприятное окно возможностей для Узбекистана.

Инвестиционная активность внутри страны растет, однако остаётся неравномерной. Ташкент, Ташкентская область и ряд регионов Ферганской долины остаются наиболее привлекательными для инвесторов. В то время как Каракалпакстан, Сурхандарьинская и Сырдарьинская области имеют относительно низкие показатели.

Таблица 2

**Распределение иностранных инвестиций по странам —
инвесторам (2025 г.)[9]**

<i>Страна</i>	<i>Количество предприятий с иностранным капиталом</i>	<i>Доля (%)</i>
<i>Китай</i>		
<i>Россия</i>		
<i>Турция</i>		
<i>Казахстан</i>		
<i>Республика Корея</i>		
<i>США</i>		

Анализ таблицы показывает, что Китай и Россия остаются главными стратегическими партнерами Узбекистана. Турецкие инвестиции активно направляются в легкую промышленность и малые индустриальные зоны. Южная Корея инвестирует в высокотехнологичные отрасли. США имеют низкую долю по количеству предприятий, но проекты носят характер инновационных и высокодоходных.

Выводы и рекомендации

1. На фоне волатильности глобальных потоков ПИИ Узбекистан должен активнее использовать внутренние ресурсы и диверсифицировать структуру инвестиций.
2. Важным направлением является усиление финансирования через местные компании, банки и механизмы государственно-частного партнерства.
3. Для выравнивания региональных диспропорций необходимо развитие кластеров, инфраструктуры и создание «one-stop» сервисов для инвесторов.
4. Совершенствование налогово-таможенной политики, институциональных гарантий, а также развитие кадрового потенциала является ключевым условием повышения региональной привлекательности.
5. Расширение ГЧП, модернизация транспортно-логистической системы и стратегическое территориальное планирование обеспечат устойчивое привлечение инвестиций.

Список использованной литературы

1. World Investment Report 2024. UNCTAD. Geneva, 2024.
2. Агентство статистики Узбекистана. Данные по инвестициям в основной капитал. Ташкент, 2024.
3. Министерство инвестиций, промышленности и торговли. Статистика иностранных инвестиций. Ташкент, 2025.
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.
5. Dunning J. Multinational Enterprises and the Global Economy. Addison-Wesley, 1998.
6. Krugman P., Fujita M., Venables A. The Spatial Economy. MIT Press, 1999.
7. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge Univ. Press, 1990.
8. Юкубов М., Худойбердиев Ш. Повышение инвестиционной привлекательности экономики Узбекистана. Ташкент: Экономика, 2022.
9. Invest Uzbekistan; Invexi Research. Статистика иностранных инвестиций. — Ташкент, 2025.

Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasining
mustaqil tadqiqotchisi
khasanboyvalijonov@gmail.com

**DONMAHSULOTLARINI BAHOLASH VA BUXGALTERIYA HISOBINING TASHKIL
QILISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Валижонов Хасанбой Акбаралиевич
Ташкентский государственный экономический
Независимый исследователь кафедры
“Бухгалтерский учёт”
khasanboyvalijonov@gmail.com

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОЦЕНКИ И ОРГАНИЗАЦИИ
БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ХЛЕБОПРОДУКТОВ**

Valizhonov Khasanboy Akbaraliyevich
Tashkent State University of Economics
Independent researcher in the Accounting Department
khasanboyvalijonov@gmail.com

**IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF ASSESSMENT AND ORGANIZATION
OF ACCOUNTING OF BAKERY PRODUCTS**

Annototsiya. Ushbu maqolada donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlar buxgalteriya hisobi xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Tayyor mahsulotlar hisobini yuritishni asosiy vazifalari va usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Donmahsulotlarining buxgalteriya hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari o‘rganilib ularni bartaraf qilish borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarining o‘ziga xos texnologiya xususiyatlaridan kelib chiqib tayyor mahsulotlar buxgalteriya hisobini tashkil etishda qo‘shimcha ishchi schyotlardan foydalanish tavsiya etildi. Shuningdek, donmahsulotlarini baholash va ularni buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettirish tizimining algoritimi ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: tayyor mahsulotlarni tan olish, donmahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi, hisob siyosati, donmahsulotlarining haqiqiy bahosi, saqlash xarajatlari, xarajatlarni paydo bo‘lish joylari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности бухгалтерского учета готовой продукции на предприятиях по хранению и переработке зерна. Указаны основные задачи и методы ведения учета готовой продукции. Изучены особенности и проблемы ведения бухгалтерского учета зерновой продукции и разработаны рекомендации по их устранению. Исходя из специфических технологических особенностей предприятий по хранению и переработке зерна, при организации бухгалтерского учета готовой продукции рекомендуется использовать дополнительные рабочие счета. Также разработан алгоритм системы оценки зерновых продуктов и их отражения в бухгалтерских записях.

Ключевые слова: признание готовой продукции, себестоимость производства зерна, учетная политика, фактическая стоимость зерна, затраты на хранение, места возникновения затрат.

Abstract. This article examines the features of accounting for finished products in grain storage and processing enterprises. The main tasks and methods of accounting for finished products are indicated. The features and problems of accounting for grain products were studied, and recommendations for their elimination were developed. Based on the specific technological features of grain storage and processing enterprises, it is recommended to use additional working accounts when organizing the accounting of finished products. An algorithm for evaluating grain products and reflecting them in accounting entries has also been developed.

Keywords: recognition of finished products, production cost of grain products, accounting policy, actual cost of grain products, storage costs, places of cost origin.

KIRISH

Umumbashariy raqobat kuchayib borayotgan hozirgi kunda barqarorlik va samaradorlikni ta'minlash, davlat sektorida xarajatlarni keskin kamaytirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, davlat korxonalarida tejamkor boshqaruv, raqamli iqtisodiyot va xalqaro korporativ standartlarga asoslangan ish uslubini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2025 yilda "Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" F-59-sonli farmoyishi qabul qilindi. Farmoyishda 2026 yilda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarda mahsulot tannarxini kamaytirish va faoliyati samaradorligini oshirish belgilab qo'yilgan¹. Ushbu farmoyishni talablari asosida don mahsulotlarning tannarxini pasaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish maqsadida Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007 yil 22 apreldagi 100, 2006-44-son qarori bilan "Don va don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va sotish bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish to'g'risidagi" yo'riqnomasi qabul qilindi. Ushbu yo'riqnomada xom ashyo (don) va materiallarning ishlab chiqarishda foydalanish meyorlariga rioya qilinishi, mahsulotni ishlab chiqarish tannarxining ishonchli ko'rsatkichlarini olish uchun ularning kalkulyatsiya obyektlari bo'yicha taqsimlanishi yuzasidan nazorat o'rnatish vazifalari belgilab qo'yilgan.²

Don va don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, ichki tashish, qayta ishlash va sotishning dastlabki hisobini yuritish va hujjatlar bilan rasmiylashtirish tartibi takomillashtirish maqsadida 25.05.2006 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 95-sonli "Don va donni qayta ishlash mahsulotlari hisobini yuritish tizimini takomillashtirishga, ularning saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori qabul qilingan.³

Har qanday ishlab chiqarish korxonasi o'z faoliyati jarayonida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchiga (xizmat ko'rsatuvchiga) aylanadi. Tayyor mahsulot ishlab chiqarishda muhim masala bo'lib butun biznesning faoliyatini belgilaydi va ishlab chiqarishni rivojlanishi va mahsulotlarni realizatsiya qilish ushbu jarayon qanday tashkil etilganligiga bog'liqdir. Biroq, ishlab chiqarish jarayoni buxgalteriya hisobi va uni yuritishdan alohida bo'ladi deb fikr yuritish yangilish bo'ladi,

¹ <https://www.lex.uz/doc-passport/7847396>

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 22-son, 231-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 22-son, 191-modda; 2008 y., 52-son, 515-modda

aynan u ishlab chiqarilayotgan mahsulot, uni tarkibi, uni ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlaydigan, ushbu jarayonlarga xarajatlarni va boshqa ko'p axamiyatga ega bo'lgan holatlar bo'yicha ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi.

Faqat buxgalteriya hisobi axborotdan foydalanuvchilarga (rahbar, investorlar, hamkorlar) xar tomonlama puxta o'ylangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi, chunki buxgalteriya hisobi ushbu ma'lumotlarni yetkazib beruvchi bo'lib xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib buxgalteriya hisobini ushbu qismini, uning xususiyatlarini diqqat bilan o'rganishning obyektiv zarurati paydo bo'ladi, bu ko'p jihatdan nafaqat meyoriy adabiyotlarning o'zi, balki korxonada, uning strategiyasi, ko'lami va boshqa ko'plab omillar bilan ham belgilanadi.

Tayyor mahsulot hisobini takomillashtirish orqali biz nafaqat hisob sifatini, balki hisob bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining o'zini ham yaxshilaymiz.

Donni qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish, ayniqsa, hisob ma'lumotlarining shaffofligi, samaradorligi va analitik tarkibiy qismiga bo'lgan talablar ortib borayotgan sharoitda dolzarb mavzu hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAXRI.

Bugungi kunda donni saqlash va qayta ishlash korxonalarining samaradorligini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmidir. Manbalar cheklangan va talab hajmi oshib borayotgan sharoitda mahsulot ishlab chiqarish hajmi birinchi o'ringa chiqadi, ammo korxonada talab va taklif qonuniga e'tibor qaratishi kerak va shuncha miqdorda mahsulot ishlab chiqarish kerakki ular xammasi to'liq hajmda iste'molchilar tomonidan iste'mol qilinishi kerak. Mahsulot sotish jarayonida tashkilot o'z xarajatlarini qoplaydi va keyingi faoliyatini amalga oshirish uchun foyda oladi. Maksimal foyda olish uchun xar xil turdagi firibgarliklarni va kelajakdagi foydani yo'qolishini oldini olish uchun tayyor mahsulotlar miqdorini doimiy nazorat qilish kerak. Ushbu muammolarni hal qilish uchun sotilgan va sotilmagan tayyor mahsulotlarni umumiy hajmini o'z vaqtida aniqlash, kuzatib borishni va kelajakda foydani pasayishida noo'rin xarajatlardan voz kechish maqsadida korxonada ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish imkonini beruvchi buxgalteriya hisobida tayyor mahsulotlar hisobi nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda "Tayyor mahsulot" tushunchasiga turli tushuncha va ta'riflar berilgan.

Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi olim D.A. Lepexina fikricha "Tayyor mahsulot deganda, barcha ishlov berish bosqichlaridan, texnik nazoratdan to'liq o'tgan va qabul qilish dalolatnomasiga muvofiq omborga topshirilgan yoki buyurtmachiga topshirilgan mahsulotdir".⁴

Iqtisodchi olimlar K.N. Balashova va Y.N. Novikovlar "Tayyor mahsulot - korxonada ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsuloti. Bular mazkur korxonada ishlov berish to'liq tugallangan, standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, texnik nazorat bo'limi tomonidan qabul qilingan va tayyor mahsulot omboriga topshirilgan buyumlar va mahsulotlardir" deb ta'kidlaydi.⁵

Professor R.O. Xolbekov ta'kidlashicha, "Ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsuli bo'lib tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar – bu mazkur korxonada qaytadan ishlashni talab qilmaydigan, standartlar va texnik shartlariga to'liq javob beradigan, texnik nazorat bo'limi

⁴ Лепехина Д.А., Диденко Й. С.Кубар М.А. "Сушность понятия готовая продукция и особенности ее учета". "Экономика и социум" №6(15) 2015 www.iupr.ru. 729 с.

⁵Балашова К.Н. Новиков Й.И. .Инвентаризация как метод получения аудиторских доказательств достоверности учета готовой продукции // Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. - 2017. -№3 (10) июль - сентябрь. - УРЛ <http://э-жоурнал.омгау.ру/имегес/иссуэс/2017/3/00378.пдф.-ИССН 2413-4066.1-5 с>.

(TNB) yoki maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan va korxonada omboriga topshirilgan yoki buyurtmachi tomonidan qabul qilingan buyum va mahsulotlardir”.⁶

Professor A. A. Karimov fikricha, tayyor mahsulot deb – korxonadagi barcha ishlov berish operatsiyalaridan o‘tib bo‘lgan, tayyor holga keltirilgan belgilangan davlat standarti va texnikaviy shartlarning barcha talablariga javob beradigan hamda texnika nazorati bo‘limi tomonidan qabul qilingan yoki buyurtmachilarga topshirilgan mahsulotga aytiladi degan tushunchani beradi.⁷

Agar bu talablar to‘liq bajarilmasa biz ularni “yarim tayyor mahsulotlar” yoki “tugallanmagan ishlab chiqarish” deb ataymiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha tayyor mahsulotni tan olishdan ishlab chiqarishning o‘ziga xos texnologik xususiyatlarini inobatga olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Jumladan, umumiylikdan yakka yoki deduksion va induksion, monografik kuzatishlar kabi usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash va taqqoslash kabi usullar qo‘llanilib, tahlil qilish jarayonida esa sintez va tahlil, buxgalteriya hisobi kabi usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuning 7-moddasida buxgalteriya hisobini obyektlari aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir deb ko‘rsatilgan.⁸

Ushbu moddadan foydalanib, donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida buxgalteriya hisobini obyektlari to‘g‘ri guruhlash shu jumladan, ishlab chiqarilgan donmahsulotlarini to‘g‘ri tan olish katta ahamiyatga ega. Chunki donmahsulotlarining bir necha turi bo‘lib, ular paydo bo‘lish joylari bo‘yicha, o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha, saqlanishi va xaridorga jo‘natilish tartibi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan, unning bir necha navi mavjud (I, II, III, IV), saqlanishi bo‘yicha (maxsus omborlarda yoki ochiq ayvonlarda), xaridorlarga jo‘natilish holati bo‘yicha (idishlarda yoki idishsiz) va hakazo. Shulardan kelib chiqib, tannarxi va sotish qiymatlari ham bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, donmahsulotlarining turlari bo‘yicha xarajatlarning paydo bo‘lish joylari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi hamda ularning ishlab chiqarish texnologiyasi tufayli xarajatlar tarkibi va xajmi o‘zgaradi.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarining buxgalteriya hisobi tizimi quyidagi o‘ziga xos elementlar to‘plamini o‘z ichiga oladi:

harajatlar haqida ma’lumotlarni yig‘ish, guruhlash va tizimlashtirish;

hisob schyotlarini aniqlash va ularda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot haqidagi ma’lumotni aks ettirishni tartibi;

tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash;

tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda va schyotlardagi qoldiqlarni baholash usullari.


⁶ Xolbekov R.O. Ishlab chiqarish hisobini tashkil qilish tamoyillari va uslubiyoti-T.:“FAN”, 2005-198 b.

⁷ Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. – T. “Sharq”, 2004. – 592 bet.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 2016 yil 13 apreldagi O‘RQ-404-sonli Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot o'lash asboblarning ko'rasatkichlari asosida hisobga olinadi. Ishlab chiqarishda hosil bo'lgan chiqindilar bevosita ishlab chiqarish davri bosh ustasi yoki donmahsulotlarini qoplash bo'limi boshlig'ining bevosita kuzatuv orqali tarozilarda tortiladi. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori 116-shakldagi jurnalda chiqarish davri bosh ustasi tomonidan olib boriladi (bunda tozalik holati bo'yicha ma'lumot belgisini ishlab chiqarish davri laboranti qo'yadi). Bundan tashqari jurnalda idishsiz saqlash omboriga, qadoqlash sexiga berilgan mahsulotlar va qoplangan qoplar miqdori ham yuritiladi.

Ishlab chiqarilgan donmahsulotlarni tayyor mahsulotlar omboriga berish 112-shakldagi yuk xati orqali rasmiylashtiriladi. Yuk xatlari xar kuni ishlab chiqarish davri tamom bo'lgandan keyin rasmiylashtiriladi va qoplash bo'limi mudiri tomonidan imzolanadi agar, u bo'lmasa yuk xati qayta ishlash sexi boshlig'i yoki ishlab chiqarish davri bosh ustasi va ombor boshlig'i tomonidan imzolanadi. Yuk xati ikki nusxada rasmiylashtiriladi birinchi nusxa ishlab chiqarilgan mahsulotni hisobdan chiqarish uchun ikkinchi nusxasi mahsulotni omborga kirim qilish uchun asos bo'ladi. Quyida tayyor mahsulotlar xarakatini birlamchi xujjatlarda rasmiylashtirish tartibi keltirilgan.




1-rasm. Donmahsulotlari xarakatini birlamchi xujjatlarda rasmiylashtirish ketma-ketligi.

Donmahsulotlarning buxgalteriya hisobi 4-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standartining "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli standarti asosida amalga oshiriladi. "Tovar-moddiy zaxiralar" standartining 30-moddasida "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari ko'rsatib o'tilgan.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni tannarxini aniqlashning meyoriy usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu usulning o'ziga xos xususiyati shundaki haqiqiy ishlab chiqarish tannarxidan rejaviy tannarxdan chetga chiqishlarni hisobga olishni ta'minlaydi. Xarajatlarni hisobga olishning meyoriy usuli eng ilg'or usullardan biri hisoblanadi, ko'plab yirik mahalliy korxonalarda qo'llaniladi va ilmiy asosga ega. Ushbu usul

amaldagi standartlar bo'yicha tayyor mahsulot tannarxining standart xarajatlar smetasini oldindan tuzishni va og'ishlarni hisobga olishni o'z ichiga oladi.



2-rasm. Tayyor mahsulotlarni tannarxini baxolash usullari.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS) 2 “Zaxiralar” standartining 21 moddasida “Zahiralar tannarxini baholashda aniqroq natijaga erishish uchun qo‘llanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadigan meyoriy sarflar usuli yoki chakana narxlar usulidan foydalanish mumkin. Meyoriy sarflarda xom ashyo va materiallar, mehnat, samaradorlik va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning meyoriy darajasi hisobga olinadi. Ular muntazam tahlil qilinadi va zarurat bo‘lsa, joriy holatni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqiladi” deb ko‘rsatib o‘tilgan .

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida qayta ishlashga berilgan xom ashyodan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida Debet (2800) tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlari, Kredit (2000) asosiy ishlab chiqarishni va/yoki (2300) yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar yozuvi ko‘rinishida bo‘ladi.

Agar tayyor mahsulot meyoriy (rejali) tannarx bo‘yicha hisobga olinsa, unda 2800 "Tayyor mahsulotlar" sintetik schyotida tayyor mahsulot mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining uning hisob narxlaridagi (rejaviy, meyoriy) qiymatidan chetlanishlarini hisobga olgan holda aks ettiriladi. Chetga chiqishlarni hisobdan chiqarish oy oxirida tayyor mahsulot hisobdan chiqarilgan schyotlarga hisob narxlari (rejaviy, meyoriy) bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yuklab jo‘natilgan (sotilgan) mahsulotlarni og‘ishi foizni quyidagi formula bo‘yicha aniqlashimiz mumkin: ⁹

$$MO_f = \frac{TMq + MChs}{MBq + MKs}$$

bu yerda: MO_f - yuklab jo‘natilgan (sotilgan) mahsulotlarni og‘ish foizi;

TMq - hisobot davri boshiga tayyor mahsulot qoldig‘idan chetga chiqish summasi;

$MChs$ - hisobot davrida omborga kelib tushgan mahsulotlar bo‘yicha chetga chiqishlar summasi;

MBq - hisobga olish narxlari bo‘yicha hisobot davri boshiga tayyor mahsulot qoldig‘i;

MKs - omborga hisob narxlari bo‘yicha kelib tushgan tayyor mahsulot summasi.

Jo‘natilgan (sotilgan) mahsulotdagi chetlanishlar summasini quyidagi formula yordamida aniqlashimiz mumkin:

⁹ Muallif ishlanmasi

$$NChs = \frac{MMt + MFo}{100 \%},$$

bu yerda: MChs - jo‘natilgan (sotilgan) mahsulotdagi chetlanish summasi;

MMt - yuklab jo‘natilgan mahsulotning meyoriy tannarxi;

MFo - yuklab jo‘natilgan (sotilgan) mahsulotlarni foiz og‘ishi;

Donni saqlash va qayta ishlash korxonasida bir kunda un ishlab chiqarish uchun 4 000 000 so‘m sarflandi. Meyoriy tannarx 4 500 000 so‘mni tashkil etdi. Buxgalteriya hisobi yozuvlarida quyidagicha aks ettiriladi:

un ishlab chiqish bo‘yicha asosiy ishlab chiqarishning xarajatlari tan olinsa

Dt 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti - 4 000 000 so‘m

Kt 0200 – “Asosiy vositalarni amortizatsiya” schyoti, 6710 - “Ish haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” schyoti, 2510 - “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyoti; 6520 – “Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar” - 4 000 000 so‘m;

meyoriy tannarx bo‘yicha tayyor mahsulot kirim qilindi

Dt 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti - 4 500 000 so‘m

Kt 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti - 4 500 000 so‘m;

meyoriy

tannarx va haqiqiy tannarx orasidagi og‘ishlar summasi aniqlandi

Dt 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti - 500 000 so‘m

Kt 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti- 500 000 so‘m;

sotilgan mahsulotni tannarxi hisobdan chiqarildi

Dt 9010 - “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti - 4500000 so‘m

Kt 2810- “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti - 4 500 000 so‘m;

og‘ish summasi hisobdan chiqarildi

Dt 9010 - “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti- 500000 so‘m

Kt - 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti - 500 000 so‘m.

Bizning fikrimizcha, hisob narxlarini aniqlash usulidan qat’i nazar, tayyor mahsulotning umumiy qiymati (hisob qiymati plus og‘ishlar) hisobot oyida ushbu mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxiga teng bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot qiymatidagi tafovutlarni hisobdan chiqarish materiallarning hisob qiymatiga mutanosib ravishda, oy (davr boshi) boshiga tafovutlar qoldig‘i va oy (hisobot davri) davomidagi joriy og‘ishlar miqdorining meyoriy qiymat bo‘yicha oy (davr boshi) boshiga tayyor mahsulot qoldig‘i va oy (hisobot davri) davomida kelib tushgan mahsulot summasiga nisbatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlar tannarxini meyoriy aniqlash usulini qo‘llash donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida tayyor mahsulotlarni tannarxini xar tomonlama aniq belgilab beradi. Bu donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni tannarxini optimallashtirish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Har xil maqsadlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tayyorlashdagi ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy tuzilishi ham bir-biridan farq qilib, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Shu sababli har bir xarajatlarning paydo bo‘lish joylari bo‘yicha hisobni tashkil qilishda individual yondoshish, tarmoq ishlab chiqarish hisobining asosiy vazifasidir. Donni qayta ishlashda ishlab

chiqarilgan har bir donmahsuloti turi bo'yicha alohida ma'lumotni ega bo'lish maqsadida amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlari tarkibida quyidagi qo'shimcha ishchi schyotlardan foydalanish tavsiya qilinadi:

- 2010 – “Un-yorma ishlab chiqarish” schyoti;
- 2020 – “Kombikorma ishlab chiqarish” schyoti;
- 2030 – “Omuxta yem ishlab chiqarish” schyoti;
- 2040 – “Urug'lik don tayyorlash” schyoti;
- 2050 – “Boshqa don mahsulotlarni ishlab chiqarish” schyoti.

Ishlab chiqarish xarajatlarining paydo bo'lish joylari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlari bo'yicha hisobini tashkil etishda tavsiya etilgan qo'shimcha ishchi schyotlarining analitik hisobi mahsulot navlari bo'yicha alohida-alohida ochilgan kartochkalarda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 3 martda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016 yil 31 martda ma'qullangan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2025 yilda “Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” F-59-sonli farmoyishi.
3. Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007 yil 22 apreldagi 100, 2006-44-son qarori bilan tasdiqlangan “Don va don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va sotish bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish to'g'risidagi” yo'riqnomasi.
4. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020 yil 28 maydagi 24-son buyrug'i “O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (4-sonli BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”” (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3259).
5. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug'i 3-ilova “Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS) 2 “Zaxiralar”” (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2022 yil 9 dekabrda 3400-son bilan ro'yxatga olingan).
6. К.Н. Балашова Й.И. Новиков.Инвентаризация как метод получения аудиторских доказательств достоверности учета готовой продукции // Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. – 2017, №3 (10) июль -сентябрь.
7. А.А. Karimov, Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. – T. “Sharq”, 2004. – 592 bet.
8. Д.А., Лепехина Й. С. Диденко М.А. Кубар “Сушность понятия готовая продукция и особенности ее учета”. “Экономика и сотсиум” №6 (15) 2015.
9. Xolbekov R.O. Ishlab chiqarish hisobini tashkil qilish tamoyillari va uslubiyoti-T.:“FAN”, 2005-198 b.

Abdullayev Abror Bozarboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliyaviy tahlil" kafedrası dotsenti, PhD.,
abdullayev_abror@tsue.uz, ORCID: 0000-0001-8981-6708

**SOLIQ TO'LOVLARI HAJMINING O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR
TAHLILINING NAZARIY JIHLTLARI****Абдуллаев Аброр Бозарбоевич**

Ташкентский государственный экономический университет
Доцент кафедры «Финансовый анализ», PhD., abdullayev_abror@tsue.uz,
ORCID: 0000-0001-8981-6708

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АНАЛИЗА ФАКТОРОВ ВЛИЯЮЩИХ НА
ИЗМЕНЕНИЯ ОБЪЕМА НАЛОГОВЫХ ПЛАТЕЖЕЙ****Abdullayev Abror Bozarboyevich**

Associate Professor of the Department of "Financial Analysis" of Tashkent State University of
Economics, PhD., abdullayev_abror@tsue.uz,
ORCID: 0000-0001-8981-6708

**THEORETICAL ASPECTS OF ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING CHANGES IN
THE VOLUME OF TAX PAYMENTS****Annotatsiya:**

Ushbu maqolada korxonaning soliq to'lovlari hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida soliq to'lovlari hajmini shakllantiruvchi iqtisodiy faoliyat hajmi, moliyaviy natijalar, soliq qonunchiligi, soliq ma'murchiligi samaradorligi hamda makroiqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Shuningdek, soliq bazasining kengayishi va soliq yuki darajasi o'rtasidagi bog'lanishlar ilmiy asoslangan tahlil usullari orqali ochib berildi. Korxonalarda soliq to'lovlari hajmini boshqarishda soliq to'lovlarini rejalashtirish, hisob-kitob tizimini takomillashtirish va qonun doirasidagi imtiyozlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Olingan xulosalar soliq siyosatini takomillashtirish, korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish hamda davlat byudjeti tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Tayanch so'zlar:

soliq to'lovlari, soliq yuki, soliq bazasi, moliyaviy natijalar, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq qonunchiligi, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, soliq hisoboti, soliq imtiyozlari, makroiqtisodiy omillar, inflyatsiya, valyuta kursi, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация:

В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются факторы, влияющие на изменение объема налоговых платежей компании. В ходе исследования на основе системного подхода изучались объем экономической деятельности, формирующий объем налоговых платежей, финансовые результаты, налоговое законодательство, эффективность налогового администрирования и взаимозависимость макроэкономических факторов. Также с помощью научно обоснованных методов анализа

были выявлены связи между расширением налоговой базы и уровнем налоговой нагрузки. Показано, что планирование налоговых платежей, совершенствование системы расчета и эффективное использование льгот в рамках закона имеют важное значение для управления объемом налоговых платежей на предприятиях. Полученные выводы могут быть использованы при разработке научно-практических рекомендаций, направленных на совершенствование налоговой политики, повышение финансовой стабильности предприятий и обеспечение стабильного роста доходов государственного бюджета.

Ключевые слова:

налоговые платежи, налоговое бремя, налоговая база, финансовые результаты, налог на прибыль, налог на добавленную стоимость, налоговое законодательство, налоговая политика, налоговое администрирование, налоговая отчетность, налоговые льготы, макроэкономические факторы, инфляция, обменный курс, экономическая стабильность, финансовая стабильность.

Abstract:

This article analyzes the factors influencing changes in a company's tax payments from a scientific, theoretical, and practical perspective. Using a systems approach, the study examined the volume of economic activity that determines tax payments, financial results, tax legislation, the effectiveness of tax administration, and the interdependence of macroeconomic factors. Using scientifically sound analytical methods, the links between the expansion of the tax base and the level of the tax burden were also identified. It is shown that tax payment planning, streamlining the calculation system, and effectively using tax benefits within the law are essential for managing the volume of tax payments at enterprises. The findings can be used in developing scientific and practical recommendations aimed at improving tax policy, enhancing the financial stability of enterprises, and ensuring stable growth of state budget revenues.

Key words:

tax payments, tax burden, tax base, financial results, income tax, value added tax, tax legislation, tax policy, tax administration, tax reporting, tax incentives, macroeconomic factors, inflation, exchange rate, economic stability, financial stability.

Kirish

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda davlat soliq tizimining samaradorligi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korxonalar tomonidan to'lanadigan soliq to'lovlari hajmi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois, korxonada soliq to'lovlari hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning mohiyati va ta'sir mexanizmini ochib berish iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda soliq tizimini tubdan isloh qilish, soliq yukini optimallashtirish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq muhitini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq stavkalarini pasaytirish, soliq turlarini qisqartirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining joriy etilishi korxonalar faoliyatiga hamda ularning soliq majburiyatlari hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa soliq to'lovlarining o'zgarishini yangi yondashuvlar asosida tahlil qilishni taqozo etadi.

Korxonalar soliq to'lovlari hajmi faqat soliq qonunchiligi bilan emas, balki iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy-boshqaruv va tashqi muhit omillari bilan ham bevosita bog'liqdir. Soliq islohotlari

sharoitida mazkur omillar o‘zaro ta‘sirining kuchayishi, ayrim omillarning ahamiyati ortishi yoki kamayishi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, korxonalarda soliq to‘lovlari hajmining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillarni kompleks va tizimli tahlil qilish amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, soliq rejalashtirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mazkur maqola O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari sharoitida korxonada soliq to‘lovlari hajmining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari soliq yukini baholash, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash hamda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda korxonaning soliq to‘lovlari hajmining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash maqsadida kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini soliq nazariyasi, moliyaviy boshqaruv konsepsiyalari, institutsional iqtisodiyot hamda soliq ma‘murchiligini takomillashtirishga oid xorijiy va milliy ilmiy manbalar tashkil etdi. Ushbu yondashuv soliq to‘lovlari hajmini iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari, moliyaviy natijalar va institutsional muhit bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini berdi. Soliq to‘lovlari hajmi bilan asosiy ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda iqtisodiy-statistik tahlil elementlaridan foydalanilib, olingan natijalar umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish orqali tadqiqot maqsadiga muvofiq talqin etildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Soliq to‘lovlari hajmining shakllanishi va uning o‘zgarishi masalasi ilmiy tadqiqotlarda uzoq yillardan beri muhokama qilib kelinadi. Xorijiy iqtisodiy nazariyalardan kelib chiqib, E. Xelfert, R. Anderson va D. Roberts kabi olimlar soliq yukining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi iqtisodiy va moliyaviy omillarni keng qamrovda tahlil qilishgan. Ularning tadqiqotlari foyda hajmi, tannarx, ishlab chiqarish hajmi va realizatsiya tushumi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar soliq to‘lovlari hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi, degan xulosaga asoslangan. Shuningdek, ular soliq stavkalari va soliq bazasini aniqlash qoidalarining o‘zgarishi uzoq muddatli soliq yukini belgilaydi, degan nazariy yondashuvni ilgari surishgan.

O‘zbekistondagi tadqiqotlar ham shu yo‘nalishda rivojlanmoqda. M.Alimova, Sh.Qodirova va F.Mamatovning ilmiy ishlarida mahalliy shart-sharoitlarda soliq to‘lovlari hajmining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar qat’iy tizimli ravishda tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar, soliq imtiyozlari, shuningdek, korxonalarining moliyaviy barqarorligi va boshqaruv sifati soliq to‘lovlari hajmida asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston amaliyotida raqamlashtirish jarayonlari va soliq ma‘murchiligidagi islohotlar ham ushbu omillarning ta‘sirini yanada mustahkamlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda shuningdek institutsional omillar ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Xorijiy olimlar, jumladan, S. Robinson va P. Sanders, soliq organlari bilan o‘zaro munosabatlar, soliq nazorati samaradorligi va elektron hisob-faktura tizimlari soliq to‘lovlari hajmi va uning o‘zgarishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, deb hisoblaydilar. O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar institutsional mexanizmlar va soliq nazoratining modernizatsiyasi korxonalarda soliq yukining qisqarishiga yoki qonuniy optimizatsiyaga olib kelishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Korxonada soliq to'lovlari hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili mazusi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar¹

t / r	Mualliflar	Davlat / Iqtisodiy muhit	Asosiy nazariy yondoshuv	Tahlil qilingan omillar	Asosiy xulosa
1.	E. Xelfert	Germaniya, Yevropa	Soliq yuki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq	Ishlab chiqarish hajmi, foyda, tannarx, realizatsiya tushumi	Soliq to'lovlari hajmi asosan iqtisodiy va moliyaviy omillarga bog'liq, soliq stavkalari o'zgarishi uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi
2.	R. Anderson	AQSH	Soliq yukining dinamikasi va foyda bilan bog'liqligi	Foyda hajmi, tannarx, bozor kon'yunkturasi	Moliyaviy barqarorlik va tannarx o'zgarishi soliq to'lovlari hajmida hal qiluvchi ahamiyatga ega
3.	D. Roberts	Kanada	Soliq bazasi va stavkalari modeli	Soliq stavkalari, soliq bazasi, imtiyozlar	Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar soliq yukini sezilarli ravishda o'zgartirishi mumkin
4.	M.Alimova	O'zbekiston	Korxonalarda soliq yuki tahlili	Soliq qonunchiligi, imtiyozlar, moliyaviy barqarorlik, boshqaruv sifati	Soliq islohotlari va raqamlashtirish jarayonlari korxonada soliq yukini qonuniy ravishda optimallashtirish imkonini beradi
5.	Sh.Qodirova	O'zbekiston	Soliq va moliyaviy samaradorlik munosabati	Foyda, tannarx, soliq stavkalari, boshqaruv tizimi	Soliq majburiyatlarini hisobga olishda ichki nazorat va boshqaruv tizimi ahamiyati yuqori
6.	F.Mamatov	O'zbekiston	Soliq islohotlari va institutsional mexanizmlar	Soliq organlari, nazorat, elektron hisob-faktura	Institutsional omillar va soliq ma'murchiligi samaradorligi soliq to'lovlari hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi
7.	S. Robinson	Buyuk Britaniya	Institutsional va raqamlashtirilgan soliq tizimlari	Soliq organlari bilan o'zaro munosabat, soliq nazorati, elektron hisob-faktura	Institutsional omillar soliq yukini nazorat qilish va qonuniy optimizatsiyada muhim ahamiyatga ega
8.	P. Sanders	AQSH	Soliq ma'murchiligi samaradorligi va korporativ moliya	Soliq nazorati, elektron hisob-faktura, ichki nazorat	Soliq yukining samarali boshqarilishi institutsional va moliyaviy mexanizmlar orqali ta'minlanadi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar soliq to‘lovlari hajmining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillarning turli jihatlariga urg‘u qo‘yishgan. Xorijiy tadqiqotlar asosan iqtisodiy va moliyaviy omillarga, shuningdek soliq qonunchiligi dinamikasiga e‘tibor qaratadi. O‘zbekiston tadqiqotlari esa soliq islohotlari, institutsional mexanizmlar va raqamlashtirish jarayonlariga ko‘proq urg‘u beradi. Bu esa korxonada soliq yukini tahlil qilishda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, korxonada soliq to‘lovlari hajmini tahlil qilishda iqtisodiy, moliyaviy, soliq-huquqiy va boshqaruviy omillarning o‘zaro ta‘siri ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari ushbu sohada kompleks tahlil va modellashtirishni amalga oshirish imkonini beradi, bu esa soliq yukini baholash va samarali soliq siyosatini rivojlantirishda muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan xorijiy va milliy olimlarning ilmiy izlanishlari korxonalarda soliq to‘lovlari hajmining shakllanishi va o‘zgarishi masalasini turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tadqiq etganini ko‘rsatadi. Xususan, E.Xelfert va R.Anderson ishlarida soliq to‘lovlari hajmining iqtisodiy o‘sish, foyda va bozor kon’yunkturasi bilan bog‘liqligi ustuvor yo‘nalish sifatida asoslab berilgan bo‘lib, bu yondashuv soliq tushumlarini makroiqtisodiy jarayonlar bilan uyg‘un holda tahlil qilish imkonini yaratadi. Biroq ushbu tadqiqotlarda soliq ma‘murchiligi va institutsional omillarning ta‘siri yetarlicha chuqur yoritilmagani mazkur masalaning cheklangan jihatlaridan biri hisoblanadi.


D.Roberts hamda S.Robinsonning ilmiy ishlarida soliq bazasi, stavkalar va institutsional nazorat mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu yondashuv soliq to‘lovlari hajmining huquqiy va institutsional muhitga bog‘liqligini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlarda korxonalarining ichki moliyaviy boshqaruv qarorlari va soliq rejalashtirish imkoniyatlarining ta‘siri cheklangan darajada tahlil qilingan.

Mamlakatimiz olimlari M.Alimova, Sh.Qodirova va F.Mamatovning tadqiqotlari O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida soliq to‘lovlari hajmining shakllanish xususiyatlarini ochib berishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega. Ularning ishlarida soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, elektron hisob-fakturalar va raqamlashtirilgan nazorat tizimlarining joriy etilishi soliq to‘lovlari hajmining barqaror o‘sishiga xizmat qilishi ilmiy asoslangan. Biroq, mazkur izlanishlarda ayrim hollarda omilli iqtisodiy tahlil va statistik modellashtirish usullarining cheklangan qo‘llanilishi kuzatiladi.

P.Sanders hamda boshqa amerikalik tadqiqotchilarning ishlarida soliq nazorati va institutsional mexanizmlarning samaradorligi soliq to‘lovlari hajmini oshirishning asosiy omili sifatida talqin etiladi. Maqola muallifi nuqtai nazaridan, mazkur yondashuv soliq intizomini ta‘minlashda muhim bo‘lsa-da, uni korxonalarining iqtisodiy manfaatlari va moliyaviy barqarorligi bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llash zarur. Shu bois, mazkur maqolada xorijiy va milliy tadqiqotlar natijalarini integratsiya qilgan holda, soliq to‘lovlari hajmining o‘zgarishini iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillar majmuasi sifatida kompleks tahlil qilish maqsad qilib qo‘yildi.

Natija va muhokama

Korxonaning soliq to‘lovlari hajmi iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va tashkiliy omillar ta‘sirida shakllanadi hamda vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Ushbu omillarning tarkibi, xususiyati va ta‘sir darajasi korxonaning faoliyat ko‘lami, sohaviy mansubligi va amaldagi soliq siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan ushbu omillarni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Korxonada soliq to'lovlari xajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi².

Iqtisodiy omillar korxonada soliq bazasining shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan olinadigan tushum, tannarx darajasi va foyda hajmining o'zgarishi soliq to'lovlari miqdorini belgilaydi. Ishlab chiqarish kengayishi yoki qisqarishi soliq solinadigan obyektlar soni va qiymatining o'zgarishiga olib keladi, bu esa soliq to'lovlari hajmining mutanosib ravishda o'sishi yoki kamayishini ta'minlaydi.

Moliyaviy omillar korxonaning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi bilan bog'liqdir. Foyda me'yori, likvidlik darajasi, qarz majburiyatlari ulushi hamda investitsiya faolligi soliq to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishiga ta'sir qiladi. Masalan, yuqori qarz yukiga ega korxonalarda soliq to'lovlarini kechiktirish holatlari kuzatilishi mumkin, bu esa penya va jarimalar orqali umumiy soliq yukining ortishiga sabab bo'ladi.

Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar soliq to'lovlari hajmiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq stavkalarining oshirilishi yoki kamaytirilishi, soliq imtiyozlarining joriy etilishi yoki bekor qilinishi, soliq bazasini aniqlash tartibining o'zgarishi korxonada soliq majburiyatlarining tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning ta'siri, odatda, yuqori darajada bo'lib, qisqa muddat ichida soliq to'lovlari hajmini o'zgartirishi mumkin.

Institutsional omillar soliq ma'murchiligi samaradorligi, soliq organlari bilan o'zaro munosabatlar va raqamlashtirish darajasi bilan ifodalanadi. Soliq hisobotlarini avtomatlashtirish, elektron hisobvaraqa-fakturalar tizimi va soliq nazoratining shaffofligi soliq to'lovlarining to'g'ri hisoblanishi va kamaytirilgan xavflar asosida to'lanishiga xizmat qiladi. Ushbu omillar ta'sir ko'lamini jihatidan bilvosita bo'lsada, uzoq muddatli natijalarga ega.

Korxonada soliq hisobini tashkil etish darajasi, buxgalteriya hisobi sifati va ichki nazorat tizimi soliq to'lovlari hajmining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq rejalashtirish

² Muallif tomonidan ishlab chiqildi

usullaridan oqilona foydalanish soliq yukini qonuniy doirada optimallashtirish imkonini beradi. Aksincha, boshqaruvdagi kamchiliklar soliq xatolari va qo'shimcha moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasi, valyuta kursining o'zgarishi hamda bozor kon'yunkturasi korxonada faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, inflyatsiya sharoitida nominal tushum oshishi soliq bazasining kengayishiga olib keladi, ammo real foyda o'smasligi soliq yukini nisbatan og'irlashtiradi.

Umuman olganda, korxonada soliq to'lovlari hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularning ta'sir darajasi to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita, qisqa va uzoq muddatli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu omillarni ilmiy asosda tahlil qilish soliq yukini baholash, soliq rejalashtirishni takomillashtirish hamda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari korxonaning soliq to'lovlari hajmi ko'p omilli iqtisodiy ko'rsatkich ekanini hamda uning shakllanishi va o'zgarishi ichki va tashqi omillarning o'zaro bog'liq ta'siri natijasida yuzaga kelishini tasdiqladi. Tahlil jarayonida iqtisodiy faoliyat hajmi, moliyaviy natijalar va soliq bazasining kengayishi soliq to'lovlari o'sishining asosiy manbalari sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining pasayishi soliq tushumlarining qisqarishiga olib kelishi aniqlandi.

Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar soliq to'lovlari hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Xususan, soliq stavkalari va imtiyozlar tizimidagi islohotlar qisqa muddatda soliq tushumlariga turlicha ta'sir etsa-da, o'rta va uzoq muddatda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali soliq bazasini kengaytirish imkonini beradi. Bu holat soliq siyosatining barqaror va prognoz qilinadigan bo'lishi korxonalar moliyaviy rejalashtirishida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar korxonada moliyaviy boshqaruvi va soliq ma'murchiligining samaradorligi soliq to'lovlari hajmini optimallashtirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanini tasdiqladi. Soliq hisob-kitoblarining shaffofligi, raqamlashtirilgan hisobot tizimlaridan foydalanish hamda qonun doirasida amalga oshiriladigan soliq rejalashtirish chora-tadbirlari soliq yukini kamaytirish bilan birga moliyaviy risklarni cheklashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, korxonaning soliq to'lovlari hajmining o'zgarishi makroiqtisodiy muhit, institutsional sharoit va korxonada ichki boshqaruv qarorlarining uyg'unligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari soliq yukini oqilona boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va davlat byudjeti tushumlarini oshirish yo'lida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy-amaliy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: "Adolat", 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatini isloh qilish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni. — Toshkent, 2023.
3. Қодиров, Н.Р.; Абдуллаев, Ш.Х. Солиқ сиёсати ва солиқ маъмурияти. — Тошкент: ТМИ нашрлари, 2022.
4. Жўраев, О.Х. Корхоналарда молиявий ҳисоб ва назорат. — Тошкент: "Иқтисодчи", 2021.
5. Хелферт, Э. Финансий ва солиқ назарияси. — Германия, 2020.
6. Андерсон, Р. Корпоратив молия ва солиқ юки. — АҚШ, 2019.
7. Робертс, Д. Солиқ ставкалари ва базасининг динамикаси. — Канада, 2018.

8. Робинсон, С. Институционал омиллар ва солиқ маъмурчилиги. — Буюк Британия, 2021.
9. Сандерс, П. Электрон ҳисоб-фактура ва солиқ назорати. — АҚШ, 2020.
10. Алимова, М. Солиқ ислоҳотлари ва корхоналарда солиқ юки. — Тошкент: “Иқтисодчи”, 2022.
11. А.Абдуллаев, Халқаро аудит стандартлари асосида солиқ аудити методологиясини такомиллаштириш. // Scientific Journal of “International Finance & Accounting”, 11.12.2025 йил.
12. А.В.Абдуллаев, Budget daromadlari ijrosini ta’minlashda soliqlar hisobi va tahlilining ahamiyati. // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal, 2025-yil, may. № 5.
13. Қодирова, Ш. Солиқ ва молиявий самарадорлик муносабати. — Тошкент, 2021.
14. Маматов, Ф. Институционал механизмлар ва солиқ назорати. — Тошкент, 2022..

Э.У. Умурзоков,
Соискатель кафедры
«Цифровая экономика» ТГЭУ

СТРАТЕГИЯ СОВРЕМЕННОГО МЕНЕДЖМЕНТА И МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ

Аннотация

В статье рассматриваются ключевые направления развития современной стратегии менеджмента, а также методы управления стратегическими изменениями в организациях. Анализируются факторы внешней и внутренней среды, влияющие на необходимость трансформации бизнес-моделей. Особое внимание уделено гибким подходам к управлению, цифровой трансформации, инновационным стратегиям и организационному развитию. Статья опирается на современную научную литературу и практический опыт, предлагая выводы о наиболее эффективных инструментах управления стратегическими изменениями.

Ключевые слова

стратегический менеджмент, организационные изменения, цифровая трансформация, инновационная стратегия, управление изменениями, гибкие методы управления, конкурентоспособность, лидерство.

Введение

Современный менеджмент функционирует в условиях высокой динамичности внешней среды, цифровизации, глобализации и растущей конкуренции. В таких условиях стратегическое управление становится ключевым фактором устойчивого развития организаций. Необходимость стратегических изменений возникает из-за появления новых технологий, изменений в поведении потребителей, ужесточения регуляторных требований и развития глобальных рынков.

Успех компании во многом определяется эффективностью стратегического менеджмента и способностью руководства внедрять адаптивные изменения. Цель данной статьи — исследовать современные подходы к стратегии менеджмента и проанализировать методы управления стратегическими изменениями.

Методология исследования.

Методологическая основа исследования опирается на комплексный подход, позволяющий всесторонне изучить сущность современной стратегии менеджмента и определить наиболее эффективные методы управления стратегическими изменениями. В работе использовались как теоретические, так и эмпирические методы анализа, что обеспечивает достоверность и обоснованность полученных выводов.

В статье применён анализ научной литературы, сравнительный анализ, комплексное исследование факторов, метод обобщения практического опыта, структурно-функционального анализа.

Представленная методология обеспечивает комплексность и научную обоснованность исследования, что позволяет объективно оценить тенденции современного менеджмента и предложить рекомендации по управлению стратегическими изменениями.

Обзор литературы. Исследования в области стратегического менеджмента и управления стратегическими изменениями имеют богатую теоретическую основу, формирующуюся на протяжении последних десятилетий. Классические труды М. Портера[1,2] стали фундаментом для понимания конкурентной стратегии, структуры отрасли и моделей позиционирования компании. Его концепция «пяти конкурентных сил» и модель цепочки ценности до сих пор используются в стратегическом анализе, позволяя компаниям оценивать конкурентные преимущества и определять направления развития.

Значительный вклад в развитие стратегического менеджмента внес Bashir M., Verma R., который предложил классификацию стратегических школ, включающую плановую, предпринимательскую, когнитивную, обучающую и другие концепции[3]. Его исследования показывают, что стратегия может формироваться как рационально-плановый, так и эмерджентный процесс, что особенно актуально в условиях неопределённости и быстрого изменения внешней среды.

В области управления стратегическими изменениями широкое признание получила модель Дж. Коттера[4], включающая восемь этапов внедрения изменений — от формирования чувства срочности до закрепления результатов. Коттер подчёркивает важность лидерства, коммуникации и участия сотрудников в процессе трансформации.

Другим важным подходом является модель ADKAR[5], предложенная Prosci, согласно которой успешные изменения зависят от уровня осведомлённости сотрудников, их мотивации, знаний, умений и последующего подкрепления. Модель ADKAR активно используется в современных компаниях благодаря своей ориентированности на человеческий фактор.

Современные исследователи, такие как П. Друкер, К. Прахалад и Г. Хэмел[6], акцентируют внимание на инновационном потенциале организации и стратегическом мышлении руководителей. Работы Хэмела и Прахалада по концепции «основных компетенций» показывают, что конкурентоспособность компании определяется не только внешней стратегией, но и внутренними уникальными ресурсами.

Современная литература также подчёркивает важность цифровой трансформации в стратегическом менеджменте. Исследования McKinsey, Boston Consulting Group и Deloitte[12] демонстрируют, что цифровые технологии — искусственный интеллект, большие данные, облачные решения — становятся ключевыми драйверами стратегических изменений и требуют адаптации организационных структур.

Большое внимание уделяется гибким методам управления (Agile, Lean, OKR), которые подробно рассматриваются в работах Э. Риса, Д. Сазерленда и Б. Доэрра[9]. Эти концепции доказывают, что гибкость, быстрые итерации и ориентация на данные позволяют компаниям эффективнее реагировать на рыночные изменения.

По нашему мнению, анализ литературы показывает, что стратегический менеджмент эволюционирует в сторону гибкости, инновационности и ориентированности на цифровые технологии. Управление изменениями рассматривается как многоуровневый процесс, объединяющий стратегические инструменты, лидерство и культуру организации.

Анализ. Современная ситуация в теории и практике мирового управления характеризуется сосуществованием и взаимодействием трех основных подходов: системного, процессного и ситуационного (при явном доминировании последнего). Они направлены на синтез и развитие разработанных ранее взглядов основных «школ управления», а также на разработку новых представлений об управлении. В связи с параллельным существованием

ряда подходов общий спектр современных теоретических и прикладных разработок чрезвычайно широк и многообразен. Результатом этого является фактически исчерпывающий охват современными исследованиями всех основных проблем управления.

Необходимость управленческой деятельности определяется наличием организаций, в которых люди совместно работают для достижения общих целей. Именно совместная деятельность людей, требующая координации, согласования, обеспечения, определяет необходимость управления.

Многообразие форм собственности, конкуренция между предприятиями, развитие рыночных отношений требуют четкого, умелого управления. Система управления должна обеспечить условия, при которых каждый руководитель любого уровня считал бы своей задачей организацию активного поиска реальных возможностей повышения результативности производства. Вместе с тем она должна обладать способностью к достаточному саморегулированию и самосовершенствованию, направленному на широкое применение новых высокоэффективных организационных форм и методов управления, технологий и научно-технических достижений.

Эффективность деятельности предприятий любой формы собственности обуславливается не только возможностями капиталовложений в современное оборудование, но и квалификацией руководителей, уровнем их компетенции, умением предвидеть, вовремя принимать и реализовывать необходимые решения.

Современный менеджмент – это тысячи возможных вариантов и нюансов управленческих решений. Он не дает готовых рецептов, а помогает, предлагая общие принципы и функции управления, найти способы и пути решения конкретных проблем, добиться успеха организации.

В общем и целом необходимость управления определяется тем, что именно оно определяет успешную деятельность организаций.

Теорию управления принято рассматривать как комплексную науку или научное направление, опирающееся на многие теоретические и прикладные знания. Это объясняется многогранностью проблемы управления и многоаспектностью управленческой деятельности, основанной на сознательном использовании экономических, естественно-технических, организационных, социально-психологических законов и закономерностей, присущих объекту управления. Теория управления должна быть ориентирована на решение практических задач.

Элементами управления как всеобщего вида человеческой деятельности являются цель управления и способ достижения цели, объект и субъект управления, взаимодействующие в определенной окружающей среде.

Предметом рассмотрения теории управления являются управленческие (организационно-управленческие, организационно-экономические) отношения, реализующиеся как информационные связи при организации предприятия и управлении им.

Процесс управления включает сбор, переработку и передачу информации (предмет управленческого труда), используемой для выработки решений (продукт управленческого труда). Средства труда в управленческой деятельности – методы и средства обработки и анализа информации и принятия на этой основе конкретных решений.

Функции управления можно условно разделить на: *общие* и *специальные*.

Перечень функций расширяется по мере усложнения производства и управления. В современных системах управления каждая из функций управления выполняется, как правило,

коллективно, поэтому естественно выделение функций, отражающих разделение труда: учет, анализ, прогнозирование, регулирование и др.

Современный менеджмент можно определить как стратегический. Имеются различия в понимании сущности стратегического менеджмента и его отличий от оперативного управления. Многие специалисты считают, что необходимо различать текущее управление на уровне производства и управление, осуществляемое на высшем уровне.

Стратегический менеджмент, осуществляемый в условиях имманентно изменчивой и неопределенной среды, призван находить возможности эффективного управления организацией.

С этой позиции стратегический менеджмент предполагает:

- наличие четко обозначенных целей, путей и ресурсов их достижения;
- открытость системы – ее быстрая приспособляемость к меняющемуся окружению;
- ориентацию на изучение ограничений, накладываемых рыночной средой (внешние факторы);
- расчет темпов по обстоятельствам (согласно конъюнктуре экономики);
- увеличение горизонта планирования в связи с непредсказуемостью далеких последствий;
- решающее значение фактора времени (в конкурентной борьбе);
- риск как форму бытия организации;
- изменения как движущую силу, изменчивость критериев развития;
- прибыль с учетом социальных интересов;
- гибкость структуры организации (ее адаптивные возможности) как открытой системы, подверженной постоянному воздействию многочисленных факторов внешней среды.

Стратегический менеджмент является сферой деятельности высшего руководства организации, и важнейшая его обязанность состоит в определении предпочтительных направлений и траекторий развития организации, постановке основополагающих целей, распределении ресурсов оптимальным образом, использовании всего того, что дают организации конкурентные преимущества. Персонал организации также должен иметь реальное представление о ее целях и возможностях их достижения при определяющем значении внешней среды. Именно в ней и заключен основной источник информации, содержащей необходимые сведения о своевременности выявления проблем организации и способов их решения.

Цели организации представлены в ее стратегии (стратегиях). По своему содержанию стратегия – это модель действий организации, в которой определены стратегические направления ее развития, сферы, формы и технологии, применяемые для достижения поставленных целей. Важнейшей целью является (должно являться) обеспечение конкурентных преимуществ, гарантирующих приемлемый уровень рентабельности хозяйственной деятельности.

Организация – весьма сложное образование. Достижение ею цели сопряжено с выполнением многих взаимодополняющих субстратегий. Их объединение и приносит прогнозируемые результаты. Различаются стратегии трех видов: корпоративные – общие для организации, по отдельным направлениям деятельности (бизнеса) и функциональные – маркетинга, исследований, повышения профессионального потенциала сотрудников и др.

При разработке стратегии любого вида необходимо учитывать особенности организации: ее назначение и сферы интересов, обеспеченность ресурсами, возможности создания и реализации конкурентных преимуществ, рыночную конъюнктуру, корпоративную

культуру, профессиональный уровень кадров, их готовность к оправданному риску. Большое влияние на качество разработки стратегии и последующее ее выполнение оказывают ценностные ориентации руководителей высшего уровня и масштаб их амбиций.

Таким образом, при разработке стратегии необходимо ставить следующие задачи:

– создать работоспособную организационную структуру, наладить четкое взаимодействие организации с внешней средой, а также управляющей и управляемой подсистемами, поскольку правильное соотношение между структурными составляющими системы является обязательной предпосылкой ее успешного функционирования и развития;

– аргументировать выбор целей, в рамках и для достижения которых планируется объем выпуска продукции с достаточным ресурсным обеспечением, разрабатываются программы ее продвижения на рынке, проектируются новые технологии;

– достичь максимальной индивидуализации, исходя из того, что всякая организация по определению уникальна (неповторима) и отличается материально-технической базой, условиями ресурсного обеспечения, корпоративной культурой, составом кадров и другими особенностями, которые непременно должны учитываться;

– проводить исследования и поиск новых направлений, форм организации бизнеса, адекватных меняющейся рыночной конъюнктуре и ориентированных на сохранение, повышение и реализацию конкурентоспособных преимуществ организации;

– придерживаться политики мотивации персонала и разработки системы вознаграждений.

Управление в рыночной экономике характеризуется постоянной корректировкой или резкой сменой целей организации в связи с меняющейся внешней средой. Для своевременного приспособления системы производства и управления необходимы постоянный прогноз меняющейся обстановки и заблаговременное изменение целей, т.е. руководители должны быть стратегами и осуществлять стратегическое управление. Стратегия - это определенная на достаточно длительный период совокупность ориентиров и направлений, правил и норм деятельности, обеспечивающих организации стабильные экономические показатели и запланированный их рост на основе сохранения и роста конкурентных преимуществ и повышения эффективности всех сторон деятельности.

Стратегическое управление использует различные средства достижения целей: управление по целям, гибкие организационные структуры, менеджмент человеческих ресурсов и др.

Существуют некие принципы (закономерности) управления, понимание и использование которых в работе менеджера является обязательным условием его успешной деятельности. В принципах выражаются требования к системе, структуре организации и процессу управления, а именно:

Принцип духовной ориентации управления. При решении специализированных задач управления этот принцип заключается в том, что менеджмент в процессе адаптации к постоянно меняющимся условиям и объектам управления опирается на национальную философию и не выходит за рамки духовных ценностных ориентиров народа и государства.

Принцип сочетания централизации и децентрализации. В иерархии управления искомые сочетания достигаются посредством рационального распределения полномочий и ответственности на всех уровнях системы управления.

Принцип единоначалия. Данный принцип означает предоставление руководителям организации и ее подразделений власти в объеме, необходимом и достаточном для принятия

решений в пределах своих полномочий (при этом сохраняется соответствующая ответственность за предпринимаемые действия).

Принцип коллегиальности. В необходимых случаях он предполагает совместное общение и выработку решений с привлечением специалистов (однако не в ущерб принципу единоначалия). При всех обстоятельствах право на окончательное принятие решения и ответственность за его последствия сохраняются за руководителем.

Принцип плановости. Согласно ему, определяются основные направления и задачи развития организации с ее ориентацией на долгосрочные цели.

Принцип мотивации. Следуя этому принципу, проводят разработку и реализацию систем вознаграждений (как коллективных, так в особенности и индивидуальных), побуждающих работников к возможно более полному использованию своего трудового потенциала.

Принцип научной обоснованности. В соответствии с ним все решения и действия руководителя должны аргументироваться с научных позиций.

В настоящее время в отечественной управленческой практике существует условное разделение методов и техник управления изменениями на традиционные и современные.

Говоря о традиционных методах управления изменениями следует отметить, что основным направлением их совершенствования сегодня является выделение (а значит и усиление) группы методов, связанных с человеком в процессе труда и такой дисциплиной как «управление человеческими ресурсами». В настоящее время традиционные методы ориентированы в первую очередь на совершенствование составных элементов кадровой политики: планирование и организация труда, его анализ и проектирование, применение классических организаторских техник.

Заключения. Проведённое исследование показало, что современный стратегический менеджмент представляет собой многоуровневую и динамичную систему, которая формируется под воздействием технологических, экономических, социальных и организационных факторов. В условиях стремительных изменений внешней среды стратегическое управление становится ключевым инструментом обеспечения долгосрочной конкурентоспособности и устойчивого развития организаций.

Анализ теоретических подходов и практических моделей показывает, что традиционные методы стратегического планирования уже не способны в полной мере обеспечить необходимую гибкость и адаптивность. Современные компании сталкиваются с высокой степенью неопределённости, цифровой трансформацией и ускорением бизнес-процессов, что требует применения гибких, инновационных и основанных на данных стратегий.

Методы управления стратегическими изменениями, включающие модели Коттера, ADKAR, подходы Agile и Lean, доказали свою эффективность в условиях нестабильных рынков. Они позволяют организациям не только адаптироваться, но и проактивно формировать будущие направления развития. Успех стратегических преобразований во многом зависит от лидерства, корпоративной культуры, коммуникаций, а также способности компании формировать коллективное видение будущего.

Важно подчеркнуть, что стратегические изменения — это не разовое действие, а непрерывный процесс, требующий системного подхода, интеграции технологий и активного вовлечения персонала. Компании, ориентированные на инновации и цифровое развитие, получают значительные преимущества: повышение эффективности процессов, улучшение

качества управления, расширение возможностей для роста и укрепление конкурентных позиций на международном рынке.

Результаты исследования подтверждают, что современная стратегия менеджмента должна строиться на принципах адаптивности, открытости к инновациям, ориентации на потребителя и способности к быстрому масштабированию изменений. Организации, способные эффективно сочетать классические стратегические подходы с новыми моделями управления, демонстрируют более высокие показатели устойчивости и результативности.

Таким образом, управление стратегическими изменениями является критическим элементом современной парадигмы менеджмента. Оно обеспечивает построение гибких организационных структур, формирование инновационной культуры и использование цифровых инструментов, необходимых для успешного функционирования в условиях высокой конкуренции и постоянных вызовов внешней среды. Дальнейшие исследования могут быть направлены на изучение влияния искусственного интеллекта, больших данных и автоматизации на стратегические решения и трансформацию бизнес-моделей.

Список использованных источников

1. Porter, M. E. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. — New York: Free Press, 1980.
2. Ali B.J., Anwar G. (2021). Porter's Generic Competitive Strategies and its influence on the Competitive Advantage. *International Journal of Advanced Engineering, Management and Science*, vol. 7, no. 6, pp. 42–51. <https://doi.org/10.22161/ijaems.76.5>.
3. Bashir M., Verma R. (2017, March). Why Business Model Innovation Is the New Competitive Advantage. *The IUP Journal of Business Strategy*. <https://www.iupindia.in>.
4. Kotter, J. P. *Leading Change*. — Harvard Business School Press, 1996.
5. Hiatt, J. *ADKAR: A Model for Change in Business, Government and our Community*. — Prosci Research, 2006.
6. Drucker, P. *Management Challenges for the 21st Century*. — HarperBusiness, 1999.
7. Prahalad, C. K., Hamel, G. *Competing for the Future*. — Harvard Business Review Press, 1994.
8. Hamel, G. *Leading the Revolution*. — Harvard Business Review Press, 2000.
9. Doerr, J. *Measure What Matters: OKRs*. — Penguin, 2018.
10. Ries, E. *The Lean Startup*. — Crown Business, 2011.
11. McKinsey & Company. *The Case for Digital Transformation*. — McKinsey Reports, 2019.
12. Deloitte Insights. *Global Human Capital Trends*. — Deloitte, 2020.

Nematova Dilnoza Azamatovna,
Samarqand iqtisodiyot va
servis institutining tayanch doktoranti

**16-SON BHXS “ASOSIY VOSITALAR” STANDARTIGA MUVOVIQ KO‘CHMAS MULK
(YER, BINO), MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR BILAN BOG‘LIQ DAVOMIY
XARAJATLAR HISOBINING METODIK MASALALARI**

Нематова Дилноза Азаматовна,
базовый докторант Самаркандского
института экономики и сервиса

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ УЧЕТА ТЕКУЩИХ ЗАТРАТ, СВЯЗАННЫХ С
НЕДВИЖИМОСТЬЮ (ЗЕМЛЯ, ЗДАНИЯ), МАШИНАМИ И ОБОРУДОВАНИЕМ В
СООТВЕТСТВИИ С 16-М НАЦИОНАЛЬНЫМ СТАНДАРТОМ БУХГАЛТЕРСКОГО
УЧЕТА «ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА»**

Nematova Dilnoza Azamatovna,
PhD candidate of the Samarkand
Institute of Economics and Service

**METHODOLOGICAL ISSUES OF ACCOUNTING FOR ONGOING COSTS RELATED
TO REAL ESTATE (LAND AND BUILDINGS), MACHINERY AND EQUIPMENT IN
ACCORDANCE WITH NATIONAL ACCOUNTING STANDARD NO.16 PROPERTY,
PLANT AND EQUIPMENT**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz hozirgi bosqichida buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish, xorijiy investorlarni jalb qilish, moliyaviy hisobotlarning shafoligini oshirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish va asosiy vositalar bilan bog'liq xarajatlar tahlili keltirilgan. Davomiy xarajatlarning metodik masalalari ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, uzoq muddatli aktivlar, moddiy aktivlar, asosiy vositalar, asosiy vositalarni bozor qiymati va adolatli qiymati, davomiy xarajatlar, eksplutatsiya xarajatlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы реформирования бухгалтерского учёта и финансовой отчётности на современном этапе развития страны, привлечения иностранных инвесторов, повышения прозрачности финансовой отчётности, гармонизации финансовой отчётности с международными стандартами, а также анализ расходов, связанных с основными средствами. Особое внимание уделено методическим вопросам учета текущих (эксплуатационных) расходов.

Ключевые слова: бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, национальные стандарты бухгалтерского учёта, международные стандарты финансовой отчётности, долгосрочные активы, материальные активы, основные средства, рыночная стоимость и справедливая стоимость основных средств, текущие расходы, эксплуатационные расходы.

Abstract: This article examines issues related to the reform of accounting and financial reporting at the current stage of the country's development, the attraction of foreign investors, the enhancement of financial reporting transparency, the harmonization of financial reporting with International Financial Reporting Standards, as well as the analysis of costs associated with property, plant and equipment. Particular attention is paid to the methodological aspects of accounting for ongoing and operating expenses.

Keywords: accounting, financial reporting, national accounting standards, International Financial Reporting Standards, long-term assets, tangible assets, property, plant and equipment, market value and fair value of fixed assets, ongoing costs, operating expenses.

KIRISH

Har bir xo'jalik yuritivchi subekt o'z faoliyatini yuritishni boshlashi bilan turli xil xarajatlar qilishni boshlashadi. Bu nafaqat asosiy vositalar bilan bog'liq xarajatlar balki har bitta bo'lim bilan bog'liq xarajatlar turlari ko'payadi. Ushbu xarajatlar ichida asosiy vositalarga qilinadigan xarajatlar ham muhim hisoblanadi. Raqobatlashgan bozor sharoitida korxonadagi texnika- texnologiyalar va jihozlarni zamon talablariga qarab almashtirib turmasak yoki kerakli ta'mirlash ishlarini olib bormasak, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorligimiz va unumdorligimiz tushib ketishi mumkin. Bu esa mahsulotlar va xizmatlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa "Samarqand don mahsulotlari" AJ va "Hudud gaz ta'minoti" AJ larida zamon talablariga javob beradigan asosiy vositalar yetishmasligi, asosiy vositalarning ko'p qismi to'liq eskirib bolganligi sababli ularga qoshimcha xarajatlar qilish kerakligini ko'rsatib turibdi. "Hudud gaz ta'minoti" AJda aholiga gaz yetkazib berish bilan birga turli xil xizmatlari ham mavjud. Hozirda chekka hududlarga ham suyultirilgan gaz balonlari yetkazilib, aholining ijtimoiy hayotini, ularning turmush tarzini yaxshilash, yengillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari gaz trubalarini yangilash, uzatish moslamalarini mavsumiy ta'mirlash xarajatlari ham korxonaning boshqa operatsion xarajatlariga olib boriladi va moliyaviy hisobotga ta'sir qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda oxirgi yillarda MHXS larini korxonalar amaliyotiga joriy etish masalalari borasida ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar chop etilmoqda. IAS 16 ga ko'ra, asosiy vositalar bilan bog'liq davomiy (keyingi) xarajatlar faqatgina aktivning kelgusi iqtisodiy foydasini oshirgan taqdirda kapitalizatsiya qilinadi, aks holda ular davr xarajatlari sifatida tan olinadi. Bu yondashuv binolarni ta'mirlash, mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini aniq ajratishni talab qiladi[1].

Kieso, Weygandt & Warfield mualliflar fikriga ko'ra, asosiy vositalar bo'yicha keyingi xarajatlarni hisobga olishda asosiy mezon — aktivning xizmat muddati uzaytirilishi yoki ish unumdorligining oshishi hisoblanadi. Oddiy saqlash va ta'mirlash xarajatlari kapitallashtirilmasligi lozim[2].

Libby, Libby & Short ta'kidlashicha, binolar va uskunalar bo'yicha davomiy xarajatlarni noto'g'ri kapitalizatsiya qilish moliyaviy hisobotda aktivlar qiymatining sun'iy oshishiga olib keladi[3].

Grant Thornton amaliyotiga ko'ra, yer bilan bog'liq xarajatlar (obodonlashtirishdan tashqari) amortizatsiyalanmaydi, binolar va mashinalar bo'yicha esa davomiy xarajatlar komponentlar usuli orqali hisobga olinishi maqsadga muvofiq[4].

Deloitte mutaxassislari davomiy xarajatlarni hisobga olishda komponentli hisob (component accounting) metodi asosiy vositalar hisobining sifatini oshirishini ta'kidlaydi[5].

Tashnazarov S.N.ning ta'kidlashicha, 16-son BHXS bo'yicha asosiy vositalarni saqlash, ta'mirlash va modernizatsiya qilish xarajatlarini to'g'ri tasniflash korxonalar moliyaviy natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi[6].

Urazov K.B. davomiy xarajatlarni hisobga olishda "kapital xarajat – joriy xarajat" chegarasini aniq belgilash buxgalteriya hisobining eng murakkab metodik masalalaridan biri ekanini qayd etadi[7].

Kurbonov A.Sh. muallif fikriga ko'ra, mashinalar va asbob-uskunalar bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari odatda joriy xarajat sifatida tan olinishi lozim, faqat ishlab chiqarish quvvatini oshiradigan modernizatsiya holatlarida kapitalizatsiya qilinishi mumkin[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

MHXS'larga ko'ra korxonalar asosiy vositalarni hisob va hisobotda aks ettirish hamda asosiy vositalarni xalqaro standartlarga muvofiq qayta baholash natijalari hisobini takomillashtirishning amaliy masalalarini tadqiq qilishda biz tomonimizdan tizimli yondoshuv, deduksiya, induksiya, tahlil, taqqoslash, qiymatni baholashning diskontlash va boshqa usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mulk, bino va mashina va asbob-uskunalar buxgalteriya hisobida ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hisobi muhim o'rinni egallaydi. Chunki, ushbu jarayon axborotlarning moliyaviy hisobotlarda shakllanishida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalarga qilinadigan xarajatlarni katta qismini ekspluatatsiya xarajatlari tashkil qiladi. Har bitta korxonalar faoliyat yuritir ekan asosiy vositalariga texnik xizmatlar ko'rsatadi va bu texnik xizmatlar o'tkazish muddatlari qancha vaqt ichida o'tkazilishi hisob siyosatida ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday texnik ko'riklar asosan korxonaning xarajatlariga olib boriladi, ammo shunday vaziyatlar borki ishlab turgan texnikaning buzilishi yoki ehtiyot qismlarining ishdan chiqishi oqibatida ushbu asosiy vositalar yaroqsiz holga kelib qoladi. Bunday vaziyatda asosiy vositalarga qilingan xarajatlar asosan asosiy vositalarning balans qiymati summasini oshishiga olib keladi. Ba'zi korxonalarda bunday xarajatlar uchun alohida fondlar ham tashkil qilinadi va qilingan xarajatlar summasi o'sha tashkil qilingan fond summasidan qoplanadi.

Quyidagi 1-jadvalda ekspluatatsiya xarajatlarining turlari va ularni hisobotning qayerlariga olib borilishi ko'rsatilgan hamda yurtimizdagi korxonalar orqali misollar keltirilgan.

1-jadval

Ekspluatatsiya xarajatlarining turlari¹ [1],[9]

Xarajat turi	Hisobda aks ettirilishi	Amaliy misollar
Joriy ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	Balans qiymatiga qo'shilmaydi, foyda va zarar hisobotida tan olinadi	Joriy ta'mirlash: Toshkentdagi sement zavodi 2024-yilda 180 mln so'mlik stanoklarni yog'lash va mayda ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan. Bu xarajatlar "Foyda va zarar" hisobotida ekspluatatsiya xarajati sifatida aks ettirildi.
Yirik qismlar va agregatlarni almashtirish	Tan olish mezonlariga ko'ra aktivning balans qiymatiga qo'shiladi	Yirik qismlarni almashtirish: «UzAirways» aviakompaniyasi har 7 yilda Airbus A320 samolyotida 450 mln so'mlik kreslo va bort jihozlarini yangilaydi. Ushbu xarajatlar asosiy vositalarning qiymatiga qo'shiladi va keyingi yillarda amortizatsiya qilinadi.

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomondan ishlab chiqilgan.

Yirik texnik tekshiruvlar (inspection)	Tan olish mezonlar bajarilganda aktivning qiymatida tan olinadi	Yirik texnik tekshiruv: «O‘zAvtoMotors» AJda ishlatiladigan press-qolip uskunalari har 5 yilda 600 mln so‘mlik texnik diagnostikadan o‘tkaziladi. Bu xarajatlar aktivning qiymatiga kapitalizatsiya qilinadi.
--	---	---


Quyidagi 2-jadvalda korxonalarining ekspluatatsiya xarajatlari 2021-2024 yillar kesimida tahlil qilingan bo‘lib, korxonalarda joriy ta‘mirlashga ketadigan xarajatlar ekspluatatsiya xarajatlariga qaraganda katta qismini tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni joriy ta‘mirlash xarajatlari yirik qism almashtirish xarajatlaridan ikki barobar, texnik ko‘rik va diagnostika xarajatlarining esa uch barobar ko‘pligi aks ettirilgan. Shunday ekan joriy ta‘mirlash xarajatlariga alohida fond tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

2-jadval

O‘zbekiston amaliyotida ekspluatatsiya xarajatlari² (mlrd so‘m) [9]

Yil	Joriy ta‘mirlash	Yirik qism almashtirish	Texnik ko‘rik va diagnostika
2021	820	340	260
2022	950	420	310
2023	1120	510	370
2024	1300	590	450

Quyidagi diagrammada 2021–2024 yillarda O‘zbekiston korxonalarida ekspluatatsiya xarajatlari turlari bo‘yicha dinamika ko‘rsatilgan:



1-diagramma. O‘zbekiston korxonalarida ekspluatatsiya xarajatlari turlari bo‘yicha dinamikasi[9]

²https://nrm.uz/contentf?doc=410278_metodika_opredeleniya_tarifa_oplaty_za_soderjanie_i_ekspluatatsiyu_1_kvadratnogo_metra_obshchey_ploshchadi_jilogo_pomeshcheniya_%28zaregistrovanna_myu_05_05_1999_g_n_715_utverjdjena_ministerstvom_kommunalnogo_obslyujvaniya_16_04_1999_g_n_63%29&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana&utm_source

Izoh: 2024-yil ma'lumotlari Davlat statistika qo'mitasi va ayrim AJ korxonalarining moliyaviy hisobotlari asosida tuzilgan.

IAS 16 §12–14 talablariga ko'ra, mayda ta'mirlar xarajat sifatida, yirik qism almashtirish va yirik tekshiruvlar esa aktiv qiymati sifatida tan olinadi[1]. O'zbekiston AJ korxonalarida so'nggi yillarda joriy ta'mirlash xarajatlari o'sishda, chunki eski texnikalar soni ko'p. Yirik qismlar va tekshiruvlar xarajatlari esa kapitalizatsiya orqali balans qiymatini oshirib, keyingi davrlarda amortizasiyaga ta'sir qiladi.

Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalar bilan bog'liq kelgusi xarajatlar aktiv sifatida tan olinadi, qachonki ular boshlang'ich hisoblagan normativlariga nisbatan mehnat unumdorligini oshirishiga olib keladigan holda aktivlarning holatini yaxshilashga sabab bo'lsa:

- a. xizmat qilish muddati va uning quvvatini oshiruvchi Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob-uskunalar ob'ektlari modifikatsiyasi;
- b. ishlab chiqarayotgan mahsulotning sifatini salmoqli darajada yuksalishiga olib keladigan mashinalarning detallari va qismlarini takomillashtirish;
- c. oldingisiga nisbatan ishlab chiqarish xarajatlarini salmoqli darajada qisqarishini ta'min etuvchi yangi ishlab chiqarish jarayonlarining joriy qilinishi.

Ushbu qoidalardan kelib chiqib davomiy xarajatlarni ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: kapital xarajatlar va daromad xarajatlar. Kapital xarajatlar deganda, aktivlarning birinchidan, sifatini yuksaltirish (improve quality) ya'ni, boshqacha qilib aytganda aktivlarning amal qilishini yaxshilaydigan yoki yuksaltiradigan (betterments or improvements) va ikkinchidan, aktivlarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga olib keladigan (extent the life) sarflarga aytiladi. Kapital xarajatlaraktivlarning qoldiq (kitob) qiymatining yuksalishiga olib keladi. Kapital xarajatlar eksordinar remont xarajatlarida o'z aksini topadi.

Daromad keltiruvchi xarajatlar - joriy hisobot davri yoki kelgusi davrlarda daromad olishga xizmat qilishga qaratilgandir. Aktivlardan joriy foydalanish bilan bog'liq daromad xarajatlari aktivlarning qiymatini yuksaltirmaydi va ushbu xarajatlar joriy davr xarajatlariga olib boriladi. Daromad keltiruvchi xarajatlar ordinar remont xarajatlarida o'z aksini topadi.

Kapital xarajatlar uning ta'rifida keltirilgan birinchi jihatida, ya'ni aktivning sifatini yuksaltirishda o'z aksini topsa, ushbu xarajatlar aktivlar qiymatiga olib boriladi. "Samarqand don mahsulotlari" AJda 2023 yil 1 yanvar holatiga sosiy vositalarning boshlang'ich qiymati 37073857750,61 so'mni eskirish qiymati esa 21361852363,76 so'mni tashkil qilgan. 2024 yil 1 yanvar holatida boshlang'ich qiymat 37052009102,48 so'mni eskirish qiymati 25707385029,93 so'mni tashkil qilgan. 2025 yil 1 yanvar holatiga esa boshlang'ich qiymat 37830399538,95 so'mni, eskirish qiymati 29455021386,53 so'mni tashkil qilgan[10]. Yuqoridagi summalardan ko'rinib turibdiki, asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatlarida katta summaga o'zgarish ro'y bermagan, ya'ni asosiy vositalarning yangilanishi deyarli kuzatilmagan hamda kapital ta'mirlash ishlari olib borilmagan. Lekin eskirish summalarida sezilarli o'zgarish ro'y bergan, ya'ni korxonada har yili to'rt milliard so'mdan ziyod eskirish summasi hisoblangan. Demak korxonaning asosiy vositalarining qoldiq qiymatining summasini kamayishini ko'ramiz, bu esa korxonaning asosiy vositalari eksplutatsiya ta'mirlash ishlariga moyilligini oshiradi, hamda xarajatlar miqdorini oshishiga olib keladi.

XULOSA

16-son BHXS "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq ko'chmas mulk (er, bino), mashina va asbob-uskunalar bilan bog'liq davomiy xarajatlar hisobining metodik masalalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Xalqaro standartlarga moslashuv – Asosiy vositalar hisobini yuritishda milliy BHMS me'yorlari va xalqaro standartlar (IAS 16, IAS 36) talablari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash korxonalar moliyaviy natijalarini shaffof va solishtiriladigan shaklda ko'rsatishga xizmat qiladi. Boshlang'ich qiymatni belgilash – Asosiy vositalarni sotib olish, qurilish, tekin olish yoki ustav kapitaliga qo'shish orqali kiritilgan holatlarda boshlang'ich qiymatni aniqlashning aniq metodikasi ishlab chiqilishi zarur.

Shaffoflik talablari – asosiy vositalar bo'yicha tan olish, qayta baholash, amortizasiya siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy hisobotlarda izohlar bilan ochiq qilinishi, foydalanuvchilarga to'liq ma'lumot beradi. «Hududiy gaz ta'minoti» aksiyadorlik jamiyatida qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar asosida xarajatlarni hisoblash usulini ishlab chiqishi kerak. Xarajatlarni hisoblash usulini tanlashda, asosiy vositalarning holati, gaz ta'minoti va gazni sotish rentabelligi darajasini, tashkilotning hayot aylanishini hisobga olish kerak. Tashkilotning biznes - rejasida belgilanadigan rejalashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi katta ahamiyatga ega. Amaliy misollarning qo'llanishi – AJ korxonalarida asosiy vositalar hisobini xalqaro talablarga muvofiq yuritish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar, jadvallar va diagrammalar yordamida amaliy tajriba asosida qo'llash zarur.

Ushbu xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi asosiy vositalar hisobining ishonchliligi va haqqoniyligini oshirib, korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi hamda ularning strategik rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. BHXS (IAS) 16 “Asosiy vositalar”.
2. Kieso, D.E., Weygandt, J.J., Warfield, T.D. Intermediate Accounting: IFRS Edition. — Wiley, New York, 2020.
3. Libby, R., Libby, P.A., Short, D.G. Financial Accounting. — McGraw-Hill Education, New York, 2019.
4. Grant Thornton International Ltd. Navigating the Accounting for Property, Plant and Equipment under IAS 16. — Global IFRS Guide, 2021.
5. Deloitte Touche Tohmatsu Limited (IAS Plus). IAS 16 — Property, Plant and Equipment: Practical Application. — Deloitte IFRS Resources, 2022.
6. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. Qurbonov A.Sh. Korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalari. — Ilmiy maqola, iqtisodiy jurnallar to'plami, Toshkent, 2018.
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts>
10. "Samarqand don mahsulotlari" AJ balans ma'lumotlari.

Meliyev Isroil Ismoilovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori

Email: melievisroil1981@gmail.com

**O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI
O‘TKAZISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Мелиев Исроил Исмоилович,
Профессор Ташкентского государственного
экономического университета

Email: melievisroil1981@gmail.com

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭТАПЫ ПРОВЕДЕНИЯ
АУДИТ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Meliyev Isroil Ismoilovich,
Professor of Tashkent state university of economics

Email: melievisroil1981@gmail.com

IMPROVING AUDIT PROCESSES IN UZBEKISTAN

Аннотасија. Mazkur maqolada O‘zbekiston amaliyotida auditorlik tekshiruvini o‘tkazishni takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning kirish qismida Respublikada auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish, mazkur sohada tadqiqot olib borish dolzarbligining mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqola mazmunini yoritishda qanday tadqiqot metodlari qo‘llanilganligi, mavzu bo‘yicha tahlil etilgan ko‘rsatkichlar va erishilgan ilmiy natijalar asosida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlar mohiyati ochib berilgan.

Тайанч со‘злар. Auditorlik tekshiruvlari, auditorlik xizmati, auditor, auditorlik tashkiloti, auditorlik tekshiruvi buyurtmachisi, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, auditorlik xulosasi, audit natijalarini umumlashtirish va baholash, auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi

Аннотация. Статья посвящена вопросам совершенствования практики аудиторской деятельности в Узбекистане. По результатам исследования, на основе научных исследований автора, изложены структура этапов системы нормативного регулирования аудиторской деятельности Республики Узбекистан, содержание этапов, обеспечивающих качество аудиторской проверки, примерный состав аудиторской группы, участвующей в проверке, и задачи, выполняемые каждым членом аудиторской группы, методические основы организации и проведения аудиторских проверок, рекомендуемые автором этапы для обеспечения качества аудиторской проверки в субъектах предпринимательства и описание выполняемых на них действий.

Ключевые слова: Аудиторские проверки, аудиторская услуга, аудитор, аудиторская организация, заказчик аудита, планирование аудита, аудиторское заключение, обобщение и оценка результатов аудита, заключительный этап аудита.

Abstract. This article is devoted to the issues of improving the practice of auditing in Uzbekistan. According to the results of the study, the structure of the stages of the regulatory system

of auditing activities of the Republic of Uzbekistan, the content of the stages ensuring the quality of auditing, the sample composition of the audit team participating in the audit and the tasks performed by each audit member, the methodological foundations of the organization and conduct of audit audits, the stages recommended by the author to ensure the quality of auditing in business entities and the description of the actions performed in them are described based on the author's scientific research.

Key words. Audit inspections, audit service, auditor, audit organization, audit client, audit planning, audit conclusion, summary and evaluation of audit results, final stage of audit

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda auditorlik faoliyatining mustahkam normativ-huquqiy bazasi va o'ziga xos milliy auditorlik xizmatlari bozori shakllantirildi, uni rivojlantirish uchun ta'sirchan iqtisodiy omillar hamda soliq imtiyozlari qo'llanilmoqda, auditorlik faoliyatini litsenziyalash tizimi jiddiy ravishda soddalashtirildi hamda erkinlashtirildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalariga qaramasdan "...auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti..." [1]. O'tkazilayotgan islohotlar natijasida mazkur muammoning yechimi sifatida "yirik davlat korxonalaridamoliyaviy hisobot tuzish va audit o'tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish" [2] kabi muhim vazifalar belgilab qo'yildi. O'z navbatida, yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'minlashda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishning amaliy va uslubiy jihatlarni takomillashtirish, tekshiruvlarda ilg'or xorij tajribasi va dasturiy vositalardan foydalanish, xalqaro standartlar asosida tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, umumlashtirish va baholash kabi masalalar yaxlit tarzda batafsil o'rganilmaganligi, xususan, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish hamda o'tkazishni takomillashtirishga oid chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida auditorlik tekshiruvini tashkil etish va amalga oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, moliyaviy hisobot auditida muhimlik va risk darajasini aniqlash, tekshiruv natijalarini umumlashtirish va auditorlik xulosalarini shakllantirish, auditda firibgarlik holatlarini aniqlash va bartaraf etish, auditorlik tekshiruvlarida tahliliy amallarni qo'llash va ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash masalalarini takomillashtirishga erishilgan. Biroq, xalqaro standartlar talablari darajasida auditorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi bois, mazkur dolzarb masalalar hanuzgacha to'liq o'z yechimini topmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uslubiyatining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo'yicha asosan xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga E.A.Arens, Dj.K.Lobbek, A.D.Sheremet va V.P.Suyslarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan esa, bu masalalar yaratilgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, e'lon qilingan ilmiy maqola va tezislarda faqat auditorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari o'rganilgan. Masalan, R.D.Dusmuratov, N.F.Karimov, Z.T.Mamatov, M.M.To'laxo'jaeva, I.N.Qo'ziev, B.Q.Hamdov va I.I.Melievlarining asarlarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishning nazariy asoslarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan [3-8].

Jumladan, o'zbek iqtisodchisi O.Barakaev tomonidan tekshiruvlarni quyidagi "to'rt bosqichda:

1. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va loyihalashtirish;
2. Nazorat testlarini bajarish va operasialarni mohiyatan testlash;
3. Tahliliy amallarni bajarish va schyotlarni batafsil testlash;
4. Auditorlik tekshiruvini yakunlash va auditorlik xulosasini berish” kabi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi [9].

Iqtisodchi olim I. Avazov o’z tadqiqotlarida “...tekshiruvlarda so’rovnoma o’tkazish, yozuvlarni hujjatlar bo’yicha tekshirish, kuzatish, skanerlash, mos soha mutaxassislarini jalb qilib maxsus tekshiruv o’tkazish” kabi amallarni bajarish samarali deb hisoblaydi [10]. Yana bir mahalliy iqtisodchi olimlardan Z. G’aniev esa tekshiruv jarayonida asosiy e’tiborni auditorlik dalillarni to’plashga qaratish lozimligini ta’kidlab, “...auditorlik dalillarini olishda tahliliy amallar guruhlashtirilib, inventarizatsiya komissiyasi faoliyatini o’rganish, bank, mol etkazib beruvchilar, xaridor va boshqa tashkilotlarga qarshi tekshirish, investorlar haqida ma’lumot olish, o’tkazilgan audit xarajatlarini to’g’risida ma’lumot olish...” lozimligi to’g’risida fikr bildirgan [11].

Iqtisodchi olim I. Choriev auditorlik tekshiruv jarayoni quyidagi bosqichlar asosidagi tahliliy amallarni bajarish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi:

1. “Mijoz biznesi bilan tanishish;
2. Tahliliy amallar yordamida hisobotlardagi xatolarni aniqlash;
3. Korxonada faoliyati uzluksizligini baholash;
4. Korxonada faoliyati samaradorligi va iqtisodiy barqarorligini baholash;
5. Korxonada rahbariyati uchun auditor ma’lumotlarini tayyorlash” [12].

Bizningcha, yuqoridagi tadqiqotlarda auditorlik tekshiruvini amalga oshirish jarayonlariga nazariy jihatdan yondashilgan bo’lsada, ularda tekshiruvni amalga oshirishning aniq amaliy tartibi ya’ni tekshiruvlarda amaliy tatbiqi keltirilmagan. Ta’kidlash joizki, amaldagi xalqaro standartlarda ham tekshiruvni o’tkazishga auditor sub’ektiv ya’ni, o’z bilim va malakasiga tayangan holda o’tkazishi lozimligi ko’rsatilgan. Auditning xalqaro standartlarida ham aynan tekshiruvni o’tkazishning to’liq va yaxlit mazmunda amalga oshirish tartibi ko’rsatilmagan yoki tekshiruvni o’tkazishning barcha jarayonlarini o’zida mujassamlashtirgan alohida standart mavjud emas. Yuqorida keltirilgan fikrlar auditorlik tekshiruvini o’tkazish jarayonlarini bugungi davrgacha to’liq o’rganilmaganligini va bu borada tadqiqotlar olib borilishi dolzarbligini ko’rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida nazariy va amaliy o’rganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida auditorlik tashkilotlari va auditorlik xizmatlari buyurtmachilari faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yo’llarini takomillashtirish, auditorlik tekshiruvlari sifati va samaradorligini hamda samaradorlik ko’rsatkichlariga ta’sir etuvchi boshqa bir guruh omillar ta’sirini hisoblash yo’llarini ishlab chiqish va mazkur ko’rsatkichlarni yaxshilash bo’yicha ichki imkoniyatlarni aniqlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibini ishlab chiqishga qaratilgan.

Natijalar va muhokama

Fikrimizcha, hozirgi auditorlik amaliyotining eng asosiy masalasi bu - auditorlik tekshiruvlari qanday uslubda o’tkazilishi ya’ni, auditorlik vazifalari ketma-ketligi, ularda qo’llaniladigan auditorlik usullar, tekshiruvni o’tkazish tartib va qoidalari hamda tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallari mazmunini ochib berishdan iborat. Ushbu masalada jahon va milliy auditorlik amaliyotida turlicha fikr va yondashuvlar mavjuddir.

Bizningcha, tekshiruv jarayonlarida shunday uslubiyat qo'llanilishi lozimki, bu uslubiyatdan foydalanilishi auditorlik tashkiloti uchun kamxarajat, kam mehnat sarfini talab qilishi, tekshirilayotgan sub'ekt va auditorlik tashkilotini qanoatlantiradigan masalalar yechimini ta'minlashi hamda tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisoboti ishonchliligini to'liq baholanishini ta'minlashi zarur. Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvining samaradorligi uni o'tkazish jarayonlarining amaldagi muammolari bartaraf etilishiga bog'liqdir (1-jadval).

1-jadval

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonlarining amaliy muammolari¹

№	Muammoning mazmuni
1	Auditorlik tekshiruvining o'tkazish bosqichlari to'g'risida ilmiy va amaliy yondashuv yoki olimlar qarashlarining xilma-xilligi sababli auditorlik tekshiruvlarning turli tartib yoki yondashuvlar asosida o'tkazilishi
2	Tekshiruv buyurtmachisi tadbirkorlik faoliyati xususida to'liq va aniq axborotga ega bo'lmaslik yoki mijoz faoliyatini tushunmaslik
3	Risklarni noto'g'ri baholash va segmentlarga ajratish
4	Tekshiruvlarda auditorlik usul va amallarining yetarli darajada bajarilmasligi
5	Tekshiruv jarayoni va uning natijalari noto'g'ri mazmun va shaklda hujjatlashtirilishi
6	Tekshiruv buyurtmachisi bilan ochiq va aniq aloqa(muloqot)ning yetarli emasligi
7	Auditorlik rejalashtirish jarayonlarining sifatsiz yoki 300 son «Auditni rejalashtirish» nomli xalqaro standart me'yorlariga rioya etilmasligi yoki amaliyotda auditorlik umumiy rejasi va dasturidan standartlar talablari darajasida foydalanilmasligi
8	Auditorlik tashkilotlari faoliyatida xalqaro tajribada qo'llaniladigan «audit o'tkazish jadvali»dan foydalanilmasligi oqibatida auditorlik tashkiloti xodimlarining mehnat ta'tili yoki xizmat safarlarini tashkil etish, auditorlik tashkilotida ishlar taqsimoti holati, auditorlik tashkilotlarining turli sharoitlarda (masofaviy yoki audit jarayonlarida dasturiy ta'minotdan foydalanish, turli resurslar cheklangan sharoitlarda audit) tekshiruvni amalga oshirishga tayyor emasliklari
9	Tekshiruvlar jarayonida auditorlarga tekshiruv buyurtmachisi hisob tizimi yoki buxgalteriya axborotlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi (auditorlarga tekshiruv buyurtmachisi tomonidan axborot xavfsizligini ta'minlash yoki boshqa vajlarga ko'ra axborot tizimlaridan foydalanishga ruxsat berilmasligi yoki cheklanishi)
10	Tekshiruvlar jarayonida auditorlar xizmatidan belgilangan vaqt me'yorlaridan ortiqcha foydalanilishi natijalarini hisobga olinmasligi
11	Tekshiruv buyurtmachilari tomonidan auditorlarga MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotning drafti(dastlabki varianti), o'tgan davrlarda o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari, barcha hisob-kitoblar, moliyaviy hisobotga tushuntirish xati, transformasiya yoki konsolidasiyaga oid fayllarning to'liq va o'z vaqtida berilmasligi
12	Auditorlik tekshiruvlarida 570 son «Faoliyat uzluksizligi to'g'risida faraz» nomli auditning xalqaro standarti me'yorlaridan yetarlicha foydalanilmasligi oqibatida tekshiruv buyurtmachisining kelgusi davrda o'z majburiyatlarini bajara olish qobiliyati hamda korxonaning moliyaviy, operasion va yuridik ko'rsatkichlari yetarlicha baholanmasligi
13	Tekshiruvda aniqlangan firibgarlik, moliyaviy hisobot buzilishi va xatoliklarning tekshiruv buyurtmachisi moliyaviy hisobotiga ta'sirini yetarlicha baholanmasligi va ularni kelgusida qayta takrorlanmasligi yuzasidan korxonah rahbariyati bilan birgalikda chora-tadbirlar ko'rilmasligi yoki takliflar ishlab chiqilmasligi
14	Auditorlik tekshiruvlarida 260 «Boshqaruv yuklatilgan shaxslar bilan axborot almashinuvi», 265 «Ichki nazoratdagi kamchiliklar yuzasidan boshqaruv yuklatilgan

¹ Amaliy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

	shaxslar va rahbariyat bilan axborot almashinuvi», 320 «Auditni rejalashtirish va bajarishda muhimlik», 330 «Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari», 505 «Tashqi tasdiqnomalar», 510 «Dastlabki audit kelishuvlari – boshlang‘ich qoldiqlar», 560 «Keyingi hodisalar», 570 «Faoliyatning uzluksizligi to‘g‘risidagi faraz», 580 «Yozma bayonotlar», 610 «Ichki auditorlar ishidan foydalanish», 705 «Mustaqil auditor hisoboti (xulosasi)da fikrni modifikasiyalash», 706 «Mustaqil auditor hisoboti (xulosasi)da tushuntirish paragraflari va boshqa masala paragraflari», 710 «Qiyosiy axborot – qiyosiy ko‘rsatkichlar va qiyosiy moliyaviy hisobotlar» va XAAI 1000 «Moliyaviy instrumentlarni auditdan o‘tkazishda maxsus jihatlar (Xalqaro audit amaliyoti izohlari)» standartlari me‘yorlaridan yetarlicha foydalanilmasligi
15	Auditorlik tekshiruvlarida jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan AuditNET, IT AUDIT:Auditor, AUDIT XP «Kompleks Audit», «Ekspress audit:PROF», «Teams» va «LEAP» singari professional auditorlik dasturiy ta‘minotlar hamda tekshiruv buyurtmachilari hisob tizimida esa dasturiy ta‘minotlardan foydalanilmasligi oqibatlarining auditorlik tekshiruvlariga ta‘siri va boshqalar

Ma‘lumki, auditorlik tekshiruvi bugungi kunda masofaviy va an‘anaviy (auditorlik tekshiruvi buyurtmachisi joylashgan manzilda xo‘jalik sub‘ekti mas‘ullari bilan birgalikda) shakllarda amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, masofaviy shakldagi auditorlik tekshiruvi deganda, muayyan sabablar (pandemiya yoki boshqa yuqumli kasallik holatlari, tekshiruv buyurtmachisi joylashgan manzilning uzoqligi va buyurtmachining boshqa talablari)ga ko‘ra masofadan turib auditorlik tekshiruvini bajarish jarayoni tushuniladi.

Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvining sifatli va samarali o‘tkazilishini ta‘minlash uchun auditor quyidagi auditorlik amallarini ketma-ketlikda bajarishi maqsadga muvofiqdir:

1. Tekshiruv buyurtmachisi bilan auditorlik shartnomasi shartlarini kelishib olish;
2. Tekshiruv buyurtmachisi iqtisodiy (tadbirkorlik) faoliyatidagi mavjud risklarni aniqlash va baholash;
3. Korxonada faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligini o‘rganish maqsadida dastlabki tahliliy amallar va auditorlik usullarini bajarish;
4. Tekshirilayotgan sub‘ekt faoliyati bo‘yicha auditorlik riski va muhimlik darajasini baholash;
5. Korxonada ichki nazorat tizimi faoliyatini baholash va ichki nazorat riski darajasini kamaytirish omillarini aniqlash;
6. Korxonada faoliyati qonuniyligi va moliyaviy hisoboti ko‘rsatkichlari ishonchliligini aniqlash maqsadida anketa, so‘rovnoma o‘tkazish va testlash amallarini bajarish;
7. Amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligi va ularni moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri umumlashtirilganligini o‘rganish;
8. Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarida og‘ishishlar yoki ularni buzib ko‘rsatish holatlarining mavjudligi va chetga chiqishlarni paydo bo‘lish sabablarini baholash;
9. Korxonada buxgalteriya hisobraqamlaridagi qoldiqlar mavjudligi, hamda muomalalarni buxgalteriya schyotlarida to‘g‘ri va o‘z muddatida aks ettirilganligini o‘rganish;
10. Tekshiruv natijalari bo‘yicha to‘plangan dalillarni umumlashtirish va auditorlik ish hujjatlari (oralik va umumiy auditorlik ma‘lumotnomalari)ni tayyorlash;
11. Tekshiruvda aniqlangan kamchiliklarning jiddiyligini (korxonada moliyaviy natijalariga ta‘sirini) baholash;
12. Tekshiruv natijalari bo‘yicha umumiy ma‘lumot (auditorlik hisoboti)ni tayyorlash va auditorlik xulosasini tayyorlash;

13. Auditorlik xulosasi va tekshiruv natijalarini tekshiruv buyurtmachisiga taqdim etish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan auditorlik vazifalari auditorlik usullari va amallari asosida bajariladi. Fikrimizcha, auditorlik usuli deganda, auditni fan sifatida o'rganish va uni faoliyat turi sifatida auditorlik xizmatini ko'rsatish jarayonlarida bajariladigan vazifalar va tahliliy amallar majmui tushunilsa, auditorlik amallari deganda esa auditni fan sifatida o'rganish va faoliyat turi sifatida auditorlik xizmatini ko'rsatish jarayonlarida amalga oshiriladigan tarkibiy amal (kichik hajm va qisqa muddatli vazifa)lar tushuniladi. Bugungi kunda amaliyotda auditorlik usullari sifatida hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya, statistik tahlil, taftish, o'zaro solishtirish yoki taqqoslash, gipoteza va prognozlashtirish, testlash yoki anketa savolnomalarini o'tkazish, ekspertiza, muqobil balans tuzish, tizimli tekshirish, kuzatish, haqiqiy holatni baholash, tasdiqlash, tahliliy amallar va so'rov kabilar tushunilsa, har bir auditorlik usulini qo'llash jarayoni tegishli amallarni bajarish orqali bajariladi.

Bizningcha, hozirgi auditorlik amaliyotining eng asosiy masalasi bu - auditorlik tekshiruvlari qanday uslubda o'tkazilishi ya'ni, auditorlik vazifalari ketma-ketligi, ularda qo'llaniladigan auditorlik usullar, tekshiruvni o'tkazish tartib va qoidalari hamda tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallari mazmunini ochib berishdan iborat. Bugunga qadar ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va yaratilgan o'quv adabiyotlarida auditorlik tekshiruvni qanday uslublar asosida amalga oshirilishi, ya'ni, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish ketma-ketligi, ularda qo'llaniladigan auditorlik usullar va amallar tavsifi hamda mazkur tekshiruvni o'tkazish tartib va qoidalari mazmuni nazariy va amaliy jihatdan to'liq ochib berilmagan. Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvini sifatli va samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun mazkur jarayonni quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichlari²

Shuningdek, yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan tekshiruv bosqichlari auditning xalqaro standartlarida belgilangan tahliliy amallar asosida o'tkazilishi auditorlik tekshiruvini sifatli va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bugungi kunda auditorlik amaliyotida auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, o'tkazish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish jarayonida o'z echimini kutayotgan qator muammolarni bartaraf etish, ularning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan sanaladi.

² Muallif tomonidan tayyorlangan

Xulosa

Izlanishlar natijasida auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqotlarda tekshiruvni tashkil etish va o'tkazishga umumiy jihatdan yondashilganligi, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallarini bajarishda ilg'or xorij tajribasi va auditning xalqaro standartlariga muvofiq bajarishda hali etarlicha muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish va auditorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni ko'paytirish zarur. Yuqoridagi masalalarga aniqlik kiritish maqsadida maqolada auditorlik tekshiruvini 3 nomdagi bosqichlarda bajariladigan amallar orqali amalga oshirilishi tavsiya etildi.

Bugungi kunda auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish bo'yicha ko'plab me'yoriy - huquqiy hujjatlar yoki adabiyotlar ishlab chiqilgan bo'lsada, ularda asosan tekshiruvni tashkil etish va o'tkazishga umumiy jihatdan yondashilib, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallari aniq va to'liq yoritib berilmaganligi ilmiy mushohada etildi. Bugungi kunda auditorlarning auditning xalqaro standartlari me'yorlarini to'liq o'zlashtirmaganliklari va respublikada auditning xalqaro standartlari me'yorlari yangi tartib sifatida o'rnatilganligi tekshiruvlarni turlicha yondashuvlar asosida o'tkazilishi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga ishonchli kafolat berilishini so'roq ostiga qo'yilishiga ta'sir etmoqda.

Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvlarini qisqa muddatda sifatli o'tkazilishini ta'minlash hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchligini ta'minlash uchun rivojlangan davlatlar auditorlik amaliyotida keng qo'llanilayotgan AuditNET, ITAUDIT:Auditor, AUDITXP "Kompleks Audit", "Ekspress audit:PROF", Auditsoft va Audit Sampling va First-Audit kabi ilg'or auditorlik dasturlarini amaliyotga joriy etilishini ta'minlashni o'qitish tizimini yo'lga qo'yish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori. <http://lex.uz/docs/3914502>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid [davlat dasturi](#) to'g'risida"gi PF-5635-sonli farmoni. <https://nrm.uz;>

3. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. – T.: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.;

4. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: Monografiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. – 262 b.;

5. Mamatov Z.T. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobot auditini o'tkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dis. avtoref. – T., 2005. – 40 b. – 160b.; Tulaxo'jaeva M. Korxonada moliyaviy ahvoli audit. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1996 – 193 b.;

6. Qo'ziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. -70 b;

7. Hamdamov B.Q. O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dis. avtoref. – T.: 2007. – 260 b;

8. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishni takomillashtirish: Iqtisod fan. dok. (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent: TMI, 2020. 63b.;
9. Barakaev O.O. Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida audit: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya-T.: "Chinor fayzi baland", 2021. - 288 b.
10. Avazov I.R. Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent:, «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2020, - 19 b.
11. G'aniev Z.U. Auditorlik dalillarini yig'ish va tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2021. -22 b.
12. Choriev I.H. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.: 2021. -24 b.

Tashmanov G'olib Davronovich
Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**UZOQ MUTTADLI AKTIVLARNI HISOBGA OLISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING
XALQARO STANDARTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Tashmanov Golib Davronovich
Associate professor of Accounting department,
PhD in Economics, Tashkent State University of Economics.
ORCID:0000-0002-4885-3286
email: golibbek1982@mail.ru

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING
STANDARDS IN ACCOUNTING FOR NON-CURRENT ASSETS**

Ташманов Голиб Давронович
Доцент кафедры бухгалтерского учета,
Ташкентский государственный экономический университет.
ORCID:0000-0002-4885-3286
email: golibbek1982@mail.ru

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ
ОТЧЕТНОСТИ В УЧЕТЕ ВНЕОБОРОТНЫХ АКТИВОВ**

Annotatsiya. Ushbu maqola uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish jarayonida moliyaviy hisobotning xolislik va sezuvchanlik tamoyillarining (MHXS) ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qiladi. Moliyaviy hisobot tamoyillari kompaniyalarning uzoq muddatli aktivlarni samarali boshqarish va to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishida muhim vosita ekanligi ko'rsatib beriladi. Maqolada MHXSlar yordamida aktivlarning baholanishi, amortizatsiya hisob-kitoblari va ularning moliyaviy hisobotdagi aks ettirilishi misollar bilan tushuntiriladi. Shuningdek, moliyaviy hisobot tamoyillarining uzoq muddatli aktivlarning iqtisodiy qiymatini aniqlashda korxonalar boshqaruvi va investitsiya qarorlariga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MHXSlar korxonalarda uzoq muddatli aktivlarni samarali boshqarish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlar uchun to'g'ri moliyaviy ma'lumotni taqdim etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Uzoq muddatli aktivlar, moliyaviy hisobot, MHXS, amortizatsiya, aktivlarni baholash, moliyaviy shaffoflik, investitsiya qarorlari.

KIRISH

Uzoq muddatli aktivlar (UMA) korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida asosiy iqtisodiy resurs sifatida xizmat qiladi. Ular moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatini oshirish, korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash va kelajakdagi investitsion qarorlarni asoslashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu aktivlarga yer maydonlari, binoinshootlar, ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari, intellektual mulk va boshqa moddiy hamda nomoddiy aktivlar kiradi.

Moliyaviy hisobotning xolislik va sezuvchanlik tamoyillari (MHXS) uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va baholash jarayonida nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi. Xolislik tamoyili aktivlarning iqtisodiy qiymatini moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirishni ta'minlash, sezuvchanlik tamoyili ushbu ma'lumotlarni foydalanuvchilar uchun dolzarb, tushunarli va qaror qabul qilishga qulay shaklda taqdim etadi. Shu bilan birga, MHXSlar orqali korxonalar boshqaruviga aktivlarni samarali boshqarish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlar hamda kreditorlar uchun ishonchli moliyaviy ma'lumotni yetkazish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish strategiyasida uzoq muddatli aktivlarni samarali boshqarish va moliyaviy hisobotni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan:

a. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrda PF-5173-sonli Farmoni "Moliyaviy hisobotni takomillashtirish va korporativ boshqaruvni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda xolislik va sezuvchanlik tamoyillarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

b. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-martda PQ-4311-sonli Qarori "Investitsion faoliyatni rag'batlantirish va korxonalar aktivlarini samarali boshqarish tizimini joriy etish to'g'risida" uzoq muddatli aktivlarni to'g'ri baholash va moliyaviy hisobotga haqqoniy aks ettirish mexanizmlarini yaratish bo'yicha vazifalarni belgilaydi.

c. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyunda PF-6082-sonli Farmoni "Korxonalar moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish va moliyaviy shaffoflikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" moliyaviy hisobot tamoyillari, xususan MHXSlar asosida uzoq muddatli aktivlar hisobini tartibga solishni taqozo etadi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar uzoq muddatli aktivlar hisobini modernizatsiya qilish, moliyaviy hisobotni xolis va sezgir qilish hamda korxonalar boshqaruvi va investitsion qarorlar sifatini oshirish maqsadida qabul qilingan. Shu tariqa, O'zbekistonning amaldagi iqtisodiy siyosati va Prezident farmonlari ham MHXSlar orqali uzoq muddatli aktivlarni boshqarish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashni qo'llab-quvvatlaydi.

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda yuzaga keladigan asosiy muammolar: ularning moliyaviy hisobotdagi baholash metodologiyasidagi noaniqlik, amortizatsiya va qayta baholash jarayonlaridagi chalkashliklar, shuningdek, moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun yetarli darajada sezgir va dolzarb ma'lumotlarning taqdim etilmasligidir. Shu munosabat bilan tadqiqotning asosiy maqsadi – MHXSlarning uzoq muddatli aktivlar hisobida o'rni va ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish va O'zbekiston Respublikasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan uyg'unligini o'rganishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

1. **Xorijiy olimlarning tadqiqotlari. International Accounting Standards Board (IASB, 2019)** uzoq muddatli aktivlarni baholash va moliyaviy hisobotga kiritish bo'yicha IAS 16 "Property, Plant and Equipment" standartini ishlab chiqdi. Standartga ko'ra, aktivlarning xarid qiymati va qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda haqqoniy va dolzarb aks ettirilishi lozim. Xususan, MHXSlar bu jarayonda aktivlarning iqtisodiy qiymatini foydalanuvchi talablariga mos tarzda aks ettirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi.

2. **Deloitte va PwC konsalting kompaniyalarining tadqiqotlari (2020–2021)** uzoq muddatli aktivlarni baholashda xolislik va sezuvchanlik tamoyillarining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, aktivlarni adolatli baholash korxonaning moliyaviy shaffofligini

oshiradi, investitsiya qarorlarini samarali qiladi va kredit resurslarini jalb etishda muhim omil hisoblanadi.

3. **Peter Drucker (2020)** moliyaviy boshqaruv nazariyasi doirasida uzoq muddatli aktivlarni to'g'ri baholash korxonalar samaradorligini oshirishda muhimligini ta'kidlaydi. Druckerning fikriga ko'ra, MHXSlar korxonalar ichki boshqaruvi va strategik rejalashtirish jarayonida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

4. **Mahalliy olimlarning tadqiqotlari. Boboev Sh., 2022, Toshkent:** Mahalliy tadqiqotlarda uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda MHXSlarning iqtisodiy ahamiyati va moliyaviy hisobot sifatini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Boboevning fikriga ko'ra, xolislik tamoyili aktivlarning haqiqiy qiymatini ko'rsatishda, sezuvchanlik tamoyili esa ma'lumotlarni foydalanuvchilar uchun tushunarli va qaror qabul qilishga qulay qilishda muhimdir.

5. **Qodirov A., 2021:** Mahalliy tadqiqotlarda O'zbekiston korxonalarida uzoq muddatli aktivlarni baholashda normativ-huquqiy hujjatlarning, xususan Prezident farmonlari va qarorlarining roli o'rganilgan. Qodirov aktivlarni to'g'ri baholash va moliyaviy hisobotga haqqoniy aks ettirish orqali investorlar ishonchini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi.

6. **Raximov B., 2020:** Uzoq muddatli aktivlar boshqaruvida MHXSlar asosida amalga oshiriladigan baholash metodologiyalari korxonalar resurslarini optimal boshqarish va investitsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Uzoq muddatli aktivlarni baholashda MHXSlar nafaqat moliyaviy hisobot sifatini oshirishga xizmat qiladi, balki korxonalar strategik boshqaruvi va investitsion qarorlar samaradorligini ham ta'minlaydi. Xorijiy standartlar va mahalliy normativlar (Prezident qarorlari va farmonlari) o'rtasidagi uyg'unlik uzoq muddatli aktivlarni boshqarish jarayonini yanada shaffof va samarali qiladi. Mahalliy olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida MHXSlarni tatbiq etish orqali korxonalarda moliyaviy shaffoflik va resurslardan samarali foydalanish yaxshilanadi. Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda MHXSlar korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar MHXSlarning amaliy ahamiyatini ko'rsatib, O'zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlari bilan uyg'unligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish jarayonida moliyaviy hisobot tamoyillari – xolislik va sezuvchanlik (MHXS)ning o'rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy vazifasi – MHXSlar asosida uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish tizimini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishdir.

Tadqiqotning usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, analitik-uslubiy tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul orqali mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IAS/IFRS), shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari o'rganildi. Shu orqali uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish jarayonida MHXSlarning iqtisodiy va moliyaviy ahamiyati aniqlandi.

Ikkinchidan, kvantitativ tahlil ishlatildi. Tadqiqot doirasida uzoq muddatli aktivlar bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar – xarid qiymati, qayta baholash qiymati, amortizatsiya miqdorlari va ularning moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun sezgirligi statistik usullar yordamida o'rganildi. Bu usul orqali aktivlarning xolis baholanishi va foydalanuvchilar uchun dolzarbligi miqdoriy jihatdan baholandi.

Uchinchidan, solishtirma tahlil qoʻllanildi. Mahalliy va xorijiy standartlar, shuningdek Oʻzbekiston normativ-huquqiy hujjatlari oʻrtasidagi farq va oʻxshashliklar aniqlab olindi. Uzoq muddatli aktivlarni baholash va hisobga olish boʻyicha xalqaro tajriba bilan milliy amaliyot taqqoslandi.

Tadqiqotning empirik bosqichida tanlangan mahalliy korxonalarining moliyaviy hisobotlari oʻrganildi. Uzoq muddatli aktivlarning xarid qiymati, qayta baholash natijalari, amortizatsiya va hisobotdagi sezuvchanlik darajasi empirik maʼlumot sifatida tahlil qilindi. Bu jarayon MHXSlar asosida aktivlarni hisobga olishning amaliy ahamiyatini koʻrsatdi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u uzoq muddatli aktivlarni MHXS tamoyillari asosida hisobga olish jarayonini ilmiy asosda tushuntiradi va korxonalar boshqaruvi hamda investitsion qarorlar qabul qilish jarayonlarini samarali qilish uchun amaliy tavsiyalar beradi. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan uygʻun metodologiya ishlab chiqish orqali Oʻzbekiston sharoitida moliyaviy hisobot sifatini oshirishga hissa qoʻshadi.

Tahlil va natijalar

Oʻzbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli aktivlarga qaratilgan sarmoyalar soʻnggi yillarda barqaror oʻsish tendensiyasini koʻrsatmoqda. Milliy Statistika Qoʻmitasining maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida asosiy kapitalga (fixed capital) yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi 443,6 trln soʻmni tashkil qilgan boʻlib, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,2% oʻsishni bildiradi¹. Ushbu koʻrsatkich uzoq muddatli aktivlarga sarmoyalar hajmining oshib borayotganini va korxonalarda asosiy vositalarning rivojlanishi darajasini namoyon qiladi.

Hududiy taqsimot boʻyicha Toshkent shahri asosiy kapitalga investitsiyalarda yetakchi oʻrinni egallab, 71,8 trln soʻm miqdorida sarmoya jalb qilgan. Toshkent viloyati va Namangan viloyati mos ravishda 63,6 trln va 51,4 trln soʻm sarmoya bilan ikkinchi va uchinchi oʻrinlarni egallagan². Bu hududiy farqlar korxonalar va investorlar uchun uzoq muddatli aktivlarning iqtisodiy qiymatini baholashda va moliyaviy hisobotlarni shaffof taqdim etishda muhim rol oʻynaydi.

Xorijiy investitsiyalarning hissasi ham sezilarli boʻlib, 2025-yilning birinchi choragida jami 8,7 mlrd AQSh dollari xorijiy investitsiyalar va kreditlar oʻzlashtirilgan. Shundan 6,6 mlrd dollari yangi asosiy fondlar yaratishga yoʻnaltirilgan³. Bu raqamlar uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy hisobotdagi oʻsishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi va MHXS tamoyillari doirasida “sezuvchanlik” jihatidan ahamiyatli hisoblanadi, chunki moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun aktivlarning real qiymati va investitsiyalarning ulushi toʻgʻri aks ettirilishi talab etiladi.

Makroiqtisodiy tahlil shuni koʻrsatadiki, 2025-yilda asosiy kapitalga sarmoyalarning GDPga nisbati yilma-yil 115,2% ni tashkil qilgan⁴, bu uzoq muddatli aktivlarga boʻlgan ehtiyojning ortayotganini bildiradi. Bunday sharoitda korxonalar va moliyaviy institutlar uchun MHXS tamoyillarini qatʼiy qoʻllash zarur. Xolislik va sezgirlik tamoyillari asosida aktivlarning moliyaviy hisobotda aks etishi foydalanuvchilarga real maʼlumot berib, investitsion va moliyaviy qarorlarni asosli qabul qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, soʻnggi yillarda investitsiyalar hajmining oʻsishi va hududiy tafovutlar uzoq muddatli aktivlarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini koʻrsatadi. Masalan, Toshkent shahri yetakchi hudud sifatida moliyaviy hisobotlarda katta

¹ <https://kun.uz/en/news/2025/10/24/fixed-capital-investments-in-uzbekistan-up-152-year-on-year?utm>

² <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64902-investitsiyalar-b-jicha-ajsi-ududlar-etakchi-2?utm>

³ <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistonda-asosiy-kapitalga-investitsiyalar-hajmi-159-trln-somga-oshdi/?utm>

<https://stat.uz/en/47-ofitsialnaya-statistika?utm>

⁴

miqdordagi aktivlarni aks ettiradi, bu esa foydalanuvchilarga iqtisodiy risklarni baholash va korxonalar rentabelligini tahlil qilish imkonini beradi.

Natijada, tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli aktivlarga bo'lgan sarmoya hajmi barqaror o'sishda, ularning moliyaviy hisobotdagi xolis va sezgir aks ettirilishi MHXS tamoyillari nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, korxonalar menejrlari, investorlar va auditorlar uchun moliyaviy qarorlarni asoslash va investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda dolzarbdir.

Uzoq muddatli aktivlarga sarmoyalar o'sishi investitsiyalarning 443,6 trln so'mga yetishi va 15,2% o'sish sur'ati uzoq muddatli aktivlarga katta hajmda sarmoya yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Bu esa korxonalarda asosiy vositalarning jadal rivojlanishi va kengayishini anglatadi. MHXS tamoyili nuqtai nazaridan, bunday o'sishni moliyaviy hisobotda xolis va haqqoniy aks ettirish zarur: agar aktivlar balansda noto'g'ri baholanadigan bo'lsa, moliyaviy hisobot foydalanuvchilari (investorlar, kreditorlar) noto'liq yoki chalg'ituvchi ma'lumot olishi mumkin.

Xorijiy kapitalning roli 2025-yilgi 6,6 mlrd dollarlik xorijiy investitsiya yangi asosiy fondlarga yo'naltirilgani (ya'ni real investing fixed assets) uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy hisobotdagi o'sishiga ta'sir qiladi. Bu MHXS tamoyili doirasida "sezuvchanlik" jihatidan muhim: moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun xorijiy investitsiyalarning ulushi va natijasi haqida ma'lumotlar nafaqat "investitsiya hajmi", balki "aktivlar qiymati" va "kelajakdagi amortizatsiya siyosati" nuqtai nazaridan muhim bo'ladi.

Hududiy farqlar Toshkent shahri va viloyatlari investitsiyalar bo'yicha yetakchilik qilganligi, hududiy strategik farqlilikni ko'rsatadi. Bu esa aktivlarning taqsimlanishi va ularning moliyaviy hisobotda aks etishi jihatidan qaror qabul qiluvchilar (korxonalar menejrlari, regional investorlar) uchun alohida ahamiyat kasb qiladi. MHXS tamoyillari yordamida har bir hududdagi aktivlarning iqtisodiy qiymatini real holatda aks ettirish va shaffof hisobot berish muhim.

Barqaror o'sish tendensiyasi 2024-yilda investitsiyalar o'sishi juda yuqori bo'lgan lekin 2025-yilda o'sish 15,2% ga tushganligi barqaror va barqarorlashtirilgan iqtisodiy o'sishga qaytish belgisi. Bu MHXS nuqtai nazaridan muhim, chunki moliyaviy hisobotlar barqaror o'sishni aks ettirganda foydalanuvchilar (investorlar, tahlilchilar) uchun risk va istiqbolni baholash osonlashadi.

Moliyaviy hisobot sifatiga bo'lgan ehtiyoj yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli aktivlarga katta sarmoya kiritilmoqda. Bunday holatda korxonalar va moliyaviy institutlar uchun MHXS tamoyillarini joriy etish va ularni moliyaviy hisobotda qat'iy qo'llash juda muhim. Xolislik (aktivlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini ko'rsatish) va sezgirlik (foydalanuvchilarga dolzarb ma'lumot taqdim etish) tamoyillari orqali hisobotlar ishonchliligi va shaffofligi oshadi.

Xulosa va takliflar

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobot tamoyillari – xolislik va sezgirlik (MHXS)ning amaliy ahamiyati O'zbekiston sharoitida muhim mavzu sifatida aniqlanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yil ichida O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalar barqaror o'sish sur'atini namoyon qilmoqda. Xususan, 2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida asosiy kapitalga yo'naltirilgan sarmoyalar hajmi 443,6 trln so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 15,2% o'sishni ko'rsatadi⁵. Ushbu tendensiya uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy hisobotlarda xolis va sezgir aks ettirilishi zarurligini ta'kidlaydi,

⁵ <https://kun.uz/en/news/2025/10/24/fixed-capital-investments-in-uzbekistan-up-152-year-on-year?utm>

chunki investitsion qarorlar va korxonalar boshqaruvi shaffof ma'lumotlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Hududiy nuqtai nazardan, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Namangan viloyati asosiy kapitalga investitsiyalarda yetakchi o'rinlarni egallagan. Bu hududiy tafovutlar uzoq muddatli aktivlarning taqsimlanishi va moliyaviy hisobotlarda ularning aks ettirilishiga ta'sir qiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning sezilarli ulushi (2025-yil birinchi choragida 6,6 mlrd dollari asosiy fondlarga yo'naltirilgan) uzoq muddatli aktivlarning balansdagi qiymatini aniq va xolis ko'rsatish zaruratini kuchaytiradi⁶.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va MHXS tamoyillarini tatbiq etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Moliyaviy hisobotlarda xolislikni oshirish:

a. Korxonalarda uzoq muddatli aktivlarning balans qiymatini aniqlash va qayta baholashni muntazam amalga oshirish.

b. Aktivlarning iqtisodiy qiymatini real holatda ko'rsatish, foydalanuvchilar (investorlar, kreditorlar, auditorlar) uchun to'liq va haqqoniy ma'lumot taqdim etish.

Sezgirlik tamoyilini tatbiq etish:

c. Moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi va foydalilik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni kiritish.

d. Investitsion qarorlar va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda aktivlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini hisobga olish.

Hududiy tafovutlarni hisobga olish:

e. Hududiy tafovutlar va sektoriy farqlarni moliyaviy hisobotlarda alohida aks ettirish.

f. Sarmoyalar hajmi va ulushini hududlar bo'yicha tahlil qilish orqali investitsion risklarni baholash imkoniyatini yaratish.

Investitsion qarorlarni qo'llab-quvvatlash:

g. Uzoq muddatli aktivlarga sarmoya kiritishda moliyaviy hisobotning xolis va sezgir bo'lishini ta'minlash.

h. Investorlar va kredit tashkilotlari uchun ma'lumotlarning to'liqligi va shaffofligini kafolatlash, bu esa investitsion jalb qilishni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, Sh. (2018). *Uzoq muddatli aktivlarning moliyaviy hisobotdagi roli va ularni baholash usullari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

2. Toshpulatov, A., & Karimov, F. (2020). *Moliyaviy hisobot tamoyillari va korxonalar faoliyati: O'zbekiston tajribasi*. Moliyaviy tahlil jurnal, 5(2), 45-57.

3. Penman, S. H. (2013). *Financial Statement Analysis and Security Valuation* (5th ed.). New York: McGraw-Hill Education.

4. Wild, J. J., Subramanyam, K. R., & Halsey, R. F. (2014). *Financial Statement Analysis* (11th ed.). New York: McGraw-Hill Education.

5. Healy, P. M., & Palepu, K. G. (2012). *Business Analysis & Valuation: Using Financial Statements* (5th ed.). Cengage Learning.

⁶ <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistonda-asosiy-kapitalga-investitsiyalar-hajmi-159-trln-somga-oshdi/?utm>

E'LON !!!

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining qarori bilan "Moliya" ilmiy jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan va jurnal iqtisodiy ilmiy nashr bo'lib, bosma holatda bir yilda 6-marta chop etilib, jurnalning har sonida ilmiy ishlanmalar iqtisodiy fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga mos holda o'zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar chop etib kelindi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va elektron axborotlar almashinuv davrida ilmiy jurnallarning ham faoliyati raqamlashtirilmoqda. Shu boisdan, ilmiy jurnalni yaqin istiqbolda Xalqaro jurnallar bazasi safidan joy olishini, chop etiladigan maqolalarga qo'yiladigan talablarni IMRAD usuli asosida ishlab chiqilishi, xalqaro bazalarda identifikatsiyalanishini e'tiborga olib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashi majlisining 5-sonli bayonnomasiga asosan "Moliya" ilmiy jurnalini elektron shaklga o'zgartirildi va 2025-yil yanvar oyidan boshlab iqtisodiy fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga mos holda o'zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar elektron chop etiladi.

Maqolalarni yuboorish buyicha quyidagi telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin: +998914536467